Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN

MISOL VA MASALALAR YECHISH

1-KITOB



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLAGI

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN

MISOL VA MASALALAR YECHISH

1-kitob

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2022

UDK 51(076.1)
KBK 22.1я7
P 46

Pirnazar Davronov. Matematikadan misol va masalalar yechish. Metodik qo‘llanma. – “Qamar media” nashriyoti. Toshkent – 2022-yil, 380 bet.

Taqrizchilar:

T.Ochilov – SamDUning O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi dotsenti;

Q.Xoliqov – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti.

Mazkur metodik qo‘llanmani yozishdan maqsad, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Shu ma’noda maktab matematikasini o‘qib-o‘rganuvchi o‘qituvchilar, ayniqsa repetitorlik qiluvchi hamkasblar, maktabdan keyingi ta’limga tayyorgarlik ko‘ruvchi o‘quvchilar davlat test markazi tomonidan nashr etilgan axborotnomalardagi misol va masalalarni yechishda biror qiyinchlikka duch kelishsa, biz yozgan kitoblardan foydalanishlari qulay bo‘ladi.

ISBN 978-9943-7049-3-0

S O‘ Z B O S H I

Assalomu alaykum muhtaram kitobxon. Sizni muhtaram, - deb atadim. Boisi, Olloh insonni muhtaram va mukarram qilib yaratgan. Bunga barchamiz birdek musharraf bo‘lishimiz uchun shahdu shijoat ko‘rsatmog‘imiz darkor. Men, 1973 – 2018-yillar davomida oliy o‘quv yurtlarda faoliyat ko‘rsatdim va doimo talabalarimdan ma’lum qismining yaxshi o‘qimasligidan tashvishlanib yashadim. Sababi, yoshlarimizdan har biri, jonajon Vatanimizning porloq kelajagini yaratishga, o‘zining hissasini qo‘shadigan insonlar hisoblanadi.

2018-yilning sentabr oyidan boshlab “Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi”da faoliyat ko‘rsatayapman. Shu joyga ishga kelib, talabalarimning yaxshi o‘qimasligi sabablarini bildim.

Markaz rahbarining topshirig‘iga asosan, malaka oshirishga kelgan tinglovchi maktab o‘qituvchilarining o‘zi o‘qitadigan fani bo‘yicha bilimlari ikki yili davomida o‘rganildi. Afsuski, maktablarning biror o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchilarning o‘zlashtirishlari 50% dan oshmadi. Jahonda o‘qitilishiga eng asosiy e’tibor qaratiladigan matematika fani bo‘yicha, bizning o‘qituvchilardan o‘rtach 57 foizi qoniqarsiz natija ko‘rsatishdi. Mamlakat, bu darajadagi o‘qituvchilarning o‘quvchilaridan nimani kutishi mumkin?

Bu salbiy oqibatning bosh sababi, aksariyat o‘qituvchilarning davlatimiz tomonidan chiqarilgan ta’lim

to‘g‘risida qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlardan behabarligi, o‘qitadigan fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya fanlari yutuqlarini o‘zlashtirib, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatiga qo‘llash bo‘yicha, o‘z ustida, talab darajasida ishlamasligidan iborat.

Malaka oshirishga kelgan o‘qituvchilarining e’tirof etishlaricha, 50% dan ortiq o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv imkoniyatlaridan past darajada o‘qigan holda maktablarni bitirishmoqda.

Men, bunday ma’lumotni bergan o‘qituvchilardan biriga “Aytaylik, sinfingizda 25 nafar o‘quvchi bor, ulardan biri sizning farzandingiz. 24 nafar o‘quvchi yaxshi o‘qiyapdi, bitta sizning farzandingiz yomon o‘qishiga rozimisiz?”- degan savol bilan murojaat qilishni odat qilganman. Ular keskin ravishda “yo‘q” deb javob berishadi. Shunday ekan, 50% dan ortiq o‘quvchilarni savodsiz qoldirishni qanday baholaysizlar? O‘sha bilimi past bolaning ota-onasi qariganda, o‘zini eplay olmaydigan bu inson ularga qanday ko‘maklashadi? Bu insonning zimmasiga tushadigan mamlakat yukini kim ko‘taradi? kabi savollarimiz, o‘qituvchilarga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda, o‘ylantirib qo‘ymoqda. Ularning aksariyat qismi, o‘z ustimizda ishlab, o‘quvchilarni yaxshi o‘qitmasak bo‘lmas ekan,- degan fikrlarga kelishmoqda.

Xalqimizda “Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham …”-degan naql bor. Shunga o‘xshash, mamlakatni yuqori darajada rivojlantiradigan ham, taraqqiyotini susaytiradigan ham o‘qituvchilar hisoblanadi. Chunki, mamlakat taraqqiyoti, undagi yetuk kadrlariga bog‘liq. Bunday kadrlarni esa

o‘qituvchilar tayyorlab beradi. Demak, Ona Vatanimizning kelajakdagi taraqqiyoti, bevosita uning oqituvchilari va murabbiy mutaxassislari kasbiy-shaxsiy faoliyatlarining natijadorligiga bog‘liq.

Repetitorlik qiluvchi o‘qituvchi mustaqil izlanadi, mustaqil o‘rganadi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Barcha o‘qituvchilarning oz ustida tizimli ishlashlariga erishmasdan, Vatan taraqqiyotiga erishib bo‘lmaydi.

Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘gitlarida aytilishicha, muallimlik eng yuksak farz amali bo‘lib, ustozlar haqqiga avvalo Olloh, farishtalar, barcha osmon va er egalari, hatto uyasidagi chumoli, suv ostidagi baliqlar ham salovat aytib turishar ekan. Har qanday kasb egasining, ayniqsa o‘qituvchining o‘z kasbiy-shaxsiy faoliyatiga mas’uliyatsizlik bilan yondashishi Olloh oldida katta gunoh, Vatanga xiyonat hisoblanar ekan. Bundan ko‘rinadiki, Ikki dunyo saodatini o‘ylaydigan har bir inson kasbiga sodiq bo‘lmog‘i darkor.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ibn Sinoning ilm o‘rganishi tartibi misolida, qadimgi o‘qib-o‘rganish (rejasi)ning 7 bosqichini quyidagicha bayon qilgan: 1) 10 yoshgach madrasada Qur’oni karimni yod olingan; 2) qonun, ya’ni shariat ilmi; 3) hisob (matematika); 4) falsafa; 5) mantiq; 6) tib; 7) tabbiiy fanlarni o‘rganilgan. Ibn Sino matematika ilmini, ko‘mir sotib tirikchiligini o‘tkazadigan olimdan olgan.

Jahonda “Singapur mujizasi” iborasi ko‘p ishlatiladi. Singapur davlati asoschisi Li Kuan Yuga, siz “Singapur mo‘jizasi”ga qanday erishdingiz, - degan savol ko‘p berilar ekan. Li Kuan Yuning javobi: “Men Singapurda mo‘jiza

yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat byudjetini ta’limga yunaltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim. Davlatdagi “mo‘jiza”larni qilgan insonlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni etishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz”.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham davlat boshiga kelgan kundan boshlab, asosiy e’tiborini ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratmoqda. Ta’lim to‘g‘risidagi chiqargan barcha farmonlari, qarorlari, Oliy Majlisga murojaatnomalari, xalq ta’limi xodimlari bilan muloqatlari mazmun mohiyati maktabgacha ta’limni, maktab ta’limini rivojlantirishga, o‘qituvchi va murabbiylarni kasbidan tashqari ishlardan, ortiqcha qog‘ozbozliklardan ozod qilishga, ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqe`i oshirishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektr majlisi Bayonida “O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Administratsiyasi, Hukumati, barcha darajadagi davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy hokimliklar rahbarlarining e’tibori maktab ta’limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatish – jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi zarur ekanligi ko‘rsatilsin”.

Joylarda barcha rahbarlar va mutasaddilar “Butut kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik” shiori

ostida maktab ta’limini rivojlantirishga yunaltirilgan buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga ytakchilik qilishi ko‘rsatib o‘tilsin” kabi qator, juda muhim qarorlar o‘z aksini topgan.

Respublikamiz xalqaro baholash tashkilotlariga a’zo bo‘ldi. 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunsh darajasi baholash uchun PIRLIS, 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholashda TIMISS, 15 yoshli ta’lim oluvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashda PISA, jahon miqyosida katta e’tibor qaratilayotgan STEAM (S – scitnce (tabiiy fanlar), T – technology (texnologiya), E – engineering (muxandislik san’ati), A – art (ijod), M – mathematics (matematika)) dasturi asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Ushbu tashkilotlarning barchasida matematik ta’limga aloxida e’tibor qaratilgan. Bunga hamohang tarzda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son Qarori e’lon qilindi.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karim “Iqro”, ya’ni o‘qi deb boshlangan bo‘lsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v): “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”,- deb marhamat qilgan bo‘lsalar, Imom Buxoriy (r.a): “Dunyoda ilmdan boshqa najot yuq va bo‘lmagay”,-deb aytgan bo‘lsa, Republikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat namunasi, barcha insoniy fazilatlar timsolidir”, - deb

bizlarni ulug‘laydi.

Biz muallim va murabbiylar kitoblarda va davlatimiz rahbari tomonidan shunchalik ulug‘lanar ekanmiz, Ona Vatanimizning porloq kelajagi va avlodlarimizning bizdan rozi bo‘lishlari, faxrlanishlari, ikki dunyomizning saodatli bo‘lishi uchun kasbimizga sodiqlik bilan mehnat qilishimiz zarur.

Men, Davlat test markazi tomonidan 1996-2003 yillarda chop etilgan 89 ta “Axborotnoma” ning 77 tasida matematika fanidan berilgan 5773 ta misol va masalalarni, 2003 yildan so‘ng “Matematika” va “Abiturient” ruknlarida e’lon qilingan misol va masalalarni yechib chiqqanman. Tabiiy-ki, malakalarini oshirishga kelgan maktablar o‘qituvchilarda “70 yoshdan oshgan bobo shuncha ish qilayotgan ekan, men nima qilayapman”,-degan fikrni uyg‘otish, ularni o‘z ustida ishlashga va repetitorlik qilishga yunaltirish maqsadida, yechilgan misol va masalalarimni matematika va fizika yunalishlari tinglovchilariga ko‘rsataman. Ishlarni ko‘rgan, mutaxassisligi qaysi fandan bo‘lishiga qaramasdan, ularni kitob qilib chiqarishimni taklif etishadi, hamma uchun foydali bo‘lishini ta’kidlashadi. Hatto ko‘pchiligi, qo‘lyozmalarimdan nushalar olishmoqdalar.

Hamkasblarimning takliflariga asosan, o‘zim yechgan misol va masalalarimni o‘quv qo‘llanma shakliga nashr etishga kirishdim. Bunda, misol va masalalarning yechimlarini berishda, kitobxonni ko‘proq mustaqil izlanishga, mustaqil fkrlashga, mustaqil ishlashga yunaltirishni maqsad qilib qo‘ydik, ya’ni o‘quvchi foydalanilgan formulalarni izlab topsin, masala yechilishining oson joylari, o‘quvchining qo‘liga

qog‘oz, ruchka olib oxiriga yetkazishi uchun qoldirilgan. Boshqacha aytganda masalalarning yechimlarini berishda “Keys stadi” talablari e’tiborga olindi.

Masalalarni yechishga bunday yondashuv, ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish bilan birga, ularda kompetentli-faoliyatli bo‘lishlarini kuchaytiradi, uzluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish layoqatini hosil qiladi.

Kitob yozishning bosh maqsadi, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat.

1996-1997-yillar axborotnomalarida berilgan misol va masalalarning yechimlarini mavzulashtirilgan tarzda, qolgan yillarnikini esa axborotnomalarda keltirilgan tartibda berdik.

Biz taklif etayotgan tizimda, o‘quvchi dastlab mavzulashtirilgan bir xil tipdagi misol va masalalarni yechishsa, keyingi axborotnoma bilan ishlash bosqichida, oldin o‘rgangan bilimlarini, o‘zgaruvchan sharoitlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashadi.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz birgalikda Vatanimiz, elimiz manfaati yulida umr bo‘yi o‘quvchi bo‘lib qolaylik, eng muhimi mustaqil izlanib, mustaqil o‘rganib, yangidan yangi g‘oyalarni o‘zlashtiraylik, ularni hayotga tatbiq etishda haqiqiy pragmatik bo‘lib, millatimizning koriga yaraydigan azmu shijoatli, g‘ayratu jasoratli, aqlu zakovatli, jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining mas’uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o‘qitib tayyorlab beraylik.

Pirnazar DAVRONOV

Misollar

(1996-1-1) $26 \cdot 25 - 25 \cdot 24 + 24 \cdot 23 - 23 \cdot 22 - 12 \cdot 8$ ning qiymatini toping.

A) 106 B) 1 C) 54 D) 8 E) 0

Yechilishi: 1) matematikada birinchi o‘rinda ishoralar va belgilarga e’tiborni qaratish zarur;

2) ko‘paytiruv bor joy birhad;

3) bir hadlar ayiruv, qo‘shuv ishoralari bilan bog‘lanib ko‘p hadlar hosil bo‘ladi;

4) ko‘paytiruv, qo‘shuv (ayiruv) bor joyda bir xil ko‘paytuvchilar qavsdan tashqariga chiqariladi va o‘rnida bir qoladi.

Shunga ko‘ra:

$26 \cdot 25 - 25 \cdot 24 + 24 \cdot 23 - 23 \cdot 22 - 12 \cdot 8 =$

$= 25(26 - 24) + 23(24 - 22) - 12 \cdot 8 =$

$= 25 \cdot 2 + 23 \cdot 2 - 96 = 2 \cdot (25 + 23) - 96 =$

$= 96 - 96 = 0.$ Javobi: E.

(1996-10-1) $21 \cdot 13 + 24 \cdot 13 + 45 \cdot 12 + 25 \cdot 44 - 89 \cdot 24$ ning qiymatini toping.

A)79 B) 126 C) 89 D) 0 E) 1

Yechilishi: $21 \cdot 13 + 24 \cdot 13 + 45 \cdot 12 + 25 \cdot 44 -$

$-89 \cdot 24 =$

$= 13 \cdot (21 + 24) + 45 \cdot 12 + 25 \cdot 44 - 89 \cdot 24 =$

$= 13 \cdot 45 + 45 \cdot 12 + 25 \cdot 44 - 89 \cdot 24 =$

$= 45(13 + 12) + 25 \cdot 44 - 89 \cdot 24 =$

$= 45 \cdot 25 + 25 \cdot 44 - 89 \cdot 24 = 25(45 + 44) - 89 \cdot 24 =$
$= 25 \cdot 89 - 89 \cdot 24 = 89(25 - 24) = 89 \cdot 1 = 89.$
Javobi: C.

Xulosa: Bunday misollar bir xil ko‘paytuvchilarni qavsdan tashqariga chiqarish orqali yechiladi.

(1997-12-2) Natural sonni 18 ga bo‘lganda, bo‘linma 15 ga, qoldiq 3 ga, teng bo‘ldi. Bo‘linuvchini toping.

A) 173 B) 243 C) 253 D) 273 E) 263

Yechilishi: Bo‘linuvchini topish uchun bo‘luvchini bo‘linmaga ko‘paytirib, qoldiqni qo‘shish kerak.

n- bitta natural son;

N- barcha natural sonlar to‘plami.

$n = 18 \cdot 15 + 3 = 273.$ Javobi: D.

(1996-3-71) 8^{99} oxirgi raqamini toping.

A) 0 B) 2 C) 4 D) 6 E) 8

Yechilishi: 8^{99} ning ma’nosi: 99 ta 8 ni bir-biriga ko‘paytirish;

99 ta 8 bir-biriga ko‘paytirilsa, bitta son hosil bo‘ladi.

Uning oxirgi raqami x topiladi:

$$8^{99} = \underbrace{8 \cdot 8 \cdot 8 \cdot \ldots \cdot 8}_{99\ ta} = \cdots x$$

Bu misol 3 bosqichda yechiladi:

1) takrorlanish soni topiladi: $\underbrace{\begin{matrix}1 & 2 & 3 & 0\\ 8 & 4 & 2 & 6\end{matrix}}_{4\ ta}$

Izoh: yozuvdagi 1, 2, 3, 0 lar qoldiqlar;

Ikkinchi qatordagi 8, berilgan sonning birinchi darajasini, 4 esa 8 kvadrati 64 ning oxirgi raqami, 2 esa 8 kudi 512 ning oxirgi raqami, 6 esa 8 to‘rtinchi darajasi 4096 ning oxirgi raqamini bildiradi.

Demak, 8^{99} soni darajaga ko‘tarilganda har to‘rtta 8, 4, 2, 6 oxirgi raqamlar takrorlanadi. Bundan ko‘rinadiki 8^{99} ning takrorlanish soni 4 ga teng.

2) 8^{99} darajaning daraja ko‘rsatkichi 99, takrorlanish soni 4 ga bo‘linadi.

3) qoldiq 3, izlanayotgan oxirgi raqam x ni aniqlaydi: $x = 2$. Javobi: C.

(1996-3-66) $\left(1-\frac{1}{2^2}\right)\left(1-\frac{1}{3^2}\right)\cdot\ldots\cdot\left(1-\frac{1}{100^2}\right)$ ni hisoblang.

A) $\frac{8751}{9900}$ B) $\frac{143}{200}$ C) $\frac{441}{600}$ D) $\frac{101}{200}$ E) $\frac{151}{300}$

Yechilishi: $\left(1-\frac{1}{2^2}\right)\left(1-\frac{1}{3^2}\right)\cdot\ldots\cdot\left(1-\frac{1}{100^2}\right)=$

1) Birinchi qavsning minusligi, oxirgi qavsning plyusligi kvadratsiz olinib, bir-biriga ko‘paytiriladi.

$=\left(1-\frac{1}{2}\right)\cdot\left(1+\frac{1}{100}\right)=$

2) Butun sonning maxraji 1 ga teng. $=\left(\frac{1}{1}-\frac{1}{2}\right)\cdot$

$\left(\frac{1}{1}+\frac{1}{100}\right)=$

3) kasir, ayiruv (qo‘shuv) bor joyda umumiy maxraj topiladi.

4) barcha maxrajlar bo‘linadigan eng kichik songa, umumiy maxraj deyiladi.

5) 1 bilan 2 ga umumiy maxraj 2 bo‘ladi.

6) umumiy maxraj birinchi kasrning maxrajiga bo‘linib, natija suratning ustiga yoziladi, huddi shunday umumiy maxraj ikkinchi kasrning maxrajiga bo‘linib, natija suratning ustiga yoziladi.

$\left(\frac{2}{1}-\frac{1}{2}\right)\cdot\left(\frac{100}{1}+\frac{1}{100}\right)=$

7) surat ustidagi songa ko‘paytiriladi, maxraj o‘zgarmaydi. Kasrni kasrga ko‘paytirish uchun surat suratga, maxraj maxrajga ko‘paytiriladi

$= \frac{2-1}{2} \cdot \frac{100+1}{100} = \frac{1}{2} \cdot \frac{101}{100} = \frac{101}{200}$. Javobi: D.

(1996-12-64) $\left(1-\frac{1}{3^2}\right)\left(1-\frac{1}{4^2}\right) \cdot \ldots \cdot \left(1-\frac{1}{101^2}\right)$ ni hisoblang.

A) $\frac{157}{303}$ B) $\frac{142}{303}$ C) $\frac{65}{101}$ D) $\frac{64}{101}$ E) $\frac{68}{101}$

Yechilishi: $\left(1-\frac{1}{3^2}\right)\left(1-\frac{1}{4^2}\right) \cdot \ldots \cdot \left(1-\frac{1}{101^2}\right) =$

$= \left(1-\frac{1}{3}\right)\left(1+\frac{1}{3}\right)\left(1-\frac{1}{4}\right)\left(1+\frac{1}{4}\right) \cdot \ldots \cdot$

$\cdot \left(1-\frac{1}{101}\right)\left(1+\frac{1}{101}\right) = \left(1-\frac{1}{3}\right)\left(1+\frac{1}{101}\right) =$

$= \frac{2}{3} \cdot \frac{102}{101} = \frac{68}{101}$.

1) Kasr, ko‘paytuvchi bor joyda qisqartirishning bor yoki yuqligini o‘ylash kerak.

2) Kasr bor joyda qisqartirishning bor yoki yuqligini o‘ylash kerak.

3) 102 bilan 3, uchga qisqaradi. 102 ni 3 ga bo‘lsak 34 tadan, 3 ni 3 ga bo‘lsak bittadan (maematika o‘rganishni xohlovchi shunga o‘xshash gapirishni bilmog‘i darkor). Javobi: E.

(1997-8-1) $5{,}8 - \frac{3}{7} \cdot 2{,}2 \cdot \left(-2\frac{1}{3}\right)$ ni hisoblang.

A) 3,6 B) -8 C) 8 D) -3,6 E) 6

Yechilishi: $5{,}8 - \frac{3}{7} \cdot 2{,}2 \cdot \left(-2\frac{1}{3}\right) =$

1) verguli bor kasrni o‘nli kasr deyiladi;

2) verguldan keyin 1 ta raqam tursa son10 ga, 2 ta raqam tursa 100 ga va hokazo bo‘linadi. Natijada o‘nli kasr to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri kasr ko‘rinishiga keladi;

3) aralash sonni noto‘g‘ri kasrga aylantirish uchun, maxraji butunga ko‘paytirilib, suratga qo‘shiladi va maxraj o‘zgarishsiz qoldiriladi;

$= \frac{58}{10} + \frac{3}{7} \cdot \frac{22}{10} \cdot \frac{7}{3} = \frac{29}{5} + \frac{11}{5} = \frac{29+11}{5} = \frac{40}{5} = 8.$ Javobi: C.

(1997-8-4) 1 soat 60 minut 2 sekund necha sekunddan iborat?

A) 106002 B) 12202 C) 14202

D) 13202 E) 12102

Yechilishi: $1\ s\ 160\ min\ 2\ sek =$

1) Orasiga qo‘shuv qo‘yib yoziladi.

$1\ s + 160\ min + 2\ sek = 60\ min + 160\ min + 2\ sek =$

$= 220\ min + 2\ sek =$

2) $220\ min\ ni\ 220 \cdot 1$ min $deb\ yoziladi.$

$= 220 \cdot 1\ min + 2\ sek = 220 \cdot 60\ sek + 2\ sek =$

$= 13200\ sek + 2\ sek = 13202\ sek.$ Javobi: D.

(1997-8-9) Quyidagilardan qaysi biri -1 ga teng?

A)$((-1)^3)^2$ B)$(-(-1)^3)^6$ C)$(-(-1)^2)^4$

D)$-((-1)^3)^4$ E) $((-1)^2)^4$

Yechilishi: 1) manfiy sonning juft darajasi musbat son bo‘ladi:

$(-1)^2 = 1;\ (-1)^4 = 1;\ (-1)^6 = 1;$

2) manfiy sonning toq darajasi manfiy son bo‘ladi:

$(-1)^3 = -1;\quad (-1)^5 = -1;\quad (-1)^7 = -1;$ Javobi: D.

(1997-7-2) $x = 10842,\ y = 5{,}49 \cdot 10^4\ va\ z = 306198$ sonlardan qaysilari 18 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

A) $faqat\ x$ B) $faqat\ y$ C) $y\ va\ x$
D) $faqat\ z$ E) $y\ va\ z$

Yechilishi: 1) Takma-tak yoziladi.

	2	9	18
$x = 10842$	+	−	−
$y = 5{,}49 \cdot 10^4$	+	+	+
$z = 306198$	+	+	+

2) Sonning standart shakli, oddiy shaklda yoziladi. Bunda, 10^4 darajani, birdan keyin to‘rtta nol turibdi deb tushunish kifoya, ya’ni 10 000 bo‘ladi. Javobi: E.

(1997-7-6) $\frac{42}{95} \cdot 1\frac{3}{14} : \frac{3}{5} : 2 \cdot 4\frac{3}{4}$ ni hisoblang.

A) $\frac{13}{8}$ B) $1\frac{3}{8}$ C) $2\frac{1}{8}$ D) $1\frac{5}{7}$ E) $2\frac{3}{5}$

Yechilishi: $\frac{42}{95} \cdot 1\frac{3}{14} : \frac{3}{5} : 2 \cdot 4\frac{3}{4} =$ Bo‘luvni ko‘paytiruvga aylantirish uchun keyin turgan sonni teskari yozish kerak.

$= \frac{42}{95} \cdot \frac{17}{14} \cdot \frac{5}{3} \cdot \frac{1}{2} \cdot \frac{19}{4} = \frac{17}{8} = 2\frac{1}{8}$. Javobi: C.

(1997-7-14) $\sqrt{\frac{59^3 - 41^3}{100} - 59 \cdot 41}$ ifodaning qiymatini toping.

A) 24 B) 100 C) 18 D) 50 E) 36

Yechilishi:

$$\sqrt{\frac{59^3 - 41^3}{100} - 59 \cdot 41} = \sqrt{\frac{(59+41)(59^2 - 59 \cdot 41 + 41^2)}{100} - 41 \cdot 59} =$$

$$\sqrt{59^2 - 2 \cdot 59 \cdot 41 + 41^2} = \sqrt{(59 - 41)^2} = \sqrt{18^2} = 18.$$

Javobi: C.

(1997-7-9) $\left(4\frac{1}{10} - 3\frac{4}{15}\right) \cdot \frac{5}{6} + 4\frac{1}{10} : 1\frac{1}{5}$ ni hisoblang.

A) $3\frac{5}{9}$ B) $4\frac{1}{9}$ C) $5\frac{2}{3}$ D) $2\frac{3}{5}$ E) $3\frac{7}{9}$

Yechilishi: $\left(4\frac{1}{10}-3\frac{4}{15}\right)\cdot\frac{5}{6}+4\frac{1}{10}:1\frac{1}{5}=$

$=\left(\frac{41}{10}-\frac{49}{15}\right)\cdot\frac{5}{6}+\frac{41}{10}:\frac{6}{5}=\frac{41}{10}\cdot\frac{5}{6}-\frac{49}{15}\cdot\frac{5}{6}+\frac{41}{10}\cdot\frac{5}{6}=$

$=\frac{41}{12}-\frac{49}{18}+\frac{41}{12}=$

o‘zlari ham, ishoralari ham bir xil sonlar qo‘shilib, ulardan ikkita bo‘ladi

$=2\cdot\frac{41}{12}-\frac{49}{18}=\frac{41}{6}-\frac{49}{18}=\frac{123-49}{18}=\frac{74}{18}=\frac{37}{9}=4\frac{1}{9}.$

Javobi: B.

(1997-7-11) $2\cdot4^{-2}+\left(\frac{2}{3}\right)^{-3}-\left(\frac{1}{5}\right)^{0}$ ni hisoblang.

A) $3\frac{1}{2}$ B) $4\frac{2}{3}$ C) 2 D) 2,5 E) 0

Yechilishi: $2\cdot4^{-2}+\left(\frac{2}{3}\right)^{-3}-\left(\frac{1}{5}\right)^{0}=2\cdot\frac{1}{4^2}+\left(\frac{3}{2}\right)^{3}-1=$

$=\mathbf{2}\cdot\frac{1}{16}+\frac{3^3}{2^3}-1=\frac{2}{16}+\frac{27}{8}-1=\frac{1}{8}+\frac{27}{8}-1=$

$=\frac{1+27-8}{8}=\frac{20}{8}=\frac{5}{2}=2\frac{1}{2}=2{,}5.$ Javobi: D.

(1997-6-1) $\frac{0{,}15-0{,}15\cdot6{,}4}{0{,}175-\frac{3}{8}}$ ni hisoblang.

A) 4,05 B) 40,5 C) -0,405 D) 2,1 E) -0,21

Yechilishi: $\frac{0{,}15-0{,}15\cdot6{,}4}{0{,}175-\frac{3}{8}}=\frac{0{,}15(1-6{,}4)}{0{,}175-0{,}375}=$

$\frac{1}{2}=0{,}5$
$\frac{1}{4}=0{,}25$
$\frac{3}{4}=0{,}75$
$\frac{3}{8}=0{,}375$

1) Ikkita son hir xil ishorali bo‘lsa, katta sondan kichik son ayriladi va natijaga katta sonning ishorasi qo‘yiladi;

2) ko‘paytirsh yoki bo‘lish amalidan keyin kelgan minus son qavsda yoziladi;

$= \frac{0{,}15\cdot(-5{,}4)}{-0{,}200} =$ 3) o‘nli kasr oxirida kelgan nollar

$= \frac{-0{,}15\cdot 5{,}4}{-0{,}2} =$ tashlab yuboriladi;

4) kasrning surati maxrajidan vergullar bir xil suriladi;

$= \frac{0{,}15\cdot 54}{2} = 0{,}15 \cdot 27 = 4{,}05.$ Javobi: A.

(1997-6-1) $16\cdot 27 \cdot 38 \cdot 19 + 22 \cdot 43 \cdot 98$ yig‘indining oxirgi raqamini toping.

A) 8 B) 6 C) 4 D) 2 E) 0

Yechilishi: $16\cdot 27 \cdot 38 \cdot 19 + 22 \cdot 43 \cdot 98 =$

1) Oxirgi raqamlar ko‘paytirilib, qo‘shiladi.

$= \cdots 4 + \cdots 8 = \cdots 2.$ Javobi: D.

(1997-6-3) $\left(\frac{5}{9} - 1\frac{1}{6}\cdot\frac{1}{2}\right):\frac{5}{9} + \frac{1}{3}$ ni hisoblang.

A) $\frac{3}{20}$ B) $\frac{17}{60}$ C) $\frac{7}{30}$ D)$-\frac{7}{60}$ E)$-\frac{11}{30}$

Yechilishi: $\left(\frac{5}{9} - 1\frac{1}{6}\cdot\frac{1}{2}\right):\frac{5}{9} + \frac{1}{3} = \left(\frac{5}{9} - \frac{7}{6}\cdot\frac{1}{2}\right)\cdot\frac{9}{5} + \frac{1}{3} =$

$= \left(\frac{5}{9} - \frac{7}{12}\right)\cdot\frac{9}{5} + \frac{1}{3} = \frac{5}{9}\cdot\frac{9}{5} - \frac{7}{12}\cdot\frac{9}{5} + \frac{1}{3} =$

$= 1 - \frac{21}{20} + \frac{1}{3} = \frac{60-63+20}{60} = \frac{17}{60}.$ Javobi: B.

(1997-9-78) $\frac{72^6\cdot 24^4}{36^8\cdot 8^3}$ ni hisoblang.

A) 24 B) 32 C) 16 D) 36 E) 28

Yechilishi: $\frac{72^6\cdot 24^4}{36^8\cdot 8^3} =$ 1) kattasi maydasiga keltirib yechiladi;

$= \frac{(2\cdot 36)^6\cdot(3\cdot 8)^4}{36^8\cdot 8^3} =$ 2) formula: $(a\cdot b)^m = a^m\cdot b^m$

$= \frac{2^6\cdot 36^6\cdot 3^4\cdot 8}{36^8\cdot 8^3} =$

3) kasrning surati va maxrajini, suratidagi kichigi 36^6 ga qisqartirganda, suratda o‘zini-o‘ziga bo‘lsak 1 tadan, maxrajdagi 8 ta 36 dan oltitasi qisqarib ketib, ikkitasi qoladi.

$= \frac{2^6 \cdot 3^4 \cdot 8}{36^2} = \frac{2^6 \cdot 3^4 \cdot 2^3}{(4 \cdot 9)^2} = \frac{2^6 \cdot 2^3 \cdot 3^4}{(2^2 \cdot 3^2)^2} =$

4) formula $a^m \cdot a^n = a^{m+n}$ va $(a^m)^n = a^{m \cdot n}$;

$= \frac{2^{6+3} \cdot 3^4}{2^4 \cdot 3^4} = \frac{2^9}{2^4} = 2^5 = 32.$ Javobi: B.

(1997-9-62) 41582637 quyidagi sonlardan qaysi biriga qoldiqsiz bo‘linadi.

A) 4 B) 9 C) 5 D) 10 E) 6

Yechilishi: 41582637 Raqamlari yig‘indisi

$4 + 1 + 5 + 8 + 2 + 6 + 3 + 7 = 36$ soni 9 ga bo‘linadi.

Demak, berilgan son 9 ga qoldisiz bo‘linadi. Javobi: B.

(1997-9-64) n raqamining qanday qiymatlarida $\sqrt{49 + n}$ ning butun qismi 7 bo‘ladi?

A) 0; 1; 2 B) 0;1 C) 3; 4; 5

D) hech qanday qiymatida E) barcha qiymatlarida

Yechilishi: $\sqrt{49 + n}$; $\boxed{\begin{matrix}\sqrt{49}=7 \\ \sqrt{64}=8\end{matrix}}$

$n = 0 \Rightarrow \sqrt{49 + 0} = 7;$ $n = 1 \Rightarrow \sqrt{50} = 7, ...$

$n = 2 \Rightarrow \sqrt{51} = 7, ...$

... ...

$n = 9 \Rightarrow \sqrt{49 + 9} = 7, ...$ Javobi: E.

(1997-9-63) Eng katta sonni toping.

A) 3 B) $\sqrt[3]{26}$ C) $\sqrt{10}$ D) $\sqrt[4]{82}$ E) $\sqrt[5]{242}$

Yechilishi: Berilgan sonlarni o‘z aro taqqoslash uchun katta ildiz ko‘rsatkichga darajaga ko‘tariladi.

$3 > \sqrt[3]{26} \Rightarrow \begin{cases} 3^3 = 27 \\ \left(\sqrt[3]{26}\right)^3 = 26 \end{cases}$; $3 < \sqrt{10} \Rightarrow$

$\begin{cases} 3^2 = 9 \\ \left(\sqrt{10}\right)^2 = 10 \end{cases}$;

$\sqrt{10} > \sqrt[4]{82} \Rightarrow \begin{cases} \left(\sqrt{10}\right)^4 = 100 \\ \left(\sqrt[4]{82}\right)^4 = 82 \end{cases}$;

$\sqrt{10} > \sqrt[5]{242} \Rightarrow \begin{cases} \left(\sqrt{10}\right)^5 = 100\sqrt{10}; \\ \left(\sqrt[5]{242}\right)^5 = 242. \end{cases}$

2) $\sqrt{10}$ dan, 3 dan kattaroq son ildizdan chiqadi, uni 100 ga ko‘paytirilsa, 300 dan katta bo‘ladi.

Izoh: kub bilan kub ildiz qisqarib tagi chiqadi va hokazo.

Javobi: C.

(1997-7-24) $\frac{3+\sqrt{7}}{3-\sqrt{7}} - \frac{3-\sqrt{7}}{3+\sqrt{7}}$ ning qiymatini toping.

A) $4+\sqrt{7}$ B) $-3\sqrt{7}$ C) $6\sqrt{7}$ D) 3 E) 6

Yechilishi: $\frac{3+\sqrt{7}}{3-\sqrt{7}} - \frac{3-\sqrt{7}}{3+\sqrt{7}} =$ 1) umumiy maxraj ikki kasr maxrajlarining ko‘paytmasidan iborat

2) ko‘p hadlar qavsga olib ko‘paytiriladi.

$= \frac{\left(3+\sqrt{7}\right)^{1+1} - \left(3-\sqrt{7}\right)^{1+1}}{\left(3-\sqrt{7}\right)\left(3+\sqrt{7}\right)} =$

$\left(3+\sqrt{7}\right)^1 \cdot \left(3+\sqrt{7}\right)^1 = \left(3+\sqrt{7}\right)^{1+1}$;

$\frac{\left(3+\sqrt{7}\right)\left(3-\sqrt{7}\right)}{3-\sqrt{7}} = 3+\sqrt{7}; a = 3+\sqrt{7};\ b = 3-\sqrt{7}$

$= \frac{\left(3+\sqrt{7}\right)^2 - \left(3-\sqrt{7}\right)^2}{\left(3-\sqrt{7}\right)\left(3+\sqrt{7}\right)} =$

3) orada minus bo‘lsa, $a^2 - b^2$ formulani o‘ylash kerak;

4) formulaning chapi bo‘lsa, o‘ng tomoniga o‘tiladi;

5) formulaning o‘ngi bo‘lsa, chap tomoniga o‘tiladi;

6) a birinchi kvadratning tagidan;

b oxirgi kvadratning tagidan topiladi;

7) minusdan qo‘rqish kerak, shuning uchun “-,, dan keyin qavs ochiladi;

$$= \frac{[3+\sqrt{7}-(3-\sqrt{7})](3+\sqrt{7}+3-\sqrt{7})}{3^2-(\sqrt{7})^2} =$$

8) qavs oldidagi “-,, ishora, qavsning ichidagi barcha hadlarning ishoralarini o‘zgartiradi;

9) o‘zlari bir xil, ishoralari har xil sonlar ayrilib nol bo‘ladi;

$$= \frac{(3+\sqrt{7}-3+\sqrt{7})(3+\sqrt{7}+3-\sqrt{7})}{9-7} = \frac{2\cdot\sqrt{7}\cdot 2\cdot 3}{2} = \frac{\sqrt{7}\cdot 6}{1} =$$

10) son 1 ga bo‘linsa, o‘sha sonning o‘zi hosil bo‘ladi;

11) ko‘paytuvchilarning o‘rni almashgani bilan, ko‘paytma o‘zgarmaydi;

$= \sqrt{7}\cdot 6 = 6\sqrt{7}.$ Javobi: C.

(1997-9-80) $\frac{1000^3+3\cdot 1000\cdot 995+995^3}{1000^2+2\cdot 1000\cdot 995+995^2}$ ni hisoblang.

A) 1995 B) 195 C) 995 D) 2195 E) 895

Yechilishi: $\frac{1000^3+3\cdot 1000\cdot 995+995^3}{1000^2+2\cdot 1000\cdot 995+995^2} =$

1) misolda kub plus uch kelsa, kub formulaning plyusligiga qarash kerak;

2) kub formulaning o‘ng tomonida 4 ta had bor, misolda esa 3 ta had bor. Demak, misolni formulaga moslash kerak;

3) misolning maxrajida kvadrat plyus 2 bor ekan, demak bu kvadrat formulaning o‘ng tomoni bo‘lib, chap tomoniga o‘tish talab etiladi;

$= \frac{1000^3+3\cdot 1000^2\cdot 995\cdot(1000+995)+995^3}{(1000+995)^2} =$

$= \frac{1000^3+3\cdot 1000^2\cdot 995+3\cdot 1000\cdot 995^2+995^3}{1995^2} =$

$= \frac{(1000+995)^3}{995^2} = \frac{1995^3}{1995^2} = 1995.$ Javobi: A.

(1996-1-2) Bir nechta natural sonlarning yig‘indisi 75 ga teng. Agar shu sonlarning har biridan 2 ni ayirib, yig‘indi hisoblansa, u 61 ga teng bo‘ladi. Yig‘indida nechta son qatnashgan?

A) 5 B) 7 C) 14 D) 8 E) 6

Yechilishi: Katta sondan o‘rtachasi ayrilib kichigiga bo‘linadi. $(75-61):2=7.$ Javobi: B.

(1996-1-3) $\frac{6,8\cdot 0,04\cdot 1,65}{3,3\cdot 5,1\cdot 0,16}$ ning qiymatini toping.

A) 6 B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{6}$ E) $\frac{5}{12}$

Yechilishi: $\frac{6,8\cdot 0,04\cdot 1,65}{3,3\cdot 5,1\cdot 0,16} =$

Kasrning surati va maxrajidan vergullar bir xil suriladi hamda qisqartirish bajariladi:

$= \frac{68\cdot 4.165}{33\cdot 510\cdot 16} = \frac{1}{6}.$ Javobi: D.

(1996-1-7) 0,6 ga teskari sonni toping.

A) -0,6 B) $1\frac{2}{3}$ C) 0,4 D) -6 E) $\frac{3}{6}$

Yechilishi: $0,6 = \frac{6}{10} \Rightarrow \frac{5}{3} = 1\frac{2}{3}.$ Javobi: B.

(1996-1-8) $\frac{9}{11}$ va 1 sonlari orasida maxraji 33 ga teng bo‘lgan nechta kasr bor?

A) 2 B) 1 C) 5 D) 6 E) 4

Yechilishi: 1) “orasida,, so‘zi e’tiborga olinadi;

2) kasrning surati va maxrajini bir xil songa ko‘paytirish mumkin;

3) qisqaradigan kasr hisobga olinmaydi;

$\frac{9}{11} = \frac{27}{33}, \underbrace{\frac{28}{33}, \frac{29}{33}, \frac{30}{33}, \frac{31}{33}, \frac{32}{33}}_{4\ ta}, \frac{33}{33} = 1.$ Javobi: E.

(1996-1-12) Quyidagi sonlardan qaysi biri 0,(2) ga teng.

A) $\frac{1}{9}$ B) $\frac{4}{18}$ C) $\frac{2}{3}$ D) 0,22 E) $\frac{2}{10}$

Yechilishi: 0,(2) davriy o‘nli kasr, davri 2 ga teng,

0,(2)=0,2222… 1) berilgan son vergulsiz, qavssiz kasrning suratiga yoziladi.

2) maxrajga qavsning ichida nechta raqam turgan bo‘lsa, shuncha 9 yoziladi.

$0,(2) = \frac{2}{9} = \frac{4}{18}$. Javobi: B.

(1996-1-13) $\frac{1^2-0,4^2}{2,8\cdot 0,4-2,8}$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{2}$ C) -5 D) 5 E) $\frac{1}{7}$

Yechilishi: $\frac{1^2-0,4^2}{2,8\cdot 0,4-2,8} = \frac{(1-0,4)(1+0,4)}{2,8(2,8-1)} =$

1) birinchi qavs ichidagi hadlarning o‘rinlarini almashtirish uchun, qavsdan minus chiqarish kerak.

$= \frac{-(0,4-1)\cdot 1,4}{2,8\cdot(0,4-1)} = -\frac{14}{28} = -\frac{1}{2} = -0,5.$ Javobi: B.

(1996-1-24) $\frac{9^2\cdot 3^5}{81^2}$ ni hisoblang.

A) 1 B) 3 C) $\frac{1}{81}$ D) 9 E) 27

Yechilishi: $\frac{9^2\cdot 3^5}{81^2} = \frac{(3^2)^2\cdot 3^5}{(3^4)^2} = \frac{3^4\cdot 3^5}{3^8} = 3^{4+5-8} = 3.$

Javobi: B.

(1996-3-1) $12-6:3+2\cdot 4$ ning qiymatini toping.

A) 16 B) 11 C) 18 D) 48 E) $4\frac{2}{3}$

Yechilishi: $12-6:3+2\cdot 4=12-2+8=18.$

Javobi: C.

(1996-3-6) $-8+6:(-2)-2(-11)$ ni hisoblang.

A) 23 B) 11 C) -11 D) -10 E) 143

Yechilishi: $-8+6:(-2)-2(-11)=-8-3+22=11.$

Javobi: B.

(1996-3-9) $-\frac{3}{15}+\frac{1}{5}-\frac{1}{3}$ ning qiymatini toping.

A) $-\frac{19}{30}$ B) $-\frac{1}{3}$ C) $\frac{19}{30}$ D) $\frac{1}{3}$ E) $\frac{3}{13}$

Yechilishi: $-\frac{3}{15}+\frac{1}{5}-\frac{1}{3}=-\frac{1}{5}+\frac{1}{5}-\frac{1}{3}=-\frac{1}{3}.$ Javobi: B.

(1996-3-10) $\frac{1}{3}\cdot\left(-\frac{2}{7}\right):\left(-\frac{5}{42}\right)$ ni hisoblang.

A) $-\frac{4}{5}$ B) $\frac{5}{441}$ C) $\frac{10}{882}$ D) $-\frac{5}{441}$ E) $\frac{4}{5}$

Yechilishi: $\frac{1}{3}\cdot\left(-\frac{2}{7}\right):\left(-\frac{5}{42}\right)=\frac{1}{3}\cdot\frac{2}{7}\cdot\frac{42}{5}=\frac{4}{5}.$ Javobi: E.

(1996-3-12) $-\frac{1}{2}-\frac{1}{3}$ ni hisoblang.

A) $\frac{5}{6}$ B) $-\frac{2}{5}$ C) $\frac{2}{5}$ D) $-\frac{5}{6}$ E) $\frac{1}{5}$

Yechilishi: $-\frac{1}{2}-\frac{1}{3}=\frac{-3-2}{6}=\frac{-5}{6}=-\frac{5}{6}.$ Javobi: D.

(1996-3-14) $\left(-2\frac{1}{2}\right)^3$ ni hisoblang.

A) $8\frac{1}{8}$ B) $31\frac{1}{4}$ C) $2\frac{1}{8}$ D) $-8\frac{1}{8}$ E) $-15\frac{5}{8}$

Yechilishi: $\left(-2\frac{1}{2}\right)^3=\left(-\frac{5}{2}\right)^3=(-)^3\cdot\frac{5^3}{2^3}=-\frac{125}{8}=-15\frac{5}{8}.$

Javobi: E.

(1996-3-64) $2{,}701 \cdot 10^{-4} + 3{,}205 \cdot 10^{-3}$ yig‘indi quyidagi sonlardan qaysi biriga teng?

A) $5{,}906 \cdot 10^{-3}$ B) $5{,}906 \cdot 10^{-4}$ C) $3{,}4751 \cdot 10^{-3}$ D) $3{,}0215 \cdot 10^{-4}$ E) $5{,}906 \cdot 10^{-7}$

Yechilishi: $2{,}701 \cdot 10^{-4} + 3{,}205 \cdot 10^{-3} =$

$= 10^{-3}(2{,}701 \cdot 10^{-1} + 3{,}205) =$

Darajada ,,$-$'' bo‘lsa, vergul chapga suriladi.

$= 10^{-3}(0{,}2701 + 3{,}205) = 3{,}4751 \cdot 10^{-3}$. Javobi: C.

(1996-7-9) $\left(7\frac{1}{3} - 6\frac{7}{8}\right) : \frac{3}{4} + 8\frac{8}{9} \cdot 2\frac{1}{80}$ ni hisoblang.

A) $17\frac{2}{3}$ B) $18\frac{1}{2}$ C) $21\frac{1}{2}$ D) $16\frac{1}{3}$ E) $17\frac{1}{2}$

Yechilishi: $\left(7\frac{1}{3} - 6\frac{7}{8}\right) : \frac{3}{4} + 8\frac{8}{9} \cdot 2\frac{1}{80} =$

$= \left(\frac{22}{3} - \frac{55}{8}\right) \cdot \frac{4}{3} + \frac{80}{9} \cdot \frac{161}{80} = \frac{22}{3} \cdot \frac{4}{3} - \frac{55}{8} \cdot \frac{4}{3} + \frac{161}{9} =$

$= \frac{88}{9} - \frac{55}{6} + \frac{161}{9} = \frac{176-165+322}{18} = \frac{333}{18} = 18\frac{1}{2}$. Javobi: B.

(1996-9-58) $\frac{3}{4}$ va $\frac{8}{9}$ sonlari orasida maxraji 36 ga teng bo‘lgan nechta kasr son bor?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

Yechilishi: $\frac{3 \cdot 9}{4 \cdot 9} = \frac{27}{36}$, $\underbrace{\frac{28}{36}, \frac{29}{36}, \frac{30}{36}, \frac{31}{36}}_{2\ ta}, \frac{32}{36} = \frac{8}{9}$. Javobi: B.

(1996-9-63) $\frac{0{,}2^2 + 2 \cdot 0{,}2 \cdot 0{,}3 + 0{,}3^2}{0{,}5 \cdot 0{,}4 - 0{,}5 \cdot 0{,}6}$ ni hisoblang.

A) -25 B) -2,5 C) -1 D) 0,25 E) 10

Yechilishi: $\frac{0{,}2^2 + 2 \cdot 0{,}2 \cdot 0{,}3 + 0{,}3^2}{0{,}5 \cdot 0{,}4 - 0{,}5 \cdot 0{,}6} = \frac{(0{,}2+0{,}3)^2}{0{,}5(0{,}4-0{,}6)} =$

$= \frac{0{,}5^2}{0{,}5 \cdot (-0{,}2)} = \frac{0{,}5}{-0{,}2} = -\frac{5}{2} = -2{,}5.$ Javobi: B.

(1997-2-4) $3m^2\ 1dm^2\ 5sm^2$ necha sm^2 ga teng?

A) 3015 B) 3105 C) 30015 D) 31015 E) 30105

Yechilishi: Bunday misollarni yechishda orasiga qo‘shuv qo‘yib hisoblash qulay:

$3m^2\ 1dm^2\ 5sm^2 = 3m^2 + 1dm^2 + 5sm^2 =$

1) m –uzunlikni, m^2 –yuzni, m^3 –hajmni o‘lchaydi.



2) Misol bir xil ismli sonlarga keltiriladi:

$= 30000sm^2 + 100sm^2 + 5sm^2 = 30105sm^2$. Javobi: E.

(1997-2-17) Agar $3a \cdot b = 7,\ b \cdot c = 5\ va\ 3c \cdot a = 2$ bo‘lsa, $a + c$ ni toping.

A) 10 B)14 C) 8 D) 6 E) 7

Yechilishi: 1) Tagma-tag yoziladi.

$+\begin{matrix}3a-b=7\\ b-c=5\\ 3c-a=2\end{matrix}$ 2) $a + c$ – bu yo‘l boshlovchidagi “+” ishora, tagma-tag yozilganlarni qo‘shishni ko‘rsatmoqda.

Demak, $3a - b + b - c + 3c - a = 7 + 5 + 2 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2a + 2c = 14 \Rightarrow 2(a + c) = 14 \Rightarrow$

3) Yo‘l boshlovchi doimo noma’lum hisoblanib, uni topish talab etiladi: $a + c = 7$. Javobi: E.

(1997-4-7) $a = 4b\ va\ c + 3b = 0\ (b \neq 0)$ bo‘lsa, $\frac{a}{c}$ ni toping.

A) $-\frac{1}{3}$ B) $1\frac{1}{3}$ C) $1\frac{2}{3}$ D) $-1\frac{1}{3}$ E) $-\frac{2}{3}$

Yechilishi: $\begin{cases} a = 4b; \\ c + 3b = 0 \Rightarrow c = -3b; \end{cases}$

1) $\frac{a}{c}$ –yo‘l boshlovchi e’tiborga olinadi.

$\frac{a}{c} = \frac{4b}{-3b} = -\frac{4}{3} = -1\frac{1}{3}$. Javobi: D.

(1997-4-18) $\frac{110^6 \cdot 77^4}{55^8 \cdot 154^2}$ ni hisoblang.

A) 30 B) $30\frac{9}{25}$ C) $31\frac{1}{25}$ D) $31\frac{9}{25}$ E) 31

Yechilishi: $\frac{110^6 \cdot 77^4}{55^8 \cdot 154^2} = \frac{(2\cdot 55)^6 \cdot 77^4}{55^8 \cdot (2\cdot 77)^2} = \frac{2^6 \cdot 55^6 \cdot 77^4}{55^8 \cdot 2^2 \cdot 77^2} = \frac{2^4 \cdot 77^2}{55^2} =$

$= \frac{16\cdot(11\cdot 7)^2}{(11\cdot 5)^2} = \frac{16\cdot 11^2 \cdot 7^2}{11^2 \cdot 5^2} = \frac{16\cdot 49}{25} = \frac{784}{25} = 31\frac{9}{25}$. Javobi: D.

(1997-4-19) $b^7x - bx^7$ ni ko‘pi bilan nechta ko‘paytuvchilarga ajratish mumkin?

A) 8 ta B) 7 ta C) 4 ta D) 9 ta E) 6 ta

Yechilishi: $b^7x - bx^7 = bx(b^6 - x^6) =$

$= b \cdot x \cdot [(b^3)^2 - (x^3)^2] = b \cdot x(b^3 - x^3)(b^3 + x^3) =$

$= b \cdot x(b - x)(b^2 + bx + x^2)(b + x)(b^2 - bx + x^2)$.

1) Bu misolni $b \cdot x[(b^2)^3 - (b^2)^3]$ deb o‘zingiz ishlab ko‘ring. Javobi: E.

(1997-4-20) $779^3 + 3 \cdot 779^2 \cdot 221 + 3 \cdot 779 \cdot 221^2 +$

$+221^3 + 10$ ni hisoblang.

A) 10000010 B) 1000010 C) 1000000010

D) 100000010 E) 100010

Yechilishi: $779^3 + 3 \cdot 779^2 \cdot 221 + 3 \cdot 779 \cdot 221^2 +$

$+221^3 + 10 =$

$= (779 + 221)^3 + 10 = 1000^3 + 10 = 1000000010.$

Javobi: C.

(1997-5-4) $3{,}4(3)$ davriy kasr qaysi oddiy kasrga teng?

A) $3\frac{13}{33}$ B) $3\frac{3}{11}$ C) $3\frac{2}{45}$ D) $3\frac{13}{33}$ E) $3\frac{13}{30}$

Yechilishi: $3{,}4(3) =$ 1) Son vergulsiz, qavssiz, kasrning suratiga yoziladi, undan qavsgacha turgan son ayriladi.

2) Maxrajga qavsning ichida qancha raqam turgan bo‘lsa, shuncha to‘qqiz, vergul bilan qavs orasida nechta raqm turgan bo‘lsa, shuncha nol yoziladi.

$= \frac{343-34}{90} = \frac{309}{90} = 3\frac{13}{30}$. Javobi: E.

(1996-11-8) Birinchi ish kuni ish normasining $\frac{1}{2}$ qismi bajarildi.Ikkinchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning $\frac{1}{4}$ qismicha ko‘p ish bajarildi. Shu ikki kunda qancha ish normasi bajarildi?

A) $1\frac{1}{8}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{3}{4}$ D) $\frac{1}{8}$ E) $\frac{3}{8}$

Yechishilishi: “Qismcha,, deyilsa ko‘paytiriladi.

“Ko‘p,, deyilsa qo‘shiladi.

1) birinchi kun ------ $\frac{1}{2}$;

2) ikkinchi kun-----$\frac{1}{2} + \frac{1}{2} \cdot \frac{1}{4} = \frac{1}{2} + \frac{1}{8} = \frac{4+1}{8} = \frac{5}{8}$;

1) va 2) ni qo‘shamiz: $\frac{1}{2} + \frac{5}{8} = \frac{4+5}{8} = \frac{9}{8} = 1\frac{1}{8}$. Javobi: A.

(1996-11-20) $(b-c)(b^2+bc+c^2)$ ifodaning $b=-2$ va $c=1$ bo‘lgandagi qiymatini toping.

A) 7 B) 5 C) -9 D) -7 E) 9

Yechilishi: $(b-c)(b^2+bc+c^2) =$

1) formulaning chap tomoniga o‘tish uchun uch hadlik qavs o‘chirilib tashlanib, ikki hadlik qavsning har biri kubga ko‘tariladi:

$= b^3 - c^3 = (-2)^3 - 1^3 = -8 - 1 = -9$. Javobi: C.

(1996-11-22) $\frac{a^2-2ab}{4b^2-a^2}$ kasrni qisqartiring.

A) $\frac{a}{a+2b}$ B) $\frac{a}{a-2b}$ C) $-\frac{a}{a+2b}$ D) $-\frac{a}{a-2b}$ E) $-\frac{b}{a+2b}$

Yechilishi: $\frac{a^2-2ab}{4b^2-a^2} = \frac{a(a-2b)}{(2b)^2-a^2} =$

$= \frac{a(a-2b)}{-(a-2b)(a+2b)} = -\frac{a}{a+2b}$.

Javobi: C.

$4b^2 = (2b)^2$
$9y^2 = (3y)^2$
$64a^2 = (8a)^2$
$36x^2 = (6x)^2$

(1997-1-3) $1\frac{1}{4} + \frac{5}{12} : \left(\frac{1}{3} \cdot 2\frac{1}{2} - \frac{7}{8}\right)$ ni hisoblang.

A) $11\frac{1}{4}$ B) $-1\frac{1}{4}$ C) $9\frac{1}{4}$ D) $-8\frac{3}{4}$ E) $-9\frac{1}{4}$

Yechilishi: $1\frac{1}{4} + \frac{5}{12} : \left(\frac{1}{3} \cdot 2\frac{1}{2} - \frac{7}{8}\right) = \frac{5}{4} + \frac{5}{12} : \left(\frac{1}{3} \cdot \frac{5}{2} - \frac{7}{8}\right) =$

$= \frac{5}{4} + \frac{5}{12} : \left(\frac{5}{6} - \frac{7}{8}\right) = \frac{5}{4} + \frac{5}{12} : \frac{20-21}{24} = \frac{5}{4} + \frac{5}{12} \cdot \frac{24}{-1} =$

$= \frac{5}{4} + \frac{10}{-1} = \frac{5}{4} - 10 = \frac{5-40}{4} = \frac{-35}{4} = -8\frac{3}{4}$. Javobi: D.

(1997-1-7) $\left(\frac{1}{6} - 1\frac{1}{15} + \frac{1}{10}\right) : 0{,}6 + 0{,}4$ ni hisoblang.

A) $1\frac{11}{15}$ B) 0,88 C) $-1\frac{1}{3}$ D) $-\frac{14}{15}$ E) $-0{,}88$

Yechilishi: $\left(\frac{1}{6} - 1\frac{1}{15} + \frac{1}{10}\right) : 0{,}6 + 0{,}4 =$

$= \left(\frac{1}{6} - \frac{16}{15} + \frac{1}{10}\right) \cdot \frac{5}{3} + \frac{4}{10} = \frac{1}{6} \cdot \frac{5}{3} - \frac{16}{15} \cdot \frac{5}{3} + \frac{1}{10} \cdot \frac{5}{3} + \frac{2}{5} =$

$= \frac{5}{18} - \frac{16}{9} + \frac{1}{6} + \frac{2}{5} = \frac{5-32+3}{18} + \frac{2}{5} = \frac{-24}{18} + \frac{2}{5} =$

$= -\frac{4}{3} + \frac{2}{5} = \frac{-20+6}{15} = -\frac{14}{15}$. Javobi: D.

(1997-9-8) G‘ildirak 7 minutda $12\frac{3}{5}$ marta aylanadi. U 1 minutda necha marta aylanadi?

A) $1\frac{4}{5}$ B) 1 C) $1\frac{3}{5}$ D) $1\frac{2}{5}$ E) $1\frac{1}{5}$

Yechilishi: 1) bunday masalalarda, doimo son vaqtga bo‘linadi.

$1' = 12\frac{3}{5} : 7 = \frac{63}{5} \cdot \frac{1}{7} = \frac{9}{5} = 1\frac{4}{5} = 1{,}8.$ Javobi: A.

(1997-9-3) Soatning minut mili 6 minutda necha gradusga buriladi?



A) 20 B) 24 C) 36

D) 40 E) 60

Yechilishi: $1' = \frac{360°}{60} = 6°.$

Javobi: C.

(1997-11-13) $1 - (8a - 3)^2$ ni ko‘paytuvchilarga ajrating.

A) $8(4a + 1)(1 - 2a)$ B) $(16a - 1)(4a - 3)$

C) $4(2a + 1)(4a - 1)$ D) $4(a - 2)(a + 3)$

E) $8(1 - 2a)(4a - 1)$

Yechilishi: $1 - (8a - 3)^2 = 1^2 - (8a - 3)^2 =$

$= [1 - (8a - 3)] \cdot (1 + 8a - 3) =$

$= (1 - 8a + 3) \cdot (8a - 2) =$

$= (4 - 8a)(8a - 2) = 4(1 - 2a) \cdot 2 \cdot (4a - 1) =$

$= 8(1 - 2a)(4a - 1).$ Javobi: E.

$$\boxed{\begin{aligned} a &= 1 \\ b &= 8a - 3 \end{aligned}}$$

(1997-10-18) $(x^2 + 9)^2 - 36x^2$ ni ko‘paytuvchilarga ajrating.

A) $(x^2 - 5)(x^2 + 4)$ B)$(x - 3)^2(x + 3)^2$

C) $(x - 6)^2(x + 6)^2$ D) $x^2(x^2 - 6)$

E) $(x^2 - 3)(x + 3)^2$

Yechilishi: $(x^2 + 9)^2 - 36x^2 = (x^2 + 9)^2 - (6x)^2 =$

$= (x^2 + 9 - 6x)(x^2 + 9 + 6x) =$

hadlar o‘rinlari almashtirilib formulaga moslanadi

$= (x^2 - 6x + 3^2)(x^2 + 6x + 3^2) = (x-3)^2(x+3)^2.$

Javobi: B.

(1997-9-20) Binoning 8-qavatigacha bo‘lgan zinaning uzunligi 2-qavatgacha bo‘lgan zina uzunligidan necha marta uzun? (Qavatlar orasidagi zinalar soni bir xil deb hisoblansin).

A) 4 B) 5 C) 4,5 D) 3,5 E) 7

Yechilishi: Oraliqlar soni qavatlar sonidan bitta kam bo‘ladi va aksincha.

Jumladan, bitta qo‘lning barmoqlari soni 5 ta, ularning orasi esa 4 ta, ya’ni bitta kam. Javobi: E.

(1997-12-5) $\frac{16n^2-128}{n^2}$ ifoda natural son bo‘ladigan n ning barcha natural qiymatlari nechta?

A) 5 B) 3 C) 2 D) 6 E) 7

Yechilishi: $\frac{16n^2-128}{n^2} = \frac{16n^2}{n^2} - \frac{128}{n^2} = 16 - \frac{128}{n^2};$

$n = 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 \Rightarrow n = 4; 8.$ Javobi: C.

(1997-12-49) $\frac{19}{\sqrt{20}+1} + 6 - 2\sqrt{5}$ ni soddalshtiring.

A) 6 B) 5 C) $4\sqrt{5} - 7$ D) $4\sqrt{5} - 6$ E) $2\sqrt{5} - 5$

Yechilishi: $\frac{19}{\sqrt{20}+1} + 6 - 2\sqrt{5} = \frac{19}{\sqrt{20}+1} + 6 - \sqrt{20} =$

$= \frac{19+6\sqrt{20}+6-20-\sqrt{20}}{\sqrt{20}+1} = \frac{5+5\sqrt{20}}{\sqrt{20}+1} = \frac{5(1+\sqrt{20})}{1+\sqrt{20}} = 5.$ Javobi: B.

(1997-4-12) n raqamning qanday qiymatlarida $6134n$ soni 3 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

A) 1 B) 4 C) 2 D) 4; 2 E) 1; 4; 7

Yechilishi: $6134n = \underbrace{6+1+3+4}_{14} + n \Rightarrow 1; 4; 7.$

Javobi: E.

(1997-5-17) $a = \sqrt{1995} + \sqrt{1997}$ va $b = 2\sqrt{1996}$ ni taqqoslang.

A) $a < b$ B) $a = 0$ C) $a > b$

D) $a = b + 1$ E) $a = b - 1$

Yechilishi: Kvadrat katta butun sonning o‘zi ham katta bo‘ladi. $a = \sqrt{1995} + \sqrt{1997} \Rightarrow$

$\Rightarrow \quad a^2 = \left(\sqrt{1996 - 1} + \sqrt{1996 + 1}\right)^2 =$

$= 1996 - 1 + 1996 + 1 + 2\sqrt{(1996 - 1)(1996 + 1)} =$

$= 2 \cdot 1996 + 2\sqrt{1996^2 - 1};$

$b^2 = 4 \cdot 1996.$ $b^2 > a^2 \Rightarrow b > a.$ Javobi: A.

(1997-5-19) $a = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \ldots \cdot 29$ va $b = 15^{29}$ ni taqqoslang.

A) $a = b$ B) $a > 0$ C) $a < b$

D) $a = b + 1$ E) $a = b - 1$

Yechilishi: $a = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \ldots \cdot 29 = 29!;$ $b = 15^{29};$

$29! < \left(\frac{29+1}{2}\right)^{29} \Rightarrow 29! < 15^{29} \Rightarrow a < b.$ Javobi: C.

(1997-4-1) n raqamining qanday qiymatlarida $10 + n$ va 10 sonlarning eng kichik umumiy karralisi 60 bo‘ladi?

A) 2 B) 0 C) 5; 2 D) 2; 0 E) 5

Yechilishi: $n = 2 \Rightarrow 12 \; va \; 10.$ Javobi: A.

(1997-5-14) 1601 sonini tub son ekanligini aniqlash uchun unu ketma-ket 2,3, 5 va hakozo tub sonlarga bo‘lib boriladi.Qanday tub songa yetganda bo‘lishni to‘xtatish mumkin?

A) 29 B) 31 C) 37 D) 41 E) 43

Yechilishi: 1601 ning qanday sonning kvadratidan kattaligi aniqlanadi va bo‘lish undan oldin turgan tub sonda to‘xtatiladi.

$40^2 < 1601 < 41^2 \Rightarrow 37,\ \underbrace{38,39,40}_{murakkab\ sonlar}$. Javobi: C.

(1997-5-10) Qaysi juftlik o‘zaro tub sonlardan iborat?

A) $(8;14)$ B) $(11;22)$ C) $(12;35)$

D) $(12;34)$ E) $(10;26)$

Yechilishi: faqat 1 ga bo‘linadigan ikkita son o‘zaro tub, shuningdek, barcha tub sonlar ham o‘zaro tub bo‘ladi. Javobi: C.

Soddalashtirishlar

(1996-1-17) $(2a-b)^2-(2a+b)^2$ ni soddalashtiring.

A) 0 B) $-2b^2$ C) $-8ab$ D) $-4ab+2b^2$ E) $2b^2$

Yechilishi: $(2a-b)^2-(2a+b)^2=$

$\boxed{a=2a-b;\qquad b=2a+b}$

$=[2a-b-(2a+b)]\cdot(2a-b+2a+b)=$

$=(2a-b-2a-b)\cdot 4a=-2b\cdot 4a=-8ab$. Javobi: C.

(1996-1-23) $\left(x-\frac{1+x^2}{x-1}\right):\frac{x^2+2x+1}{x-1}$ ni soddalashtiring.

A) -1 B)$\frac{1}{x+1}$ C)$\frac{x-2}{(x+1)^2}$ D)$-\frac{1}{x+1}$ E)0

Yechilishi: $\left(x-\frac{1+x^2}{x-1}\right):\frac{x^2+2x+1}{x-1}=$ 1)kasrning oldida turgan “-“ ishora, kasrning suratidagi barcha hadlarning ishoralarini qarama-qarshisiga o‘zgartiradi

$=\frac{x^2-x-1-x^2}{x-1}\cdot\frac{x-1}{x^2+2x+1}=$ 2) bir xil “-,, ishora qavsdan chiqariladi

$=\frac{-(x+1)}{(x+1)^2}=-\frac{1}{x+1}$. Javobi: D.

(1996-1-25) $2x(x-1)-(2x-1)(x+1)$ ifodani, ko‘phadning standart shakliga keltiring.

A) $4x^2-1$ B)$2x^2-3x$ C) $3x+1$

D) $4x^2-5x+1$ E)$-3x+1$

Yechilishi: $2x(x-1)-(2x-1)(x+1)=$

$=2x^2-2x-(2x^2+2x-x-1)=$

$=2x^2-2x-2x^2-2x+x+1=-3x+1$. Javobi: E.

(1996-3-74) $\frac{x^3+2x^2+x}{(x+1)^2}$ ni soddalashtiring.

A) $2x$ B) $x+1$ C) $x+2$ D) x E) $x-1$

Yechilishi: $\frac{x^3+2x^2+x}{(x+1)^2}=\frac{x(x^2+2x+1)}{(x+1)^2}=\frac{x(x+1)^2}{(x+1)^2}=x$. Javobi:D.

(1996-7-18) $(a^2+16)^2-64a^2$ ni ko‘paytuvchilarga ajrating.

A) $(a^2-8)(a^2+4)$ B) $(a-2)^2\cdot(a+2)^2$

C) $(a-4)^2\cdot(a+4)^2$ D) $a^2\cdot(a^2-60)$

E) $(a-8)^2\cdot(a+8)^2$

Yechilishi: $(a^2+16)^2-64a^2=(a^2+16)^2-(8a)^2=$

$=(a^2+16-8a)(a^2+8a+16)=$

$\boxed{a=a^2+16;\ \ b=8a}$

Hadlarning o‘rinlari formulaga moslab yoziladi.

$=(a^2-8a+4^2)(a^2+8a+4^2)=(a-4)^2(a+4)^2$.

Javobi: C.

(1996-9-15) $\frac{1-x^{-1}+x^{-2}}{1-x+x^2}$ ni soddalashtiring.

A) 1 B) x^2 C) $\frac{1}{x^2}$ D) $1-\frac{1}{x}$ E) $1+\frac{1}{x}$

Yechilishi: $\frac{1-x^{-1}+x^{-2}}{1-x+x^2}=\frac{1-\frac{1}{x}+\frac{1}{x^2}}{x^2-x+1}=\frac{\frac{x^2-x+1}{x^2}}{x^2-x+1}=$

$= \frac{x^2-x+1}{x^2} : (x^2 - x + 1) = \frac{(x^2-x+1)}{x^2} \cdot \frac{1}{(x^2-x+1)} = \frac{1}{x^2}.$

Javobi: C.

(1996-10-18) $(1 - 2a)^2 + (1 + 2a)(2a - 1)$ ni soddalashtiring.

A) $8a^2 - 4a$ B) $2a$ C)$-2a + 2$

D) $4a^2 - 2a$ E)$8a^2$

Yechilishi: $(1 - 2a)^2 + (1 + 2a)(2a - 1) =$

Ikkinchi had formulaga moslanadi:

$= 1^2 - 2 \cdot 1 \cdot 2a + (2a)^2 + (2a - 1)(2a + 1) =$

$= 1 - 4a + 4a^2 + (2a)^2 - 1^2 =$

$1 - 4a + 4a^2 + 4a^2 - 1 = 8a^2 - 4a = 4a(2a - 1).$

Javobi: A.

(1996-72-12) $\frac{x^3+x^2+x+1}{x^2+1}$ ni soddalashtiring.

A) $x - 1$ B) x C) $2x$ D) $x + 1$ E) $x + 2$

Yechilishi: $\frac{x^3+x^2+x+1}{x^2+1} = \frac{x^2(x+1)+(x+1)}{x^2+1} =$

Kasrning suratida qavsdan qavs chiqadi $=$

$\frac{(x+1)(x^2+1)}{x^2+1} = = x + 1.$ Javobi: D.

(1996-13-15) $(x^{-1} + y^{-1}) \cdot \frac{xy}{(x+y)^2}$ ni soddalashtiring.

A) 1 B)$\frac{x^2y^2}{(x+y)^3}$ C) x^2y^2 D) $\frac{1}{x+y}$ E) $\frac{1}{(x+y)^2}$

Yechilishi: Daraja ko‘rsatkich oldida “-“ ishora bo‘lsa, uni “+” ishoraga aylantirish uchun son teskari yoziladi va aksincha. $(x^{-1} + y^{-1}) \cdot \frac{xy}{(x+y)^2} = \left(\frac{1}{x} + \frac{1}{y}\right) \cdot \frac{xy}{(x+y)^2} =$

$= \frac{y+x}{xy} \cdot \frac{xy}{(x+y)^2} = \frac{1}{x+y}.$ Javobi: D.

(1997-1-57) $\frac{(x+\sqrt{y})\left(\sqrt{y-2\sqrt{y}x+x^2}\right)}{y-x^2}$ ifodani $x=2\sqrt{6}$ va $y=23$ bo‘lganda hisoblang.

A) 1 B) -1 C) $\frac{1}{2}$ D) $-\frac{1}{2}$ E) to‘g‘ri javob yo‘q

Yechilishi: $\frac{(x+\sqrt{y})\left(\sqrt{y-2\sqrt{y}x+x^2}\right)}{y-x^2}=$

$\frac{(x+\sqrt{y})\left(\sqrt{(\sqrt{y})^2-2\sqrt{y}x+x^2}\right)}{(\sqrt{y})^2-x^2}=$

$=\frac{(x+\sqrt{y})\sqrt{(\sqrt{y}-x)^2}}{(\sqrt{y}-x)(\sqrt{y}+x)}=\frac{|\sqrt{y}-x|}{\sqrt{y}-x}=\frac{|\sqrt{23}-\sqrt{24}|}{\sqrt{23}-\sqrt{24}}=\frac{-(\sqrt{23}-\sqrt{24})}{\sqrt{23}-\sqrt{24}}=-1.$

Javobi: B.

(1997-1-18) $\left(\frac{x^{\frac{1}{2}}-y^{\frac{1}{2}}}{x-y}-\frac{1}{x^{\frac{1}{2}}-y^{\frac{1}{2}}}\right)\cdot\frac{x+2x^{\frac{1}{2}}y^{\frac{1}{2}}+y}{4y^{\frac{1}{2}}}$ ni soddalashtiring.

A) $\sqrt{x}+\sqrt{y}$ B) $\frac{1}{\sqrt{x}+\sqrt{y}}$ C) 1 D) $-\frac{1}{2}$ E) $\frac{\sqrt{x}+\sqrt{y}}{2(\sqrt{y}-\sqrt{x})}$

Yechilishi: $\left(\frac{x^{\frac{1}{2}}-y^{\frac{1}{2}}}{x-y}-\frac{1}{x^{\frac{1}{2}}-y^{\frac{1}{2}}}\right)\cdot\frac{x+2x^{\frac{1}{2}}y^{\frac{1}{2}}+y}{4y^{\frac{1}{2}}}=$

$x^{\frac{1}{2}}=x^{0,5}=\sqrt{x}$	$x=\left(\sqrt{x}\right)^2$

$=\left(\frac{\sqrt{x}-\sqrt{y}}{\left(\sqrt{x}\right)^2-(\sqrt{y})^2}-\frac{1}{\sqrt{x}-\sqrt{y}}\right)\cdot\frac{\left(\sqrt{x}\right)^2+2\sqrt{x}\sqrt{y}+(\sqrt{y})^2}{4\sqrt{y}}=$

$=\frac{\sqrt{x}-\sqrt{y}-\sqrt{x}-\sqrt{y}}{(\sqrt{x}-\sqrt{y})(\sqrt{x}+\sqrt{y})}\cdot\frac{\left(\sqrt{x}+\sqrt{y}\right)^2}{4\sqrt{y}}=\frac{-2\sqrt{y}}{\sqrt{x}-\sqrt{y}}\cdot\frac{\sqrt{x}+\sqrt{y}}{4\sqrt{y}}=$

$=\frac{-1}{\sqrt{x}-\sqrt{y}}\cdot\frac{\sqrt{x}+\sqrt{y}}{2}=-\frac{\sqrt{x}+\sqrt{y}}{2(\sqrt{x}-\sqrt{y})}=\frac{\sqrt{x}+\sqrt{y}}{2(\sqrt{y}-\sqrt{x})}.$ Javobi: E.

(1997-4-14) Agar $x=4{,}5$ va $y=3{,}5$ bo‘lsa, $x^3-x^2y-xy^2+y^3$ ni hisoblang.

A) 10 B) 9,5 C) 8 D) 7,2 E) 11

Yechilishi: $x-y=4{,}5-3{,}5=1$ ekanligi e'tiborga olinadi.

$$x^3-x^2y-xy^2+y^3=x^2(x-y)-y^2(x-y)=$$
$$=x^2-y^2=(x-y)(x+y)=x+y=4{,}5+3{,}5=8.$$

Javobi: C.

(1997-5-16) x^4+x^2+1 ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A)$(x^2+x+1)(x^2+x-1)$

B)$(x^2+x+1)(x^2-x+1)$

C)$(x^2+x+1)(x^2-x-1)$

D)$(x^2+x+1)(-x^2+x-1)$

E) ko'paytuvchilarga ajratib bo'lmaydi

Yechilishi: $x^4+x^2+1=$

Berilgan ifodaga x^2 ham qo'shiladi, ham ayriladi.

$$=(x^2)^2+x^2+1+x^2-x^2=(x^2)^2+2x^2+1-x^2=$$
$$=(x^2+1)^2-x^2=(x^2+1-x)(x^2+1+x)=$$
$$=(x^2-x+1)(x^2+x+1).$$

Javobi: B.

(1997-9-14) Agar $x=71{,}8$ va $y=70{,}8$ bo'lsa, $x^3-y^3-2y^2-3y-1+x^2-2xy$ ni hisoblang.

A) 1 B) 21 C) 79 D) 87,5 E) 92,1

Yechilishi: $x-y=1$ ekanligi e'tiborga olinadi

$x^3-y^3-2y^2-3y-1+x^2-2xy=(x-y)(x^2+$
$xy+y^2)-2y^2-3y-1+x^2-2xy=$ Tarqatib yoziladi:

$$=x^2+xy+y^2-y^2-y^2-3y-1+x^2-xy-xy=$$
$$=(x-y)(x+y)-3y-1+x(x-y)=$$
$$=x+y-3y-1+x=2x-2y-1=2(x-y)-1=$$
$$=2-1=1.$$

Javobi: A.

(1997-7-5) $\frac{3}{7}\cdot\left(1\frac{2}{5}a+2{,}1\right)+\frac{3}{5}\cdot\left(\frac{2}{3}a-\frac{5}{6}\right)$ ni soddalashtiring.

A) $a+\frac{2}{5}$ B) $a+1{,}3$ C) $1\frac{2}{3}a-\frac{2}{5}$

D) $0{,}6+a$ E) $2\frac{1}{3}a+1\frac{1}{6}$

Yechilishi: $\frac{3}{7}\cdot\left(1\frac{2}{5}a+2{,}1\right)+\frac{3}{5}\cdot\left(\frac{2}{3}a-\frac{5}{6}\right)=$

$=\frac{3}{7}\cdot\left(\frac{7}{5}a+\frac{21}{10}\right)+\frac{3}{5}\cdot\left(\frac{2}{3}a-\frac{5}{6}\right)=$

1) kasrning oldida yoki orqasida unga ko‘paytirilib turgan son kasrning suratiga ko‘paytirilib yoziladi

$=\frac{3}{7}\cdot\left(\frac{7a}{5}+\frac{21}{10}\right)+\frac{3}{5}\cdot\left(\frac{2a}{3}-\frac{5}{6}\right)=$

2) qavsning oldida yoki orqasida unga ko‘paytirilib turgan son qavsning ichidagi har biri hadga alohida –alohida ko‘paytirib yoziladi

$=\frac{3}{7}\cdot\frac{7a}{5}+\frac{3}{7}\cdot\frac{21}{10}+\frac{3}{5}\cdot\frac{2a}{3}-\frac{3}{5}\cdot\frac{5}{6}=\frac{3a}{5}+\frac{9}{10}+\frac{2a}{5}-\frac{1}{2}=$

$=\frac{6a+9+4a-5}{10}=\frac{10a+4}{10}=$

3) kasrning suratida nechta had bo‘lsa, uni shuncha kasr qilib yozish mumkin.

$=\frac{10\cdot a}{10}+\frac{4}{10}=a+\frac{2}{5}$. Javobi: A.

(1997-9-81) $\frac{\sqrt[3]{x^2}+2\sqrt[3]{x}+1}{x+3\sqrt[3]{x^2}+3\sqrt[3]{x}+1}-\frac{1}{\sqrt[3]{x}+1}$ ni soddalashtiring.

A) 1 B) $\frac{1}{\sqrt[3]{x}+1}$ C) $\sqrt[3]{x}$ D) 0 E) $\sqrt[3]{x}+1$

Yechilishi: $\frac{\sqrt[3]{x^2}+2\sqrt[3]{x}+1}{x+3\sqrt[3]{x^2}+3\sqrt[3]{x}+1}-\frac{1}{\sqrt[3]{x}+1}=$

1) suratda $\sqrt[3]{x^2}=\left(\sqrt[3]{x}\right)^2$ almashtirish olinadi.

2) maxrajda $x=\left(\sqrt[3]{x}\right)^3$ almashtirish olinadi.

3) 1 larga ham suratda kvadrat va maxrajda kub qo‘yilib, formulalarga moslanadi.

$$= \frac{\left(\sqrt[3]{x}\right)^2+2\sqrt[3]{x}+1^2}{\left(\sqrt[3]{x}\right)^3+3\left(\sqrt[3]{x}\right)^2+3\sqrt[3]{x}+1^3} - \frac{1}{\sqrt[3]{x}+1} = \frac{\left(\sqrt[3]{x}+1\right)^2}{\left(\sqrt[3]{x}+1\right)^3} - \frac{1}{\sqrt[3]{x}+1} =$$

$$= \frac{1}{\sqrt[3]{x}+1} - \frac{1}{\sqrt[3]{x}+1} = 0.$$ Javobi: D.

(1997-4-21) $\frac{a^{-3}+b^{-3}}{a^2-ab+b^2} \cdot a^3b^3$ ni soddalashtiring.

A $(a+b)^2$ B) 1 C) ab D) $c-b$ E) $a+b$

Yechilishi: $\frac{a^{-3}+b^{-3}}{a^2-ab+b^2} \cdot a^3b^3 = \frac{\frac{1}{a^3}+\frac{1}{b^3}}{a^2-ab+b^2} \cdot a^3b^3 =$

$$= \frac{\frac{a^3+b^3}{a^3b^3} \cdot a^3b^3}{a^2-ab+a^2} = a+b = \frac{a^3+b^3}{a^2-ab+b^2} = \frac{(a+b)\left(a^2-ab+b^2\right)}{a^2-ab+b^2} =$$

$= a+b.$ Javobi: E.

(1997-5-6) $-6-2(2-y)-2y+2$ ni soddalashtiring.

A) 8 B) $-8-4y$ C) $8-4y$ D) -8 E) $-8-4y$

Yechilishi: $-6-2(2-y)-2y+2 =$

$= -6-4+2y-2y+2 = -10+2 = -8.$ Javobi: D.

(1997-1-8) $4\sqrt{3\frac{1}{2}} - 0{,}5\sqrt{56} - 3\sqrt{1\frac{5}{9}}$ ni soddalashtiring.

A) $2\sqrt{14}$ B) $2\sqrt{7}$ C) 0 D) 2 E) $\sqrt{7}$

Yechilishi: $4\sqrt{3\frac{1}{2}} - 0{,}5\sqrt{56} - 3\sqrt{1\frac{5}{9}} =$

$$= 4\sqrt{\frac{7}{2}} - \frac{1}{2}\sqrt{56} - 3\sqrt{\frac{14}{9}} = \sqrt{4^2 \cdot \frac{7}{2}} - \sqrt{\left(\frac{1}{2}\right)^2 \cdot 56} -$$

$$- \sqrt{3^2 \cdot \frac{14}{9}} = \sqrt{16 \cdot \frac{7}{2}} - \sqrt{\frac{1}{4} \cdot 56} - \sqrt{9 \cdot \frac{14}{9}} = \sqrt{4 \cdot 14} -$$

$-\sqrt{14} - \sqrt{14} = 2\sqrt{14} - 2\sqrt{14} = 0.$ Javobi: C.

(1997-10-19) $\left(\frac{3a}{a+6}-\frac{2a}{a^2+12a+36}\right):\frac{3a+16}{a^2-36}+\frac{6(a-6)}{a+6}$ ni soddalashtiring.

A) 6 B) $\frac{6}{a+6}$ C) $\frac{1}{a-6}$ D) $a+6$ E) $a-6$

Yechilishi: $\left(\frac{3a}{a+6}-\frac{2a}{a^2+12a+36}\right):\frac{3a+16}{a^2-36}+\frac{6(a-6)}{a+6}=$

$=\left(\frac{3a}{a+6}-\frac{2a}{(a+6)^2}\right)\cdot\frac{a^2-6^2}{3a+16}+\frac{6(a-6)}{a+6}=$

$=\frac{3a^2+18a-2a}{(a+6)^2}\cdot\frac{(a-6)(a+6)}{3a+16}+\frac{6(a-6)}{a+6}=$

$=\frac{a(3a+16)}{a+6}\cdot\frac{a-6}{3a+16}+\frac{6(a-6)}{a+6}=\frac{a^2-6a}{a+6}+\frac{6a-36}{a+b}=$

$=\frac{a^2-6a+6a-36}{a+6}=\frac{a^2-6^2}{a+6}=\frac{(a+6)(a-6)}{a+6}=a-6.$

Parametr qatnashgan soddalashtirishga doir test misollarining to‘g‘ri javobini topishda, matematik ofarizm usulidan foydalanish qulay. Buning uchun misol va test javobidagi parametr o‘rniga bir xil son qo‘yib hisoblash kifoya. Masalan, $a=0$ ni misolning berilishi va javoblarga qo‘yib tekshiriladi. Ikkala holda ham olingan bir xil natija -6 to‘g‘ri javob E) ni topish imkonini beradi. Javobi: E.

(1997-12-9) $(y^3-1)^2+(y^2+1)(y^4-y^2+1)$ ni soddalashtirgandan keyin nechta haddan iborat bo‘ladi?

A) 4 B) 5 C) 6 D) 3 E) 2

Yechilishi: $(y^3-1)^2+(y^2+1)(y^4-y^2+1)=$

$=(y^3)^2-2y^3\cdot 1+1^2+(y^2)^3+1^3=$

$=y^6-2y^3+1+y^6+1=2y^6-2y^3+2.$ Demak, 3 ta haddan iborat. Javobi: D.

Pirnazar DAVRONOV

Ekuk va ekub

(1996-3-64) Quyidagi oddiy kasr ko‘rinishida berilgan sonlardan qaysilarini chekli o‘nli kasr ko‘rinishiga keltirib bo‘lmaydi:

1) $\frac{7}{40}$ 2) $\frac{3}{28}$ 3) $\frac{13}{35}$ 4) $\frac{18}{250}$

A) 1; 2 B) 2; 3 C) 3; 4 D) 4; 1 E) 2; 4

Yechilishi: Berilgan kasrlarning maxrajlarini tub ko‘paytuvchilarga ajratilganda, 2 va 5 ning darajalari qatnashmasa, bunday kasrlarni chekli o‘nli kasr ko‘rinishiga keltirib bo‘lmaydi.

40	2
20	2
10	2
5	5
1	

40 ni tub ko‘paytuvchilarga ajratganimizda 2 va 5 qatnashayabdi. Demak, $\frac{7}{40}$ chekli o‘nli kasrga keltirib, bo‘ladi.

28	2
14	2
7	7
1	

2) 28 ni tub kopaytuvchilarga ajratganimizda 2 qatnashyapti, lekin 5 qatnashmayabdi. Shuning uchun, bu kasrni chekli o‘nli kasr ko‘rinishiga keltirib bo‘lmaydi.

35	5
7	7
1	

3) 35 ni tub ko‘paytuvchilarga ajratganimizda 5 qatnashyabdi, lekin 2 qatnashmayabdi. Shuning uchun, bu kasrni ham chekli o‘nli kasr ko‘rinishiga keltirib bo‘lmaydi.

Bulardan ma’lumki 2) va 3) ni chekli o‘nli kasr ko‘rinishiga keltirib bo‘lmaydi.

Umuman olganda, mahraji ham 2 ga, ham 5 ga bo‘linmaydigan oddiy kasrlarni chekli o‘nli kasr ko‘rinishiga keltirib bo‘lmaydi.

Javobi: B.

(1996-3-2) 8 va 6 sonlarining eng kichik umumiy karralasini toping.

A) 16 B) 24 C) 12 D) 8 E) 48

Yechilishi: 1) ikkita songa bo‘linadigan bitta eng kichik songa, ikkita sonning eng kichik umumiy karralisi (bo‘linuvchisi) deyiladi;

2) karrali sonni topish uchun ikki son tub ko‘paytuvchilarga ajraladi.

3) birinchi tub son 2 ga teng.

4) 1 ga va o‘ziga bo‘linadigan sonlarga tub sonlar deyiladi.

8	2
4	2
2	2
1	

6	2
3	3
1	

$8 = 2 \cdot 2 \cdot 2 = 2^3$; $6 = 2 \cdot 3$.

5) karrali sonni topish uchun katta imkoniyat olinadi.

$K(8; 6) = 2^3 \cdot 3 = 24$. Javobi: B.

(1996-3-61) 630 va 198 ning umumiy bo‘luvchilari nechta?

A) 5 B) 6 C) 4 D) 7 E) 8

Yechilishi: 1) Ikkita son bo‘linadigan bitta eng katta sonni ikkita sonning eng katta umumiy bo‘luvchisi deyiladi.

630	2
315	3
105	3
35	5
7	7
1	

198	2
99	3
33	3
11	11
1	

$630 = 2 \cdot 3^2 \cdot 5 \cdot 7;$ $198 = 2 \cdot 3^2 \cdot 11;$

2) umimiy sonlar olinadi: $D(630; 198) = 2 \cdot 3^2;$

3) bo‘luvchilar sonini topish uchun daraja ko‘rsatkichlarga 1 qo‘shilib, bir-biriga ko‘paytiriladi.

$(1+1)(2+1) = 6$ ta. Ular $\underbrace{1; 2; 3; 6; 9; 18}_{6\ ta}$. Javobi: B.

(1997-5-7) Bolalar archa bayramida bir xil sog‘a olishdi. Hamma sovg‘alarda jami 123 ta olma va 82 ta nok bo‘lgan. Archa bayramida nechta bola qatnashgan va har bil bola nechta olma va nechta nok olgan?

A) 41;3;2 B) 82;1;1 C) 20; 61;41 D) 41;2;3 E) 61;2;1

Yechilishi:

123	3
41	41
1	

82	2
41	41
1	

$\Rightarrow 41; 3; 2.$

Javobi: C.

Murakkab radikal

(1996-3-73) $\sqrt{9 - 2\sqrt{20}} - \sqrt{9 + 2\sqrt{20}}$ ayirmaning qiymatini toping.

A) -3 B) -6 C) -4 D) -5 E) 4

Yechilishi: $\sqrt{9 - 2\sqrt{20}} - \sqrt{9 + 2\sqrt{20}};$

$$\sqrt{9-2\sqrt{20}}=\sqrt{9-\sqrt{80}}=\sqrt{\frac{9+\sqrt{9^2-80}}{2}}-\sqrt{\frac{9-\sqrt{9^2-80}}{2}}=$$

$$=\sqrt{5}-2;$$

$$\sqrt{9+2\sqrt{20}}=\sqrt{9+\sqrt{80}}=\sqrt{\frac{9+\sqrt{9^2-80}}{2}}+\sqrt{\frac{9-\sqrt{9^2-80}}{2}}=$$

$$=\sqrt{5}+2;$$

$$\sqrt{9-2\sqrt{20}}-\sqrt{9+2\sqrt{20}}=\sqrt{5}-2-\left(\sqrt{5}+2\right)=-4.$$

Javobi: C.

(1997-11-25) $\sqrt{15-4\sqrt{7+4\sqrt{3}}}$ ni isoblang.

A)$\sqrt{3}-1$ B)$4-\sqrt{3}$ C)$3\sqrt{3}$ D)$3-2\sqrt{3}$ E)$2-\sqrt{3}$

Yechilishi: $\sqrt{15-4\sqrt{7+4\sqrt{3}}}$;

1) $\sqrt{7+\sqrt{48}}=\sqrt{\frac{7+\sqrt{7^2-48}}{2}}+\sqrt{\frac{7-\sqrt{7^2-48}}{2}}=2+\sqrt{3}$;

2) $\sqrt{15-4\left(2+\sqrt{3}\right)}=\sqrt{15-8-4\sqrt{3}}=7-4\sqrt{3}=$

$=\sqrt{7-\sqrt{48}}=2-\sqrt{3}$. Javobi: E.

Foizga doir masalalar

(1996-1-4) Do‘konga 96 t karam keltirildi. Agar karamning 80% i sotilgan bo‘lsa, do‘konda qancha karam qolgan?

A) 16 B) 19,2 C) 24 D) 20,2 E) 18,4

Yechilishi: 1)berilgan foiz doimo 100 ga bo‘linib, songa ko‘paytiriladi; 2) ma’lum miqdordagi foiz kamaysa, o‘sha foiz 100 dan ayrilib, 100 ga bo‘linadi va songa

ko‘paytiriladi; 3) ma’lum miqdordagi foiz ortsa, o‘sha foiz 100 qo‘shiladi va natija 100 ga bo‘linib, songa ko‘paytiriladi.

$\frac{100-80}{100} \cdot 96 = 19{,}2\ t.$ Javobi: B.

(1996-3-65) Go‘sht qaynatilganda o‘z vaznining 40% ini yo‘qotadi. 6 kg qaynatilgan go‘sht hosil qilish uchun qozonga necha kg go‘sht solish kerak?

A) 8 B) 9 C) 10 D) 11 E) 12

Yechilishi: $\begin{matrix} x------100\% \\ 6------60\% \end{matrix} \Rightarrow 60x = 6 \cdot 100 \Rightarrow x = 10kg.$

Javobi: C.

(1996-6-3) Magazinga keltirilgan tarvuzlarning 56% i birinchi kuni , qolgan 132 tasiikkinchi kuni sotildi. Birinchi kuni qancha tarvuz sotilgan?

A) 168 B) 148 C) 178 D) 138 E) 158

Yechilishi: $\begin{matrix} x-----56\% \\ 132-----44\% \end{matrix} \Rightarrow x = 168.$ Javobi: A.

(1996-7-4) Ishchining ish normasini bajarishiga ketadigan vaqti 20 % ga qisqardi. Uning mexnat unumdorligi necha foiz ortgan?

A) 20 B) 15 C) 5 D) 25 E) 1

Yechilishi: $M = \frac{100 \cdot t}{100-t} = \frac{100 \cdot 20}{100-20} = \frac{100 \cdot 20}{80} = 25\%.$

Javobi: D.

(1996-9-5) 40 dan 32 necha protsent kam?

A) 18 B) 20 C) 22 D) 25 E) 24

Yechilishi: So‘ralayotgan son 100 ga ko‘paytirilib, ikkinchisiga bo‘linadi.

$\frac{32 \cdot 100}{40} = 80 \Rightarrow 100 - 80 = 20\%$ kam. Javobi: B.

(1997-2-3) Qotishma mis va qo‘rg‘oshindan iborat. Qotishmaning 60% mis bo‘lib, mis qo‘rg‘oshindan 2 kg ko‘p. Qotishmada qancha mis bor?

A) 5 B) 7 C) 6 D) 5,5 E) 6,2

Yechilishi: $Q = M - 2;\ M = Q +$

2. $\begin{cases} M - - - 60\% \\ Q - - - 40\% \end{cases} \Rightarrow \Rightarrow$

$\begin{cases} M - - - 60\% \\ M - 2 - - - 40\% \end{cases} \Rightarrow \quad M = 6.$ Javobi: C.

(1997-9-12) Qo‘rg‘oshin va misdan quyilgan ikkita quyma bor. Birinchi quymada 2 kg qo‘rg‘oshin va 6 kg mis bor. Ikkinchi quymada 12 kg qo‘rg‘oshin va 3 kg mis bor. Qaysi quymada qo‘rg‘oshinning foiz miqdori ko‘p va u necha foiz ko‘p?

A) $2 - quymada$ 55% B) $1 - quymada$ 25%

C) $2 - quymada$ 80% D) $2 - quymada$ 45%

E) $1 - quymada$ 55%

Yechilishi: $1 - quymada$: $\underset{2kg}{Q}$; $\underset{6kg}{M} \Rightarrow$

$\begin{matrix} 8 - - - 100\% \\ 2 - - - x\% \end{matrix} \Rightarrow x = 25\%.$

$2 - quymada$: $\underset{3kg}{M}$; $\underset{12kg}{Q} \Rightarrow$ $\begin{matrix} 15 - - - 100\% \\ 12 - - - x\% \end{matrix} \Rightarrow$

$x = 80\%.$

$80\% - 25\% = 55\%.$ Javobi: A.

(1997-1-77) Doiraning radiusi 40% ga oshsa, uning yuzi necha foizga oshadi?

A) 140 B) 196 C) 96

D) 4 E) to‘g‘ri javob berilmagan

Yechilishi:

$R_1 = \frac{100+40}{100} \cdot R = 1{,}4R;$

$S_1 = \pi(1{,}4R)^2 =$

$= 1{,}96\pi R^2 = 1{,}96 \cdot S;$



1) Verguldan oldingi 1 soni dastladki asli 100% ni, verguldan keyingi 96 esa ortgan foizni bildiradi. Javobi: C.

(1997-6-65) Doiraning yuzi 96 % ga ortishi uchun uning radiusini necha foizga oshirish kerak?

A) 40 B) 62 C) 4 D) 196 E) 140

Yechilishi: $\sqrt{1{,}96} = 1{,}4 \Rightarrow 40\%$. Javobi: A.

(1997-4-5) 30 ta talabadan 25 tasi qishqi sinovlarning hammasini topshirdi. Bazi sinovlarni topshira olmagan talabalar barcha sinovlarni topshirgan talabalarning necha foizini tashkil qiladi?

A) 10% B) 15% C) 20% D) 25% E) 30%

Yechilishi: $30 - 25 = 5;$ $\begin{cases} 25 - - - 100\% \\ 5 - - - x\% \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow 25x = 100 \cdot 5 \Rightarrow x = 20\%.$ Javobi: C.

(1997-5-5) Qutiga 25 kg massali yuk joylandi. Agar qutining massasi yuk massasining 12% ni tashkil etsa, qutining massasini toping.

A) 3kg B) 3,5kg C) 4kg D) 4,5kg E) 5kg

Yechilishi: $\frac{12}{100} \cdot 25 = 3kg.$ Javobi: A.

(1997-9-65) Brigada ekin maydonining 180 gektariga paxta, 60 gektariga sholi ekdi. Sholi maydoni paxta maydoniningnecha foizini tashkil qiladi?

A) $33\frac{1}{3}$ B) 33 C) $33\frac{2}{3}$ D) 34 E) $32\frac{1}{3}$

Yechilishi: $\begin{cases} 180 - - - 100\% \\ 60 - - - x\% \end{cases} \Rightarrow 180x = 60 \cdot 100 \Rightarrow$

$\Rightarrow x = 33\frac{1}{3}$. Javobi: A.

Harakatga doir masalalar

(1996-3-3) Passajir va yuk poezdi bir-biriga tomon harakatlanmoqda. Ular orasidagi masofa 275 km. Yuk poezdining tezligi 50 km/soat. Passajir poezdning tezligi yuk poezdining tezligidan 20% ortiq. Ular necha soatdan keyin uchrashadi?

A) 3 B) 2 C) 2,5 D) 4 E) 3,5

Yechilishi: Bunday masalalar $v \cdot t$ ga tenglab yechiladi.

$50 \cdot t + 1{,}2 \cdot 50 \cdot t = 275;$

$110 \cdot t = 275 \Rightarrow t = 2{,}5.$

Javobi: C.



(1996-3-69) Uzunligi 400m bo‘lgan poezd uzunligi 500 m bo‘lgan tuneldan 30 s da o‘tib ketdi. Poyezdning tezligini toping.

A) $35\frac{m}{s}$ B) $30\frac{m}{s}$ C) $40\frac{m}{s}$ D) $45\frac{m}{s}$ E) $25\frac{m}{s}$

Yechilishi $S = v \cdot t \Rightarrow S_p = 400$

$\Rightarrow v = \frac{S}{t} = \frac{900}{30} = 30\frac{m}{s}$. Javobi: B.



(1996-6-7) Ikki shahardan bir-biriga qarama-qarshi ikki turist yo‘lga chiqdi. Birinchisi avtomashinada, tezligi 62 km/soat;

ikkinchisi avtobusda, tezligi 48 km/soat. Agar ular 0,6 soatdan keyin uchrashgan bo‘lsa, shaharlar orasidagi masofani toping.

A) 70km B) 64km C) 62km D) 66km E) 72km

Yechilishi: $62 \cdot 0{,}6 + 48 \cdot 0{,}6 = S$

$S = 66\ km.$



Javobi: D.

(1996-7-10) Turist butun yo‘lning 0,35 qismini o‘tganda, unga yo‘lning yarmigacha 18,3 km qolgani ma’lum bo‘ldi. Butun yo‘lning uzunligini toping.

A) 110 km B) 102 km C) 122 km

D) 98 km E) 78,2 km

Yechilishi: $0{,}35 \cdot x + 18{,}3 = \frac{1}{2} \cdot x \Rightarrow x = 122\ km.$

Javobi: C.

(1996-9-9) Poezdning uzunligi 800 m. Poezdning ustun yonidan 40 s da o‘tib ketgani ma’lum bo‘lsa, tezligini toping.

A) $30\frac{m}{s}$ B) $15\frac{m}{s}$ C) $25\frac{m}{s}$ D) $20\frac{m}{s}$ E) $22\frac{m}{s}$

Yechilishi: $v = \frac{S}{t} = \frac{800}{40} = 20\frac{m}{s}$.

Javobi: D.

(1997-5-11) Avtomashina bakiga 60 l benzin quyildi. Toshkent dengiziga borish uchun bakdagi benzinning $\frac{3}{5}$ qismi, Chirchiqqa borish uchun $\frac{1}{12}$ qismi sarflandi. Bakda necha litr benzin qolgan.

A) 30 B) 31 C) 25 D) 26 E) 27

Yechilishi: $\frac{2}{5} \cdot 60 + \frac{1}{12} \cdot 60 = 24 + 5 = 29 \Rightarrow$

$\Rightarrow 60 - 29 = 31.$

Javobi: B.

(1997-8-7) Oralaridagi masofa 200 km bo‘lgan A va B punktlardan bir vaqtning o‘zida ikki turist bir-biriga qarama- qarshi yo‘lga chiqdi. Birinchisi avtobusda tezligi 40 km/soat, ikkinchisi avtomobilda. Agar ular ikki soatdan keyin uchrashishgan bo‘lishsa, avtomobilning tezligini toping.

A) 58 km/soat B) 55 km/soat C) 65 km/soat

D) 60 km/soat E) 50 km/soat



Yechilishi: $2 \cdot 40 + 2v = 200 \Rightarrow$

$\Rightarrow v = 60.$ Javobi: D.

(1997-7-10) Velosipedchi butun yo‘lning 0,6 qismini o‘tgach, qolgan yo‘l, u bosib o‘tgan yo‘ldan 4 km kamligi ma’lm bo‘ldi. Butun yo‘lning uzunligini toping.

A) 40 km B) 24 km C) 20 km

D) 36,6 km E) 42,2 km

Yechilishi: $0{,}6x + 0{,}6x - 4 = x \Rightarrow x = 20.$

Javobi: C.

(1997-2-7) Harakat boshlangandan 0,8 soat o‘tgach, mototsiklchi velosipedchini quvib yetdi. Mototsiklchining tezligi 42 km/soat, velosipedchiniki 12 km/soat bo‘lsa, harakat boshlanishidan oldin ular orasidagi masofa qancha bo‘lgan?

A) 24 km B) 22 km C) 26 km

D) 20 km E) 28 km



Yechilishi:

$x = 42 \cdot 0{,}8 - 12 \cdot 0{,}8 == 30 \cdot 0{,}8 = 24.$ Javobi: A.

(1997-10-10) Turist butun yo‘lning 0,85 qismini o‘tganda, ko‘zlangan manzilgacha 6,6 km qolgani ma’lum bo‘ldi. Butun yo‘lning uzunligi necha km?

A) 52 km B) 44 km C) 36,6 km

D) 64,4 km E) 40,4 km

Yechilishi: $0{,}85x + 6{,}6 = x \Rightarrow x = 44.$ Javobi: B.

(1997-12-6) Mototsiklchi va velosipedchi bir tomonga qarab harakat qilishmoqda. Velosipedchining tezligi 12 km/soat, mototsiklchiniki 30 km/soat va ular orasidagi masofa 72 km bo‘lsa, necha soatdan keyin velosipedchini mototsiklchi quvib yetadi?

A) 3 B) 4 C) 3,5 D) 2,5 E) 3,8

Yechilishi: $30t - 12t = 72;$

$18t = 72 \Rightarrow t = 4.$

Javobi: B.



Tenglamalar

(1997-7-7) $\left(x + 3\frac{2}{9}\right) : 4\frac{1}{6} = 6$ tenglamani yeching.

A) $22\frac{2}{9}$ B) $21\frac{7}{9}$ C) $22\frac{1}{3}$ D) $20\frac{4}{9}$ E) $21\frac{5}{6}$

Yechilishi: $\left(x + 3\frac{2}{9}\right) : 4\frac{1}{6} = 6$ 1) Tenglamani yechish uchun o‘zgaruvchlar tenglikning bir tomoiga, ma’lumlar ikkinchi tomoniga o‘tkaziladi.

2) Bo‘luv tenglikdan ko‘paytiruv, qo‘shuv tenglikdan ayiruv bo‘lib o‘tadi.

$x+\frac{29}{9}=6\cdot\frac{25}{6}\Rightarrow x=25-\frac{29}{9}=\frac{225-29}{9}=\frac{196}{9}=21\frac{7}{9}\Rightarrow$

$\Rightarrow x=21\frac{7}{9}$. Javobi: B.

(1996-7-5) $2\frac{1}{2}\cdot\left(\frac{4}{5}x+2\right)-2\frac{1}{3}\cdot\left(\frac{3}{7}x-6\right)$ ni soddalashtiring.

A) 19 B) $x-9$ C) $x+19$ D) $20+x$ E) $1\frac{2}{7}x+9$

Yechilishi: $2\frac{1}{2}\cdot\left(\frac{4}{5}x+2\right)-2\frac{1}{3}\cdot\left(\frac{3}{7}x-6\right)=$

$=\frac{5}{2}\cdot\frac{4x}{5}+\frac{5}{2}\cdot 2-\frac{7}{3}\cdot\frac{3x}{7}+\frac{7}{3}\cdot 6=$

$=2x+5-x+14=x+19.$

Javobi: C.

(1997-2-27) $\frac{x^2-16}{x^2-5x+4}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{4+x}{1-x}$ B) $\frac{4-x}{x+1}$ C) $\frac{4+x}{1+x}$ D) $\frac{x-4}{x+1}$ E) $\frac{x+4}{x-1}$

Yechilishi: $\frac{x^2-16}{x^2-5x+4}=\frac{x^2-4^2}{x^2-5x+4}=\frac{(x-4)(x+4)}{x^2-5x+4}=$

$\frac{(x-4)(x+4)}{(x-1)(x-4)}=$

$=\frac{x+4}{x-1}$. 1) kasrning maxraji keltirilgan kvadrat tenglama ko‘rinishida yozilib, so‘ngra yechiladi:

$x^2-5x+4=0\Rightarrow\begin{cases}p=-5;\\ q=4.\end{cases}x_{1,2}=-\frac{p}{2}\pm\sqrt{\left(\frac{p}{2}\right)^2-q}=$

$=-\frac{-5}{2}\pm\sqrt{\left(\frac{-5}{2}\right)^2-4}=\frac{5}{2}\pm\sqrt{\frac{25}{4}-4}=\frac{5}{2}\pm\sqrt{\frac{25-16}{4}}=$

$= \frac{5}{2} \pm \sqrt{\frac{9}{4}} = \frac{5}{2} \pm \frac{3}{2} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = \frac{5}{2} - \frac{3}{2} = \frac{5-3}{2} = \frac{2}{2} = 1 \\ x_2 = \frac{5}{2} + \frac{3}{2} = \frac{5+3}{2} = \frac{8}{2} = 4 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = 1; \\ x_2 = 4. \end{cases}$ 2)topilgan x_1 va x_2 larni kvadrat tenglamaning ildizlari deyiladi;

3) $x_1 = 1$ va $x_2 = 4$ lardan foydalanib, $x^2 - 5x + 4$ kvadrat uchhad, chiziqli ko‘paytuvchilarga ajratiladi.

$x^2 - 5x + 4 = (x-1)(x-4) -$ olingan natija misolning berilishiga qo‘yiladi. Javobi: E.

(1996-11-23) Otasi 40, o‘g‘li 16 yoshda. Necha yildan keyin otasi o‘g‘lidan 2 marta katta bo‘ladi?

A) 5 yil B) 7 yil C) 6 yil D) 4 yil E) 8 yil

Yechilishi: 1) “Keyin,, deyilsa yoshga-yosh qo‘shiladi. “Oldin,, deyilsa yoshdan-yosh ayriladi.

$40 + x = 2(16 + x) \Rightarrow \ 40 + x = 32 + 2x \Rightarrow$

$\Rightarrow \ x - 2x = 32 - 40 \Rightarrow \ -x = -8 \Rightarrow \ x = 8.$ Javobi: E.

(1997-10-3) $0{,}2 \cdot (5y - 2) = 0{,}3 \cdot (2y - 1) - 0{,}9$ ni soddalashtiring.

A) 2 B) 0,2 C) -2 D) $-1{,}2$ E) $2\frac{1}{2}$

Yechilishi: $0{,}2 \cdot (5y - 2) = 0{,}3 \cdot (2y - 1) - 0{,}9 \Rightarrow$

$\Rightarrow y - 0{,}4 = 0{,}6y - 0{,}3 - 0{,}9 \Rightarrow y - 0{,}6y =$

$= -1{,}2 + 0{,}4 \Rightarrow 0{,}4y = -0{,}8 \Rightarrow y = \frac{-0{,}8}{0{,}4} = -\frac{8}{4} = -2 \Rightarrow$

$\Rightarrow y = -2.$ Javobi: C.

(1996-1-10) $x; -2{,}1; \ va$ 3,3 sonlarining o‘rta arifmetigi 0,2 ga teng. y ni toping.

A) 0,6 B) -0,6 C) 0,8 D) 2 E) -0,8

Yechilishi: $\frac{x+(-2,1)+3,3}{3} = 0,2;$

Tenglamada kasr qatnashsa, umumiy maxraj beriladi, so‘ngra maxraj tashlab yuboriladi:

$x - 2,1 + 3,3 = 0,6 \Rightarrow x = 0,6 + 2,1 - 3,3 = -0,6.$

Javobi: B.

(1996-1-6) $2\frac{4}{5} : x = 1\frac{2}{3} : 2\frac{6}{7}$ proporsiyaning nomalum hadini toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{2}{3}$ C) $4\frac{4}{5}$ D) $\frac{3}{5}$ E) $2\frac{1}{5}$

Yechilishi: $2\frac{4}{5} : x = 1\frac{2}{3} : 2\frac{6}{7}$ – Proporsiya;

1) Proporsiyada o‘rta hadlar ko‘paytmasi chetki hadlar ko‘paytmasiga teng bo‘ladi.

$1\frac{2}{3} \cdot x = 2\frac{4}{5} \cdot 2\frac{6}{7} \Rightarrow \frac{5}{3} \cdot x = \frac{14}{5} \cdot \frac{20}{7} = \frac{5x}{3} = 8 \Rightarrow$

$\Rightarrow$ 2) Tenglamada kasr qatnashsa umumiy maxraj beriladi, so‘ngra maxraj tashlab yoziladi $\Rightarrow$

$\Rightarrow 5x = 24 \Rightarrow x = \frac{24}{5} = 4\frac{4}{5} = 4,8 \Rightarrow x = 4,8.$

Javobi: C.

(1996-1-18) $3 - x = -\frac{4}{x}$ tenglamaning nechta ildizi bor?

A) 1 B) 2 C) 3 D) ildizi yo‘q E) cheksiz ko‘p

Yechilishi: $3 - x = -\frac{4}{x} \Rightarrow 3x - x^2 = -4 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 - 3x - 4 = 0 \Rightarrow \begin{cases} a = 1; \\ b = -3; \\ c = -4. \end{cases}$

1) Kvadrat tenglama ildizlarining bor yoki yo‘qligi, agar bor bo‘lsa, nechtaligi diskreminant yordamida aniqlanadi.

$D = b^2 - 4ac = (-3)^2 - 4 \cdot 1 \cdot (-4) = 9 + 16 = 25 > 0.$

Demak, yechim ikkita. Javobi: B.

(1996-9-71) a ning qanday qiymatlarida $ax = 2x + 3$ tenglama yechimga ega bo‘lmaydi?

A) $a \neq 1$ B) $a = 2$ C) $a \neq 2$ D) $a \neq -2$ E) $a = 0$

Yechilishi: $ax = 2x + 3$;

1) Masala shartida yechim, ildiz va nollari so‘zlari kelsa, x o‘zgaruchi topiladi.

$ax - 2x = 3 \Rightarrow x(a-2) = 3 \Rightarrow x = \frac{3}{a-2}$.

2) Kasrning maxraji nolga teng bo‘lsa, yechim bo‘lmaydi.

Demak, $a - 2 = 0 \Rightarrow a = 2$. Javobi: B.

(1996-9-85) $4^4 \cdot 4^8 \cdot 4^{12} \cdot \ldots \cdot 4^{4x} = 0{,}25^{-144}$ tenglamani yeching.

A) 14 B) 9 C) -4 va 3 D) 6 E) 8

Yechilishi: $4^4 \cdot 4^8 \cdot 4^{12} \cdot \ldots \cdot 4^{4x} = 0{,}25^{-144}$;

1) darajada asoslari bir xil bo‘lsa, ulardan bittasi olinib, daraja ko‘rsatkichlari qo‘shiladi

$4^{4+8+12+\cdots+4x} = \left(\frac{1}{4}\right)^{-144}$

2) tenglikning ikkala tomonidagi asoslar teng bo‘lsa, darajalar ham teng bo‘ladi

$4 = 4 \Rightarrow 4 + 8 + 12 + \cdots + 4x = 144 \Rightarrow$

$\Rightarrow 4(1 + 2 + 3 + \cdots + x) = 144 \Rightarrow 1 + 2 + 3 + \cdots + x = 36.$

4) arifmetik progressiyaning birinchi hadi $a_1 = 1$, oxirgi had $a_n = x$, hadlar soni $n = x$, hadlar yug‘indisi $S_n = 36$ ekanligi e’tiborga olinadi.

U holda, $S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} \cdot n$ formulaga asosan,

$36 = \frac{1+x}{2} \cdot x \Rightarrow 36 = \frac{x^2+x}{2} \Rightarrow x^2 + x = 72 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 + x - 72 = 0 \Rightarrow \begin{cases} p = 1; \\ q = -72. \end{cases}$

$x_{1,2} = -\frac{p}{2} \pm \sqrt{\left(\frac{p}{2}\right)^2 - q} = -\frac{1}{2} \pm \sqrt{\left(\frac{1}{2}\right)^2 - (-72)} =$

$= -\frac{1}{2} \pm \sqrt{\frac{1}{4} + 72} = -\frac{1}{2} \pm \sqrt{\frac{1+288}{9}} = -\frac{1}{2} \pm \sqrt{\frac{289}{4}} =$

$= -\frac{1}{2} \pm \frac{17}{2} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = -\frac{1}{2} - \frac{17}{2} = \frac{-1-17}{2} = -9 \\ x_2 = -\frac{1}{2} + \frac{17}{2} = \frac{-1+17}{2} = 8 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = -9 - chet\ ildiz; \\ x_2 = 8 - ildiz. \end{cases}$ Javobi: E.

(1996-3-5) Ikki sonning yig‘indisi 6,5 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 4 marta kichik. Shu sonlarning kattasini toping.

A) 6 B) 5 C) 4 D) 5,3 E) 5,2

Yechilishi: 1) sonning o‘zi aytilmasdan, ikki son deyilsa, ular x va y ko‘rinishda olinadi.

$x + y = 6{,}5 \Rightarrow$

2) birinchi son ikkinchisidan 4 marta kichik bo‘lsa, ikkinchi son birinchisidan 4 marta katta bo‘ladi.

$\Rightarrow x + 4x = 6{,}5 \Rightarrow 5x = 6{,}5 \Rightarrow x = \frac{6{,}5}{5} \Rightarrow x = 1{,}3 \Rightarrow$

$\Rightarrow y = 4x = 4 \cdot 1{,}3 = 5{,}2.$ Javobi: E.

(1996-3-22) Onasi 50, qizi 28 yoshda. Necha yil oldin qizi onasidan 2 marta yosh bo‘lgan?

A) 5 yil B) 6 yil C) 8 yil D) 4 yil E) 7 yil

Yechilishi: 1) “Oldin” deyilganligi uchun yoshdan yosh ayriladi.

$50 - x = 2(28 - x) \Rightarrow 50 - x = 56 - 2x \Rightarrow$

$\Rightarrow -x + 2x = 56 - 50 \Rightarrow x = 6.$ Javobi: B.

(1996-3-67) Qadimiy masala. meshdagi suv Anvarning o‘ziga 20 kunga, ukasiga esa 60 kunga yetadi. Meshdagi suv ikkalasiga necha kunga yetadi?

A) 15 B) 12 C) 14 D) 16 E) 13

Yechilishi: 1) Anvar bir kunda meshdagi suvning $\frac{1}{20}$ qismini ichadi;

2) ukasi bir kunda meshdagi suvning $\frac{1}{60}$ qismini ichadi;

3) aka-uka bir kunda meshdagi suvning $\frac{1}{20} + \frac{1}{60}$ qismini ichadi;

4) Ikkalasi birgalikda bir mesh suvni x kunda ichib tugatadi.

5) bir mesh suv, bir mesh suvga teng g‘oyasiga asoslanib, tenglama quyidagi ko‘rinishda tuziladi va yechiladi

$\left(\frac{1}{20} + \frac{1}{60}\right) \cdot x = 1 \Rightarrow \frac{3+1}{60} \cdot x = 1 \Rightarrow \frac{4}{60} \cdot x = 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{x}{15} = 1 \Rightarrow x = 15.$ Javobi: A.

(1996-6-51) $\left(\frac{4}{3}\right)^x \cdot \left(\frac{3}{8}\right)^x = 2$ tenglamaning ildizi x_0 bo‘lsa quyidagi munosabatlardan qaysi biri o‘rinli?

A) $x_0 > -1$ B) $x_0 < -1$ C) $x_0 = -1$

D) $\frac{x_0}{2} = -1$ D) To‘g‘ri javob keltirilmagan

Yechilishi: $\left(\frac{4}{3}\right)^x \cdot \left(\frac{3}{8}\right)^x = 2;$

$\left(\frac{4}{3}\right)^x \cdot \left(\frac{3}{2 \cdot 4}\right)^x = 2 \Rightarrow \frac{4^x}{3^x} \cdot \frac{3^x}{4^x \cdot 2^x} = 2 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{1}{2^x} = 2 \Rightarrow 2^{-x} = 2^1 \Rightarrow -x = 1 \Rightarrow x = -1.$ Javobi: C.

(1997-6-69) $\sqrt[3]{25^{x-1}} = \frac{5}{\sqrt[5]{5}}$ tenglamani yeching.

A) 1 B) 5 C) $\frac{1}{4}$ D) 2,2 E) 0

Yechilishi: $\sqrt[3]{25^{x-1}} = \frac{5}{\sqrt[5]{5}}$;

Bunday misollar bir xil asosga keltirib yechiladi

$\sqrt[3]{5^{2(x-1)}} = \frac{\sqrt[5]{5^5}}{\sqrt[5]{5}} \Rightarrow \sqrt[3]{5^{2x-2}} = \sqrt[5]{\frac{5^5}{5}} \Rightarrow 5^{\frac{2x-2}{3}} = 5^{\frac{4}{5}} \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{5x-2}{3} = \frac{4}{5} \Rightarrow 10x - 10 = 12 \Rightarrow 10x = 12 + 10 \Rightarrow$

$\Rightarrow 10x = 22 \Rightarrow x = 2{,}2.$ Javobi: D.

(1997-6-57) $(0{,}8)^{3-2x} = (1{,}25)^3$ temglamani yeching.

A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

Yechilishi: $(0{,}8)^{3-2x} = (1{,}25)^3 \Rightarrow \left(\frac{8}{10}\right)^{3-2x} = \left(\frac{125}{100}\right)^3 \Rightarrow$

$\Rightarrow \left(\frac{4}{5}\right)^{3-2x} = \left(\frac{4}{5}\right)^{-3} \Rightarrow 3 - 2x = -3 \Rightarrow 3 + 3 = 2x \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x = 6 \Rightarrow x = 3.$ Javobi: D.

(1997-6-26) $2^{3x+7} + 5^{3x+5} + 2^{3x+5} - 5^{3x+5} = 0$ tenglamani yeching.

A) 1 B) 0 C) -1 D) 2 E) $\frac{1}{3}$

Yechilishi: $2^{3x+7} + 5^{3x+5} + 2^{3x+5} - 5^{3x+5} = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2^{3x+7} + 2^{3x+5} = 5^{3x+5} - 5^{3x-4} \Rightarrow$

$\Rightarrow 2^{3x} \cdot 2^7 + 2^{3x} \cdot 2^5 = 5^{3x} \cdot 5^5 - 5^{3x} \cdot 5^{-3} \Rightarrow$

$\Rightarrow 2^{3x} \cdot 2^5(2^2 + 1) = 5^{3x} \cdot 5^4(5 - 1) \Rightarrow$

$\Rightarrow 2^{3x} \cdot 2^5 \cdot 5 = 5^{3x} \cdot 5^4 \cdot 4 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2^{3x} \cdot 32 \cdot 5 = 5^{3x} \cdot 625 \cdot 4 \Rightarrow 2^{3x} \cdot 2^3 = 5^{3x} \cdot 5^3 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2^{3x+3} = 5^{3x+3}$;

Tenglikning ikkala tomoni, o‘zlaridan ixtiyoriy bittasiga bo‘linadi.

$\frac{2^{3x+3}}{5^{3x+3}} = \frac{5^{3x+3}}{5^{3x+3}} \Rightarrow \left(\frac{2}{5}\right)^{3x+3} = 1 \Rightarrow \left(\frac{2}{5}\right)^{3x+3} = \left(\frac{2}{5}\right)^{0} \Rightarrow$

$\Rightarrow 3x + 3 = 0 \Rightarrow 3x = -3 \Rightarrow x = -1.$ Javobi: B.

(1997-6-16) a ning qanday qiymatlarida $ax - 2a = 2$ tenglama birdan kichik ildizga ega bo‘ladi?

A) $a \in (-2; 0)$ B) $a \in (-\infty; 0)$ C) $a \in (0; 1)$

D) $a \in [1; 2)$ E) $a \in R$

Yechilishi: $ax - 2a = 2$; 1) Ildiz so‘zi bor, demak, x o‘zgaruvchi topiladi.

$ax = 2a + 2 \Rightarrow x = \frac{2a+2}{a} \Rightarrow x = 2 + \frac{2}{a};$

2) Ildizlari 1 dan kichik deganligi uchun:

$x < 1 \Rightarrow 2 + \frac{2}{a} < 1 \Rightarrow \frac{2}{a} < 1 - 2 \Rightarrow \frac{2}{a} < -1;$

3) a ning qiymatini baholash orqali topiladi.

Baholash: 1) $a \neq 0$

2) $a > 0 \Rightarrow$

4) Maxraj a noldan katta ekan, umumiy maxraj berilsa (tengsizlikning ikkala tomon a ga ko‘paytirilsa), tengsizlik belgisi o‘zgarmaydi.

$\Rightarrow \frac{2}{a} < -1 \Rightarrow 2 < -a \Rightarrow a < -2 \Rightarrow (-\infty; -2).$

$\Rightarrow (-\infty; -2) \Rightarrow$

3) $a < 0;$

Maxraj a noldan kichik bo‘lganda umumiy maxraj berilsa, tengsizlik belgisi o‘zgaradi.

$\Rightarrow \frac{2}{a} < -1 \Rightarrow 2 > -a \Rightarrow a > -2 \Rightarrow$



$\Rightarrow (-2; +\infty);$

4) 1), 2) va 3) lardan



1) $a \in (-\infty;-2) \Rightarrow a =$

$= -3 \Rightarrow x = 2 + \frac{2}{a} \Rightarrow x = 2 + \frac{2}{-3} = \frac{4}{3} > 1;$

2) $a \in (-2;0) \Rightarrow a = -1 \Rightarrow x = 2 + \frac{2}{-1} = 0 < 1;$

3) $a \in (0;+\infty) = a = 1 \Rightarrow x = 2 + \frac{2}{1} = 4 > 1;$

Demak, $a \in (-2;0)$ ekan. Javobi: A.

(1997-6-4) Zavodning uchta sexida 1872 ishchi ishlaydi. Birinchi sexda ikkinchi sexdagidan 5 marta ko‘p, uchinchi sexda birinchi va ikkinchi sexdagi ishchilarning soniga teng ishchi ishlaydi. Birinchi sexda qancha ishchi ishlaydi?

A) 760 B) 730 C) 780 D) 820 E) 800

Yechilishi: kam sonlisi x bilan belgilanadi:

$\begin{matrix} I---5x \\ II----x \\ III-----6x \end{matrix} \Rightarrow 12x = 1872 \Rightarrow x = 156 \Rightarrow$

$\Rightarrow 5x = 5 \cdot 156 = 780.$ Javobi: C.

(1997-6-12) $x^3 - 3x^2 - 4x + 12 = 0$ tenglamaning ildizlari ko‘paytmasini toping.

A) 6 B) -4 C) 12 D) -12 E) 24

Yechilishi: $x^3 - 3x^2 - 4x + 12 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2(x-3) - 4(x-3) = 0 \Rightarrow$ qavsdan qavs chiqadi$\Rightarrow$

$\Rightarrow (x-3)(x^2-4) = 0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} x-3=0 \\ x^2-4=0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=3 \\ x^2=4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=3 \\ x=2 \\ x=-2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1=-2 \\ x_2=2 \\ x_3=3 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 = (-2) \cdot 2 \cdot 3 = -12.$ Javobi: D.

(1997-9-15) $x+\frac{1}{y+\frac{1}{z}}=\frac{17}{15}$ tenglamaning natural sonlardagi yechimida y nimaga teng?

A) 4 B) 3 C) 2 D) 7 E) 6

Yechilishi: $x+\frac{1}{y+\frac{1}{z}}=\frac{17}{15}\Rightarrow x+\frac{1}{\frac{yz+1}{z}}=1\frac{2}{15}\Rightarrow$

$\Rightarrow x+1:\frac{yz+1}{z}=1+\frac{2}{15}\Rightarrow x+1\cdot\frac{z}{yz+1}=1+\frac{2}{15}\Rightarrow$

$\Rightarrow x+\frac{z}{yz+1}=1+\frac{2}{15}\Rightarrow\begin{cases}x=1;\\ z=2;\\ yz+1=15\Rightarrow\end{cases}$

$\Rightarrow y\cdot 2=15-1\Rightarrow 2y=14\Rightarrow y=7.$ Javobi: D.

(1997-11-6) $\frac{x-3}{6}+x=\frac{2x-1}{3}-\frac{4-x}{2}$ tenglamani yeching.

A) 3 B) 2 C) -2 D) -4 E) $\emptyset$

Yechilishi: $\frac{x-3}{6}+x=\frac{2x-1}{3}-\frac{4-x}{2}\Rightarrow$

$\Rightarrow x-3+6x=4x-2-12+3x\Rightarrow$

$\Rightarrow 7x-3\neq 7x-4\Rightarrow 7x-7x\neq 3-14\Rightarrow 0\neq -11\Rightarrow$

$\Rightarrow\emptyset.$ Javobi: E.

(1997-9-95) $1-3x+9x^2-\cdots-3^9x^9=0$ tenglamani yeching.

A) $\pm\frac{1}{3}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $-\frac{1}{3}$ D) $\frac{1}{5}$ E) $\frac{3}{4}$

Yechilishi: $1-3x+9x^2-\cdots-3^9x^9=0$ yoyib yoziladi:

$1-3\cdot x+3^2\cdot x^2-3^3\cdot x^3+\cdots+3^8\cdot x^8-3^9\cdot x^9=0;$

Minuslik hadlar tenglikdan o‘rtkaziladi.

$1+3^2\cdot x^2+\cdots+3^8\cdot x^8=3\cdot x+3^3\cdot x^3+3^9\cdot x^9\Rightarrow$

$\Rightarrow 1+3^2\cdot x^2+\cdots+3^8\cdot x^8=$

$=3x(1+3^2\cdot x^2+\cdots+3^8\cdot x^8)\Rightarrow 3x=1\Rightarrow x=\frac{1}{3}.$

Javobi: B.

(1997-1-72) $\sqrt{x+2}+x=0$ tenglamani yeching.

A) -1 B) -2 C) 2 D) 0 E) to‘g‘ri javob berilmagan

Yechilishi: $\sqrt{x+2}+x=0;$

1) ildiz qatmashgan tenglamaga, irrtsional tenglama deyiladi;

2) uni yechish uchun ildiz tenglikning bir tomonida qoldirilib, qolgan hadlar boshqa tomoniga o‘tkaziladi va tenglikning ikkala tomoni kvadratga ko‘tariladi

$\sqrt{x+2}=-x \Rightarrow \left(\sqrt{x+2}\right)^2=(-x)^2 \Rightarrow$

tenglamada o‘zgaruvchining kvadrati qatnashsa, barcha hadlar tenglikning bir tomonida, ikkinchi tomonida nol turadi:

$\Rightarrow x^2-x-2=0 \Rightarrow \begin{cases} x=-1; \\ x=2. \end{cases}$

4) topilgan yechimlar berilishiga qo‘yib, tekshiriladi.

a) $\sqrt{-1+2}+(-1)=0 \Rightarrow \sqrt{1}-1=0 \Rightarrow 0=0;$

Tenglik bajarildi, demak $x=-1$ tenglamaning ildizi;

b) $\sqrt{2+2}+2=0=\sqrt{4}+2=0 \Rightarrow 2+2=0 \Rightarrow 4\neq 0;$

Tenglik bajarilmadi, demak $x=2$ chet ildiz. Javobi: A.

(1997-2-51) $(3^{-x}-9)(x^2-36)=0$ tenglamaning ildizlari ko‘paytmasini toping.

A) 72 B) -6 C) 36 D) -18 E) 18

Yechilishi: $(3^{-x}-9)(x^2-36)=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 3^{-x}-9=0 \\ x^2-36=0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 3^{-x}=3^2 \\ x^2=36 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} -x=2 \\ x=\pm 6 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1=-2 \\ x_2=-6 \\ x_3=6 \end{cases} \Rightarrow x_1\cdot x_2\cdot x_3=-2\cdot(-6)\cdot 6=72.$

Javobi: A.

(1997-2-55) $4^{\log_4(x-5)} = 19$ tenglamaning ildizi 20 dan qancha katta?

A) 6 B) 2 C) 4 D) 3 E) 5

Yechilishi: $4^{\log_4(x-5)} = 19$;

1) logarifmning aniqlanish sohasi tekshiriladi

$4 > 0;\ 4 \neq 1;\ x - 5 > 0 \Rightarrow x > 5;$

2) so‘ngra, logarifmik tenglamaning o‘zi yechiladi

$x - 5 = 19 \Rightarrow x = 19 + 5 \Rightarrow x = 24;\ 24 - 20 = 4.$

Javobi: C.

(1996-6-24) a ning qanday qiymatlarida $a^2x^2 - 2x + 1 = 0$ tenglama bitta ildizga ega bo‘ladi?

A) $a = 1$ B) $a = -1$ C) $a = \pm 1$

D) $a = 0$ va $a = 1$ E) $a = \pm 1$ va $a = 0$

Yechilishi: $a^2x^2 - 2x + 1 = 0;\ D = b^2 - 4ac \Rightarrow$

$\Rightarrow D = 0 \Rightarrow b^2 - 4ac = 0 \Rightarrow (-2)^2 - 4a^2 \cdot 1 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow 4 - 4a^2 = 0 \Rightarrow 4a^2 = 4 \Rightarrow a^2 = 1 \Rightarrow a = \pm 1;$

$a = 0 \Rightarrow 0^2x^2 - 2x + 1 = 0 \Rightarrow 0 - 2x + 1 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x = 1 \Rightarrow x = \frac{1}{2};\quad a = \pm 1\ va\ a = 0.$ Javobi: E.

(1996-6-25) $x^2 - px + 8 = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri 4 ga teng. Bu tenglamaning barcha koeffitsientlari yig‘indisini toping.

A) 3 B) 2 C) 15 D) 14 E) 4

Yechilishi: $x^2 - px + 8 = 0 \Rightarrow \begin{cases} p = -p; \\ q = 8; \\ x_1 = 4. \end{cases}$

$\begin{cases} x_1 + x_2 = -p \\ x_1 \cdot x_2 = q \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 4 + x_2 = -(-p) \\ 4 \cdot x_2 = 8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} p = 6 \\ x_2 = 2 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 - 6x + 8 = 0 \Rightarrow 1 + (-6) + 8 = 3.$ Javobi: A.

(1996-7-15) $x^4 - 13x^2 + 36 = 0$ tenglamaning ildizlari yig‘indisini toping.

A) 13 B) 5 C) 0 D) 36 E) 1

Yechilishi: Bikvadrat tenglamaning ildizlari yig‘indisi doimo nolga teng bo‘ladi.

(1996-9-18) x_1 va x_2 $x^2 + x + a = 0$ tenglamaning ildizlari bo‘lib, $\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2} = \frac{1}{2}$ tenglikni qanoatlantiradi. a ni toping.

A) -1 B) -2 C) -3 D) 2 E) 1

Yechikishi: $x^2 + x + a = 0 \Rightarrow \begin{cases} p = 1; \\ q = a. \end{cases}$

$\begin{cases} x_1 + x_2 = -p \\ x_1 \cdot x_2 = q \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 + x_2 = -1; \\ x_1 \cdot x_2 = a. \end{cases}$

1) $\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2} = \frac{1}{2}$ – munosabatdan foydalaniladi. Bunda $2 \cdot x_1 \cdot x_2$ –umumiy maxraj. U holda $\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2} = \frac{1}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x_1 + 2x_2 = x_1 \cdot x_2 \Rightarrow x_1 \cdot x_2 = 2(x_1 + x_2) \Rightarrow$

$\Rightarrow a = 2 \cdot (-1) = a = -2.$ Javobi: B.

(1997-2-24) $y = x^2 - 9x + (m^2 - 4)(m^2 - 9) = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri nolga teng bo‘ladigan m ning barcha qiymatlari ko‘paytmasini toping.

A) 36 B) $4\sqrt{3}$ C) -6 D) 6 E) $6\sqrt{3}$

Yechilishi: $y = x^2 - 9x + (m^2 - 4)(m^2 - 9) = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} p = -9 \\ q = (m^2 - 4)(m^2 - 9) \Rightarrow (m^2 - 4)(m^2 - 9) = 0 \Rightarrow \\ x_1 = 0 \end{cases}$

$$\Rightarrow \begin{cases} m^2 = 4 \\ m^2 = 9 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} m_{1,2} = \pm 2 \\ m_{3,4} = \pm 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} m_1 = -2 \\ m_2 = 2 \\ m_3 = -3 \\ m_4 = 3 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow m_1 \cdot m_2 \cdot m_3 \cdot m_4 = 36.$ Javobi: A.

(1997-4-24) a va b sonlari $3x^2 - 2x - 6 = 0$ tenglamaning ildizlari bo‘lsa, $a^2 + b^2$ ni hisoblang.

A) 6 B) 8 C) $4\frac{4}{9}$ D) $4\frac{2}{9}$ E) $3\frac{5}{9}$

Yechilishi: $3x^2 - 2x - 6 = 0 \Rightarrow \begin{cases} a = 3 \\ b = -2 \\ c = -6 \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a} = \frac{-(-2) \pm \sqrt{(-2)^2 - 4 \cdot 3 \cdot (-6)}}{2 \cdot 3} =$$

$$= \frac{2 \pm \sqrt{4 + 72}}{6} = \frac{2 \pm \sqrt{76}}{6} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = a = \frac{2 - \sqrt{76}}{6} \\ x_2 = b = \frac{2 + \sqrt{76}}{6} \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow a^2 + b^2 = \left(\frac{2 - \sqrt{76}}{6}\right)^2 + \left(\frac{2 + \sqrt{76}}{6}\right)^2 =$$

$$= \frac{4 - 4\sqrt{76} + 76 + 4 + 4\sqrt{76} + 76}{36} = \frac{160}{36} = 4\frac{4}{9}.$$ Javobi: C.

(1997-7-15) $x^4 - 10x^2 + 9 = 0$ tenglamaning eng katta va eng kichik ildizlari ayirmasini toping.

A) 1 B) 8 C) 2 D) 4 E) 6

Yechilishi: $x^4 - 10x^2 + 9 = 0;$

1) $x^2 = y$ almashtirish olinadi.

$$y^2 - 10y + 9 = 0 \Rightarrow \begin{cases} y_1 = 1 \\ y_2 = 9 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x^2 = 1 \\ x^2 = 9 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x_{1,2} = \pm 1 \\ x_{3,4} = \pm 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = -1 \\ x_2 = 1 \\ x_3 = -3 \\ x_4 = 3 \end{cases} \Rightarrow x_4 - x_3 = 3 - (-3) = 6.$$

Javobi: E.

(1996 −9-12) $(\alpha x + 2y)(3x + \beta x) = \gamma x^2 + 7xy + y^2$ ayniyatdagi noma'lum koeffitsiyentlardan biri α ni toping.

A) 3 B) 2 C) 4 D) $\frac{3}{2}$ E) $\frac{5}{2}$

Yechilishi: $(\alpha x + 2y)(3x + \beta x) = \gamma x^2 + 7xy + y^2$;

$3\alpha x^2 + \alpha\beta xy + 6xy + 2\beta y^2 = \alpha x^2 + 7xy + y^2$;

$3\alpha x^2 + (\alpha\beta + 6) \cdot xy + 2\beta y^2 = \gamma x^2 + 7xy + y^2$;

Ikkala tomoni bir xil bo'lgan algebraik tenglikka ayniyat deyiladi. U holda

$$\begin{cases} 3\alpha = \gamma \\ \alpha\beta + 6 = 7 \\ 2\beta = 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \gamma = 3\alpha \\ \alpha \cdot \frac{1}{2} = 7 - 6 \\ \beta = \frac{1}{2} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \gamma = 3\alpha \\ \frac{\alpha}{2} = 1 \\ \beta = \frac{1}{2} \end{cases} \Rightarrow$$

$$\begin{cases} \gamma = 3 \cdot 2 = 6 \\ \alpha = 2 \\ \beta = \frac{1}{2} \end{cases}$$

Javobi: B.

(1996-7-13) $(3x - 1)(x - 2) = 0$ bo'lsa, $3x - 1$ qanday qiymatlarni qabul qilishi mumkin?

A) $faqat\ \frac{1}{3}$ B) $faqat\ 0$ C) $\frac{1}{3}\ yoki\ 0$

D) $\frac{1}{3}\ yoki\ 0$ E) $0\ yoki\ 5$

Yechilishi: $(3x - 1)(x - 2) = 0$; $3x - 1 = ?$

1) bu tenglamada x emas, balki $3x - 1$ ifodani topish talab etilgan.

2) o'zgaruvchi qatnashgan ko'paytma qachon nolga teng?

Javobi: har bir ko‘paytuvchi alohida-alohida nolga teng bo‘lsa,

$\begin{cases} 3x-1=0; \\ x-2=0. \end{cases}$

3) ikkinchi tenglamadan x topilib, $3x-1$ ga qo‘yiladi.

$x-2=0 \Rightarrow x=2 \Rightarrow 3x-1=3\cdot 2-1=5;$

Demak, berilgan ifoda qiymati 0 yoki 5 ekan. Javobi: E.

(1996-7-22) a ning qanday qiymatlarida $ax-a=x-1$ tenglama cheksiz ko‘p yechimga ega?

A) $a=1$ B) $a=2$ C) $a=-1$ D) $a\epsilon R$ E) $a\in\emptyset$

Yechilishi: $ax-a=x-1.$

Ayniyatning yechimi cheksiz ko‘p bo‘ladi bundan $a=1$ ga ega bo‘lamiz.

Haqiqatan, $a=1$ da $x-1=x-1$ ayniyat hosil bo‘ladi.

Javobi: A.

(1996-13-7) Qadimiy masala. Meshdagi suv Anvarning o‘ziga 35 kunga, akasi ikkalasiga esa 10 kunga yetadi. Meshdagi suv Anvarning akasiga necha kunga yetadi?

A) 20 B) 14 C) 16 D) 15 E) 18

Yechilishi: $\left(\frac{1}{35}+\frac{1}{x}\right)\cdot 10=1 \Rightarrow \frac{10}{35}+\frac{10}{x}=1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{2}{7}+\frac{10}{x}=1 \Rightarrow 2x+70=7x \Rightarrow 7x-2x=70 \Rightarrow$

$\Rightarrow 5x=70 \Rightarrow x=14.$ Javobi: B.

(1996-3-77) x_1 va x_2 $x^2+|a|x+6=0$ tenglamaning ildizlari bo‘lib, ${x_1}^2+{x_2}^2=13$ tenglikni qanoatlantirsa, x_1+x_2 nechaga teng?

A) 5 B) -6 C) 6 D) -7 E) -5

Yechilishi: 1) masala shartida x_1, x_2 yoki ildizlardan biri iboralari kelsa, Viyet teoremasidan foydalaniladi.

$x^2 + |a|x + 6 = 0 \Rightarrow \begin{cases} p = |a|; \\ q = 6. \end{cases}$

$\begin{cases} x_1 + x_2 = -p \\ x_1 \cdot x_2 = q \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 + x_2 = -|a| \\ x_1 \cdot x_2 = 6 \end{cases} \Rightarrow$

2) ${x_1}^2 + {x_2}^2 = 13$ tenglik munosabat e'tiborga olinib, sistemaning birinchi tenglamasi kvadratga ko'tariladi

$(x_1 + x_2)^2 = (-|a|)^2 \Rightarrow {x_1}^2 + {x_2}^2 + 2 \cdot x_1 x_2 = a^2 \Rightarrow$

$\Rightarrow a^2 = 25 \Rightarrow |a| = 5 \Rightarrow x_1 + x_2 = -5.$ Javobi: E.

Tenglamalar sistemasi

(1996-9-59) Ikki son yig'indisi 24 ga teng. Agar shu sonlardan birining 85% i ikkinchisining $\frac{7}{20}$ qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.

A) 18 va 6 B) 20 va 4 C) 7 va 17

D) 8 va 16 E) 15 va 9

Yechilishi: $\begin{cases} x + y = 24 \\ \frac{85}{100} \cdot x = \frac{7}{24} \cdot y \end{cases} \Rightarrow$

1) foiz 100 ga bo'linib, songa ko'paytiriladi;

2) "qismi" deyilsa ko'paytiriladi;

$\Rightarrow \begin{cases} x = 24 - y \\ 0{,}85 \cdot x = \frac{7}{20} \cdot y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 24 - y \\ 17 \cdot (24 - y) = 7y \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x = 24 - y \\ 17 \cdot 24 - 17 \cdot y = 7y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 24 - y \\ 24y = 17 \cdot 24 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x = 24 - 17 \\ y = 17 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 7; \\ y = 17. \end{cases}$ Javobi: C.

(1997-3-17) Agar $3^{x-1}=9^{y}$ va $2x-y=5$ bo‘lsa, $x-y$ ni toping.

A) 2 B) 3 C) -1 D) -0,5 E) -3

Yechilishi: $\begin{cases}3^{x-1}=9^{y}\\2x-y=5\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}3^{x-1}=3^{2y}\\y=2x-5\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x-1=2y\\y=2x-5\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}x-1=2(2x-5)\\y=2x-5\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x-1=4x-10\\y=2x-5\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}x-4x=-10+1\\y=2x-5\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}-3x=-9\\y=2x-5\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x=3\\y=1\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow x-y=3-1=2.$ Javobi: A.

(1997-12-19) $\begin{cases}x^2-y^2+2x+4=0\\x-y=0\end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A)$(2;2)$ B)$(-2;-2)$ C)$(-1;-1)$ D)$(2;2)$ E)$(-2;2)$

Yechilishi: $\begin{cases}x^2-y^2+2x+4=0\\x-y=0\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}(x-y)(x+y)+2x+4=0\\x-y=0\end{cases}\begin{cases}0\cdot(x+y)+2x+4=0\\x-y=0\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}2x=-4\\x=y\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x=-2\\y=-2\end{cases}\Rightarrow(-2;-2).$ Javobi: E.

(1996-1-19) $\begin{cases}x^2+y^2-2xy=1\\x+y=3\end{cases}$ sistemaning yechimini toping.

A) (2; 1) B) (1; 2) C) (1,5; 1,5)

D) (2; 1) va (1; 2) E) (4; -1)

Yechilishi: $\begin{cases}x^2+y^2-2xy=1\\x+y=3\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}(x-y)^2=1\\x+y=3\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}x-y=\pm1\\x+y=3\end{cases}\Rightarrow$

1) $\begin{cases} x-y=-1 \\ x+y=3 \end{cases} \Rightarrow 2x=2 \Rightarrow x=1;\ y=2 \Rightarrow A)\ (1;2)$

2) $\begin{cases} x-y=1 \\ x+y=3 \end{cases} \Rightarrow 2x=4 \Rightarrow x=2; y=1 \Rightarrow B(2;1).$

Javobi: D.

(1996-1-21) $(;y)$ sonlar jufti $\begin{cases} 2x-y=5 \\ 3x+2y=4 \end{cases}$ sistemaning yechimi bo‘lsa, $x-y$ ni toping.

A) 1 B) -1 C) 3 D) 0 E) 5

Yechilishi: $\begin{cases} 2x-y=5 \\ 3x+2y=4 \end{cases} \Rightarrow$ Birinchi tenglamani 2 ga hadlab ko‘paytiriladi, so‘ngra sistema tenglamalari bir-biriga hadlab qo‘shiladi $+\begin{cases} 4x-2y=10 \\ 3x+2y=4 \end{cases} \Rightarrow 7x=14 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x=2; \\ y=-1. \end{cases} x-y=2-(-1)=3.$ Javobi: C.

(1996-3-75) $\begin{cases} x+y=3 \\ x^2-y^2=6, \end{cases}$ $x-?$

A) 1 B) 2 C) 3 D) -2 E) -1

Yechilishi: $\begin{cases} x+y=3 \\ x^2-y^2=6 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x+y=3 \\ (x+y)(x-y)=6 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x+y=3 \\ (x-y)\cdot 3=6 \end{cases} \Rightarrow +\begin{cases} x+y=3 \\ x-y=2 \end{cases} \Rightarrow 2x=5 \Rightarrow x=2{,}5.$

Javobi: B.

(1996-7-23) $\begin{cases} x^2+y^2=9 \\ y-x=-3 \end{cases}$ tenglamalar sistemasi nechta yechimga ega?

A) 1 B) 2 C) 4 D) 3 E) 5

Yechilishi: $\begin{cases} x^2+y^2=9 \\ y-x=-3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x^2+y^2=9 \\ y=x-3 \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} x^2+(x-3)^2=9 \\ y=x-3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2x^2-6x=0 \\ y=x-3 \end{cases} =$$

$$= \begin{cases} x(2x-6)=0 \\ y=x-3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \begin{cases} x=0 \\ 2x-6=0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \begin{cases} x=0 \\ x=3 \end{cases} \Rightarrow \\ y=x-3 \end{cases} \\ y=x-3 \end{cases}$$

$$\Rightarrow \begin{cases} \begin{cases} x=0 \\ y=x-3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=0 \\ y=-3 \end{cases} \Rightarrow A(0;-3); \\ \begin{cases} x=3 \\ y=x-3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=3 \\ y=0 \end{cases} \Rightarrow B(3;0). \end{cases}$$

Javobi: B.

(1996-9-16) $\begin{cases} x^2+y^2=10 \\ x+y=4 \end{cases}$ $x \cdot y-?$

A) 4 B) 5 C) 6 D) 7 E) 3

Yechilishi: $\begin{cases} x^2+y^2=10 \\ x+y=4 \end{cases}$ 1) $x \cdot y$ ko‘paytmani topish talab etilsa, birinchi darajali tenglama kvadratga ko‘tarilib, ikkinchisidan hadlab atriladi.

$$-\begin{cases} x^2+y^2=10 \\ x^2+y^2+2xy=16 \end{cases} \Rightarrow 2xy=6 \Rightarrow x \cdot y=3.$$

Javobi: E.

(1997-2-20) $\begin{cases} x+2=0 \\ xy^2=-8 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A) $(-2;-2)$ B)$(-2;2)$ C)$(-2;2),(-2;-2)$

D)$(2;2)$ E)$(2;2),\ (-2;-2)$

Yechilishi: $\begin{cases} x+2=0 \\ xy^2=-8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=-2 \\ -2y^2=-8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=-2 \\ y^2=4 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x=-2; \\ y_{1,2}=\pm 2. \end{cases}$ 1) $\begin{cases} x_1=-2 \\ y_1=-1 \end{cases}$ $A(-2;-2);$

2) $\begin{cases} x_2=-2 \\ y_2=2 \end{cases}$ $B(-2;2).$ Javobi: C.

(1997-4-23) Agar $\begin{cases} x+2y=2 \\ 2x+y=k \end{cases}$ bo‘lsa, k ning qanday qiymatida $x+y=2$ tenglik o‘rinli bo‘ladi?

A) 2 B) 4 C) 1 D) 5 E) 3

Yechilishi: $\begin{cases} x+2y=2 \\ 2x+y=k \end{cases}$ bunday holda, berilgan sistemani buzilib, o‘rniga yangi sistema tuziladi.

$-\begin{cases} x+2y=2 \\ x+y=2 \end{cases} \Rightarrow y=0 \Rightarrow x=2.$

Olingan ushbu natijalar k parametrli tenglamaga qo‘yiladi.

$2x+y=k \Rightarrow 2\cdot 2+0=k \Rightarrow k=4.$ Javobi: B.

(1997-4-25) Agar $\begin{cases} x^3-y^3=3x^2y+5 \\ xy^2=1 \end{cases}$ bo‘lsa, $\frac{x-y}{2}$ ni hisoblang.

A) 2 B) 1 C) 3 D) 4,5 E) 1,5

Yechilishi: $\begin{cases} x^3-y^3=3x^2y+5 \\ xy^2=1 \end{cases} \Rightarrow$ sistemaning ikkinchi tenglamasi 3 ga ko‘paytirilib birinchi tenglamaga qo‘shiladi.

$\Rightarrow +\begin{cases} x^3-3x^2y-y^3=5 \\ 3xy^2=3 \end{cases} \Rightarrow x^3-3x^2y+3xy^2-y^3=8 \Rightarrow$

$\Rightarrow (x-y)^3=2^3 \Rightarrow \sqrt[3]{(x-y)^3}=\sqrt[3]{2^3} \Rightarrow x-y=2 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{x-y}{2}=1.$ Javobi: B.

(1997-5-26) Agar $\begin{cases} \sqrt{x}+\sqrt{y}=3 \\ \sqrt{xy}=2 \end{cases}$ bo‘lsa, $x+y$ ni toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

Yechilishi: $\begin{cases}\sqrt{x}+\sqrt{y}=3\\ \sqrt{xy}=2\end{cases}\Rightarrow$

1) $x+y$ yig‘indi e’tiborga olingan holda, $\sqrt{x}+\sqrt{y}=3$ tenglama kvadratga ko‘tariladi.

$$\begin{cases}\left(\sqrt{x}+\sqrt{y}\right)^2=3^2\\ \sqrt{x}\cdot\sqrt{y}=2\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x+y+2\sqrt{x}\sqrt{y}=9\\ \sqrt{x}\cdot\sqrt{y}=2\end{cases}\Rightarrow x+y=5.$$

Javobi: D.

(1997-5-39) $\begin{cases}\sqrt{(x+2)^2}=x+2\\ \sqrt{(x-2)^2}=2-x\end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A) $x\geq -2$ B) $x<2$ C) $x\leq 2$

D) $-2\leq x\leq 2$ E) $-2<x<2$

Yechilishi: $\begin{cases}\sqrt{(x+2)^2}=x+2\\ \sqrt{(x-2)^2}=2-x\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}|x+2|=x+2\\ |x-2|=2-x\end{cases}\Rightarrow$

$$\Rightarrow\begin{cases}\pm(x+2)=x+2\\ \pm(x-2)=2-x\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}-x-2=x+2\\ x+2=x+2\\ -x+2=2-x\\ x-2=2-x\end{cases}\Rightarrow$$

$$\Rightarrow\begin{cases}x=-2\\ ayniyat\\ ayniyat\\ x=2\end{cases}\Rightarrow$$



$[-2;2]\Rightarrow -2\leq x\leq 2$. Javobi: D.

Tengsizliklar

(1996-1-30) $f(x) = x^3 - 3x - 4$ bo‘lsa, $\frac{f'(x)}{x-5} \geq 0$ tengsizlikning eng kichik butun yechimini toping.

A) 1 B) -1 C) -5 D) 0 E) -2

Yechilishi: $f(x) = x^3 - 3x - 4$;

1) $\frac{f'(x)}{x-5} \geq 0$ –yo‘l boshlovchi e’tiborga olgan holda, $f(x)$ funksiyadan hosila olinadi.

$f'(x) = (x^3 - 3x - 4)' = 3x^2 - 3 \cdot 1 - 0 = 3x^2 - 3 =$

$= 3(x^2 - 1) = 3(x - 1)(x + 1);$

$\frac{3(x-1)(x+1)}{x-5} \geq 0 \Rightarrow$

2) tengsizlikning ikkala tomoni musbat 3 ga bo‘linsa, tengsizlik belgisi o‘zgarmaydi, lekin misol soddalashadi;

$E(y)=[-9;\infty)$;

Hosila yordamida ham topish mumkin:

$y'=2x-8\Rightarrow 2x-8=0\Rightarrow x=4$;

$y(4)=4^2-8\cdot4+7=-9$.



Javobi: B.

(1996-1-15) Rasmda quyidagi funksiyalardan qaysi birining grafigi keltirilgan?

A) $y=|x-1|$

B) $y=|x+1|$

C) $y=|x|-1$

D) $y=\frac{1}{|x|-1}$

E) $y=\frac{1}{|x|+1}$



Yechilishi: 1) Shaklda ko‘rsatilgan nuqtalar koordinatalari bilan yoziladi:

$A(0;1);\ B(-1;0);\ C(-2;1);$

2) Bu nuqtalarning koordinatalari

javobdagi funksiyalarga qo‘yiladi:

$y = |x - 1|$;

$A(0;1) \Rightarrow 1 = |0 - 1| \Rightarrow 1 = 1$;

$B(-1;0) \Rightarrow 0 = |-1;-1| \Rightarrow 0 \neq 2$;

Demak, nuqtalar $y = |x - 1|$ funksiyaga tegishli emas;

$y = |x + 1|$;

$A(0;1)$: $1 = |0 + 1| \Rightarrow 1 = 1$;

$B(-1;0)$: $0 = |-1 + 1| \Rightarrow 0 = 0$;

$C(-2;1)$: $1 = |-2 + 1| \Rightarrow 1 = 1$. Javobi: B.

(1996-3-7) Agar $a = -2$ va $b = 3$ bo‘lsa, rasmda $|a - b|$ ga mos to‘g‘ri javobni ko‘rsating.

A)



B)



C)



D)



E)



Yechilishi: $a = -2;\ \ b = 3;\ \ |a - b| = |-2 - 3| = 5$.

Javobi: B.

(1996-3-15) Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x) = -3x + 4$ funksiyaning grafigiga tegishli?

A) $(3;-5)$ B) $(-3;5)$ C) $(5;-3)$

D) $(2;4)$ E) $(4;2)$

Yechilishi: 1) Nuqtalarning koordinatalari $f(x) = -3x + 4$ ga qo‘yiladi. Tenglik to‘g‘ri buzilmagani to‘g‘ri bo‘ladi:

A) $(3; -5) \Rightarrow -5 = -3 \cdot 3 + 4 \Rightarrow -5 = -5$. Javobi: A.

(1997-6-9) Quyidagilardan qaysi biri $y = \frac{2}{x-1} - 1$ funksiyaga teskari funksiya?

A) $y = 1 - \frac{2}{x+1}$ B) $y = 2 - \frac{3}{x}$ C) $y = -\frac{2}{x+1}$

D) $y = \frac{3}{x-2}$ E) $y = \frac{2}{x+1} + 1$

Yechilishi: $y = \frac{2}{x-1} - 1$; 1) $x -$ topiladi:

$\frac{2}{x-1} = y + 1 \Rightarrow 2 = (y+1)(x-1) \Rightarrow x - 1 = \frac{2}{y+1} \Rightarrow$

$\Rightarrow x = \frac{2}{y+1} + 1;$

2) x va y lar o′rinlari almashtiriladi: $y = \frac{2}{x+1} + 1$.

Javobi: E.

Funksiyaning toq yoki juftligi va eng kichik davri

(1996-6-41) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri toq?

A) $f(x) = cosx + x^2$ B) $f(x) = sinx \cdot tgx$

C) $f(x) = ctgx + \frac{1}{x^2}$ D) $f(x) = sinx + \frac{x^3+1}{x^3-1}$

E) $f(x) = cosx + x^2$

Yechilishi: x ning o‘rniga $-x$ qo‘yib ishlanganda, masalaning berilishi qaytib kelsa, funksiy juft, minus bilan qaytib kelsa, funksiya toq, $''+„$ bilan ham $''-„$ bilan ham qaytarib bo‘lmasa, juft ham emas, toq ham emas bo‘ladi.

B) $f(x) = sinx \cdot tgx \Rightarrow f(-x) = \sin(-x) \cdot tg(-x) =$
$= -sinx \cdot (-tgx) = sinx \cdot tgx --$ juft funksiya;

E) $f(x) = x^3 - \frac{2}{x^3} \Rightarrow f(-x) = (-x)^3 - \frac{2}{(-x)^3} =$
$= -x^3 + \frac{2}{x^3} = -\left(x^3 - \frac{2}{x^3}\right) -$ toq funksiya. Javobi: E.

(1997-12-41) Quyidagi funksiyalardan qaysi birining eng kichik davri 2π ga teng?

A) $f(x) = cos^2x - sin^2x$ B) $f(x) = ctg\frac{x}{2}sin\frac{x}{2}$

C) $f(x) = 2sin\frac{x}{2}cos\frac{x}{2}$ D) $f(x) = cos^2x + 3sin^2x$

E) $f(x) = tg2x - cos2x$

Yechilishi: Berilgan funksiya bitta funksiyaga keltiriladi:
$f(x) = cos^2x - sin^2x = cos2x$.

$eng\ kichik = \frac{T}{|k|} = \frac{2\pi}{2} = \pi$. T-funksiyaning eng kichik davri, k - x ning koeffitsiyenti. Javobi: C

(1996-9-48) $y = tg\frac{x}{4} - 2sin\frac{x}{2} + 3cos\frac{2}{3}x$ funksiyaning eng kichik davrini toping.

A) 4π B) 6π C) 3π D) 12π E) 15π

Yechilishi: Bu funksiyani bitta funksiyaga keltirib bo‘lmaganligi uchun har bir funksiyaning eng kichik davri aloxida-aloxida topilib, so‘ngra ularning umumiy karralisi eng kichik davr sifatida qabul qilinadi.

$y = tg\frac{x}{4} - 2sin\frac{x}{2} + 3cos\frac{2}{3}x;$

o‘zgaruvchilar sondan ajratib yoziladi:

$y = tg\frac{1}{4} \cdot x - 2sin\frac{1}{2} \cdot x + 3cos\frac{2}{3}x;$

1)har bir funksiyaning eng kichik davri topiladi :

$\frac{\pi}{\frac{1}{4}} = 4\pi;\ \frac{2\pi}{\frac{1}{2}} = 4\pi;\ \frac{2\pi}{\frac{2}{3}} = 3\pi;$

2) Karralisi olinadi: 12π. Javobi: D.

Hosila

(1997-4-28) $y = \log_2 4x + cos(x^2 + 3x)$ funksiyaning hosilsini toping.

A) $\frac{\ln 2}{x} - sin(x^2 + 3x)(2x + 3)$

B) $\frac{1}{4x} - sin(x^2 + 3x)(2x + 3)$

C) $\frac{1}{4x\ln 2} + sin(x^2 + 3x)(2x + 3)$

D) $\frac{1}{x\ln 2} - (2x + 3)sin(x^2 + 3x)$

Yechilishi: $y = \log_2 4x + cos(x^2 + 3x)$;

1)oldin funksiyadan, so‘ngra uning argumentdan hosila olinadi.

$y' = \left(\log_2 4x + cos(x^2 + 3x)\right)' = (\log_2 4x)' +$

$+\left(cos(x^2 + 3x)\right)' = \frac{1}{4x\ln 2} \cdot (4x)' +$

$+\left(-sin(x^2 + 3x)\right)(x^2 + 3x)' =$

$= \frac{1}{4x\ln 2} \cdot 4 \cdot 1 - sin(x^2 + 3x)(2x + 3 \cdot 1) =$

$= \frac{1}{x\ln 2} - (2x + 3) \cdot sin(x^2 + 3x).$ Javobi: E.

(1997-8-57) Agar $f(x) = (x^2 + 1)^2$ bo‘lsa, $f'\left(\frac{1}{2}\right)$ ni toping.

A) 2,5 B) $-1\frac{2}{5}$ C) $1\frac{4}{5}$ D) $\frac{2}{5}$ E) $1\frac{4}{5}$

Yechilishi: $f(x) = (x^2 + 1)^2$; $f'\left(\frac{1}{2}\right)$;

$f(x) = x^4 + 2x^2 + 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow f'(x) = (x^4 + 2x^2 + 1)' = (x^4)' + (x^2)' + 1' =$

$= 4x^3 + 4x \Rightarrow f'(x) = 4x^3 + 4x.$

Hosiladagi x ning o‘rniga, unga teng $\frac{1}{2}$ qo‘yiladi.

$f'\left(\frac{1}{2}\right) = 4 \cdot \left(\frac{1}{2}\right)^3 + 4 \cdot \frac{1}{2} = 4 \cdot \frac{1}{8} + 2 = \frac{1}{2} + 2 = \frac{5}{2} = 2{,}5.$

Javobi: A.

(1997-6-62) Agar $f(x) = \ln sinx$ bo‘lsa, $f'\left(\frac{\pi}{4}\right)$ ni hisoblang.

A) -1 B) 3 C) $-\sqrt{3}$ D) 1 E) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

Yechilishi: $f(x) = \ln sinx$, $f'\left(\frac{\pi}{4}\right) = ?$

$f'(x) = \frac{1}{sinx} \cdot (sinx)' = \frac{1}{sinx} \cdot cosx = \frac{cosx}{sinx} = ctgx;$

$f'\left(\frac{\pi}{4}\right) = ctg\frac{\pi}{4} = 1.$ Javobi: D.

(1997-6-19) Agar $g(x) = ctgx + \frac{12x^3}{\pi^2} + \pi$ bo‘lsa, $g'\left(\frac{\pi}{6}\right)$ ni hisoblang.

A) -1 B) -3 C) 5 D) 3 E) 1,5

Yechilishi: $g(x) = ctgx + \frac{12x^3}{\pi^2} + \pi$, $g'\left(\frac{\pi}{6}\right)$.

Qulaylik uchun o‘zgarmas son bilan o‘zgaruvchi alohida-alohida yoziladi: $g(x) = ctgx + \frac{12}{\pi^2} \cdot x^3 + \pi;$

$g'(x) = -\frac{1}{sin^2x} + \frac{12}{\pi^2} \cdot 3x^2 + 0 = -\frac{1}{sin^2x} + \frac{36}{\pi^2} \cdot x^2 \Rightarrow$

$\Rightarrow g'\left(\frac{\pi}{6}\right) = -\frac{1}{sin(\frac{\pi}{6})^2} + \frac{36}{\pi^2} \cdot (\frac{\pi}{6})^2 = -3.$ Javobi: B.

(1997-9-33) $y = e^{ctgx}$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $\frac{e^{ctgx}}{cos^2x}$ B) $ctgx \cdot e^{ctgx-1}$ C)$-\frac{e^{ctgx}}{sin^2x}$

D) $e^{ctgx}\ln x$ E) $tgx \cdot e^{ctgx}$

Yechilishi: $y = e^{ctgx} \Rightarrow y' = e^{ctgx}(ctgx)' =$

$= -\frac{1}{sin^2x} \cdot e^{ctgx}$. Javobi: C.

(1997-9-34) $y = \frac{1}{3} \cdot 6^x - 6$ funksiyaning $x = 1$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) $\ln 12$ B)$\ln 36$ C)$\ln 6$ D)$\ln \frac{6}{e}$ E) 6

Yechilishi: $y = \frac{1}{3} \cdot 6^x - 6;$ $x = 1;$

$y' = \frac{1}{3} \cdot 6^x \cdot \ln 6 - 0 \Rightarrow y'(1) = \frac{1}{3} \cdot 6^1 \cdot \ln 6 =$

$=2\ln 6 = \ln 36.$ Javobi: B.

(1997-11-19) $f(x) = 2cosx - \frac{(\sqrt{\pi})^3}{\sqrt{x}} + \frac{\pi}{2}.f'(\pi)$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{\pi}}{2}$ B) -1,5 C) 0,5 D) 2,5 E) $\frac{\sqrt{\pi}}{3}$

Yechilishi: $f(x) = 2cosx - \frac{(\sqrt{\pi})^3}{\sqrt{x}} + \frac{\pi}{2}.f'(\pi) =?$

$f(x) = 2cosx - \frac{1}{x^{\frac{1}{2}}} \cdot \sqrt{\pi^3} + \frac{\pi}{2};$

$f'(x) = -2sinx + \frac{1}{2} \cdot x^{-\frac{1}{2}-1} \cdot \sqrt{\pi^3} + 0 =$

$= -2sinx + \frac{1}{2} \cdot x^{-\frac{3}{2}}\sqrt{\pi^3} = -2sinx + \frac{1}{2} \cdot \frac{1}{x^{\frac{3}{2}}} \cdot \sqrt{\pi^3} =$

$= -2sinx + \frac{1}{2\sqrt{x^3}} \cdot \sqrt{\pi^3};$

$f'(\pi) = -2sin\pi + \frac{\sqrt{\pi^3}}{2 \cdot \sqrt{\pi^3}} = 0 + \frac{1}{2} = \frac{1}{2} = 0{,}5.$ Javobi: C.

(1997-5-33) $y = e^{sin^2x}$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $e^{sin^2\pi}$ B)$e^{sin^2\pi} \cdot sin2x$ C) $2e^{sin^2\pi} \cdot sinx$

D)$e^{sin^2\pi-1}\cdot sin^2x$ E)$e^{sin^2\pi}\cdot cos^2x$

Yechilishi: $y=e^{sin^2x}\Rightarrow y'=e^{sin^2x}\cdot(sin^2x)'=$

$=e^{sin^2x}\cdot 2sinx\cdot(sinx)'=$

$=e^{sin^2x}\cdot 2sinxcosx=sin2x\cdot e^{sin^2x}$. Javobi: B.

(1997-9-88) $y=\lg(tg4x)+sin(x^2+x+4)$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $\frac{1}{\ln 10\cdot tg4x\cdot cos^2 4x}+(2x+1)\cdot cos(x^2+x+4)$

B) $\frac{4}{\ln 10\cdot tg4x\cdot cos^2 4x}+(2x+1)\cdot cos(x^2+x+4)$

C) $\frac{4\ln 10}{tg4x\cdot cos^2 4x}+(2x+1)\cdot cos(x^2+x+1)$

D) $\frac{\ln 10}{tg4x\cdot cos^2 4x}+(2x+1)\cdot cos(x^2+x+1)$

E) $\frac{1}{tg4x\cdot cos^2 4x}+(2x+1)\cdot cos(x^2+x+1)$

Yechilishi: $y=\lg(g4x)+sin(x^2+x+4)$;

$y'=\frac{1}{tg4x\cdot\ln 10}\cdot(tg4x)'+cos(x^2+x+4)\cdot$

$\cdot(x^2+x+4)'=$

$=\frac{1}{tg4x\ln 10}\cdot\frac{1}{cos^2 4x}\cdot(4x)'+$

$+(2x+1+0)\cdot cos(x^2+x+4)=$

$=\frac{4}{\ln 10 tg4x\cdot cos^2 4x}+(2x+1)\cdot cos(x^2+x+4).$

Javobi: B.

(1996-1-28) Agar $f(x)=x\cdot 2^{x+1}$ bo‘lsa, $f'(0)$ ni toping.

A) -2 B) -1 C) 1 D) 2 E) 2 ln 2

Yechilishi: $f(x)=x\cdot 2^{x+1}$; $f'(0)$;

Buni yechishda ko‘paytmadan hosila olish formulasidan foydalaniladi:

$f'(x) = (x \cdot 2^{x+1})' = x' \cdot 2^{x+1} + x(2^{x+1})' =$

$= 1 \cdot 2^{x+1} + x \cdot 2^{x+1} \ln 2 \Rightarrow$

$\Rightarrow f'(0) = 2^{0+1} + 0 \cdot 2^{0+1} \ln 2 = 2 + 0 = 2$. Javobi: D.

(1996-3-81) $f(x) = \frac{x}{1-x}$, $f'(2) - ?$

A) -1 B) -2 C) 2 D) 1 E) 4

Yechilishi: $f(x) = \frac{x}{1-x}$, $f'(2) - ?$

Bo‘linmadan hosila olish formulasidan foydalaniladi:

$f'(x) = \left(\frac{x}{1-x}\right)' = \frac{x'(1-x)-x(1-x)'}{(1-x)^2} =$

$= \frac{1\cdot(1-x)-(0-1)}{(1-x)^2} = \frac{1-x+x}{(1-x)^2};$

$f'(2) = \frac{1}{(1-2)^2} = \frac{1}{(-1)^2} = 1.$ Javobi: D.

(1996-3-83) To‘g‘ri chiziq bo‘ylab $x(t) = -t^3 + 6t^2 + 15t$ qonun bo‘yicha harakatlanayotgan moddiy nuqta harakat boshlangandan necha sekund to‘xtaydi?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

Yechilishi: $x(t) = -t^3 + 6t^2 + 15t$;

1) Harakat qonun deyilsa, yo‘lning formulasini tushunish kerak;

2) Yo‘ldan hosila olinsa, tezlik kelib chiqadi;

3) Tezlik nolga teng bo‘lsa, harakat to‘xtaydi;

$x(t) = S \Rightarrow S = -t^3 + 6t^2 + 15t \Rightarrow$

$\Rightarrow (S)' = (t^3 + 6t^2 + 15t)' \Rightarrow V = -3t^2 + 12t + 15 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} V = 0 \\ -3t^2 + 12t + 15 = 0 \end{cases} \Rightarrow t^2 - 4t - 5 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} t_1 = -1; \\ t_2 = 5. \end{cases}$

4) Vaqt $''-''$ bo‘lmaydi, demak $t = 5$. Javobi: E.

A) $\frac{4}{9}$ B) $-\frac{4}{9}$ C) $\frac{3}{4}$ D) $-\frac{3}{4}$ E) $\frac{5}{9}$

(1996-9-79) Agar $f(x) = 3x \cdot 2^x$ bo‘lsa, $f'(0)$ ni toping.

A) -3 B) 3 C) 1 D) -1 E) 3ln 2

Yechilishi: $f(x) = 3x \cdot 2^x$; $f'(0)$;

$f'(x) = (3 \cdot x \cdot 2^x)' = 3 \cdot (x \cdot 2^x)' =$

$= 3[x' \cdot 2^x + x \cdot (2^x)'] = 3[1 \cdot 2^x + x \cdot 2^x \cdot \ln 2] =$

$= 3(2^x + x \cdot 2^x \ln 2)$;

$f'(x) = 3(2^0 + 0 \cdot 2^0 \cdot \ln 2) = 3(1 + 0) = 3.$ Javobi: B.

Funksiyaning ekstrimumi

(1997-9-90) $f(x) = 3x^2 - 4x - 4$ funksiyaning $[0; 3]$ oraliqdagi eng katta qiymatii toping.

A) 10 B) 20 C) 11 D) 16 E) 18

Yechilishi: $f(x) = 3x^2 - 4x - 4$; $[0; 3]$;

1) funksiyadan hosila olinadi: $f'(x) = 6x - 4$;

2) hosila nolga tenglanib, kritik nuqta topiladi:

$6x - 4 = 0 \Rightarrow x = \frac{2}{3} \in [0; 3]$;

3) oraliqning chetki nuqtalari va $x = \frac{2}{3}$ kritik nuqta $f(x)$ funksiyaga qo‘yiladi:

$f(0) 3 \cdot 0^2 - 4 \cdot 0 - 4 = -4$;

$f\left(\frac{2}{3}\right) = 3 \cdot \left(\frac{2}{3}\right)^2 - 4 \cdot \frac{2}{3} - 4 = -5\frac{1}{3}$;

$f(3) = 3 \cdot 3^2 - 4 \cdot 3 - 4 = 27 - 12 - 4 = 11.$ Javobi: C.

(1997-9-40) $y = \frac{x^2-5}{x^2+5}$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) 5 B) -5 C) -1 D) 1 E) 0

Yechilishi: $x^2 \geq 0$ ekanligidan, $y = \frac{x^2-5}{x^2+5} \Rightarrow -1$. Javobi: C.

(1997-9-25) $y = x^2 - 2$ funksiyaning kamayish oralig‘ini ko‘rsating.

A) $(-\infty; -2)$ B) $(-\infty; 2)$ C) $(2; \infty)$

D) $(-2; \infty)$ E) $(-\infty; 0]$

Yechilishi: $y = x^2 - 2;$ hosilani noldan kichik yoki teng deb ishlanadi:

$y' = 2x; \quad 2x \leq 0 \Rightarrow (-\infty; 0]$. Javobi: E.

(1997-10-30) Quyidagilardan qaysi biri $y = \frac{10}{5^{|cosx|}} + 2\ln e^3$ funksiyaning eng katta qiymatini toping.

A) 8 B) 16 C) $2 + 2e^3$

D) 18 E) aniqlab bo‘lmaydi

Yechilishi: $0 \leq |cosx| \leq 1;$ $y = \frac{10}{5^{|cosx|}} + 2\ln e^3$;

1) kasrning kattartirish uchun maxrajni kichraytirish kerak:

$|cosx| = 0 \Rightarrow y = \frac{10}{5^0} + 2 \cdot 3 \cdot \ln e = 16.$ Javobi: B.

(1997-12-43) k ning qanday qiymatlarida $f(x) = kx - sinx$ funksiya o‘zining aniqlanish sohasida kamayadi?

A) $k \leq -1$ B) $k > -1$ C) $k < 0$

D) $k > 0$ E) $0 < k < 1$

Yechilishi: $f(x) = kx - sinx; \quad y' = k - cosx \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} f'(x) \leq 0 \\ k - cosx \leq 0 \end{cases} \Rightarrow k \leq cosx$ ni $-1 \leq cosx \leq 1$ bilan taqqoslanadi; Demak, $k \leq -1 \Rightarrow (-\infty; -1]$. Javobi: A.

(1997-10-29) $y = -4x^3 + 12x$ funksiyaning minimumini toping.

A) 0 B) -8 C) -16 D) 8 E) mavjud emas

Yechilishi: $y = -4x^3 + 12x \Rightarrow -12x^2 + 12 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 = 1 \Rightarrow \begin{cases} x_1 = -1; \\ x_2 = 1. \end{cases}$

$y = -4(-1)^3 + 12(-1) = -8;$

$y = -4 \cdot 1^3 + 12 \cdot 1 = 8.$

Demak, $x_1 = -1$ berilgan unksiyaning minimum nuqtasi, $y = -8$ esa minimum qiymati. Javobi: B.

(1996-1-14) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $(-\infty; 0)$ oraliqda o‘suvchi bo‘ladi?

A) $y = 3x + 2$ B) $y = \frac{3}{x}$ C) $y = 6 - 3x$

D) $y = x^2$ E) $y = \sqrt{-x}$

Yechilishi: 1) $(-\infty; 0)$ oraliqdan, aytaylik usish tartibidagi -10 va -1 sonlarni funksiyalarga qo‘yib tekshirish qulay;

$x = -10 \Rightarrow y = 3x + 2 = 3 \cdot (-10) + 2 = -28;$

$x = -1 \Rightarrow y = 3 \cdot (-1) + 2 = -1;$ Javobi: A.

(1996-1-56) $y = 2sin3x + cos3x$ funksiyaning eng katta qiymatini toping.

A) 3 B) 2 C) $\sqrt{5}$ D) 4 E) 1,5

Yechilishi: $y = 2sin3x + cos3x;$

$y' = (2sin3x + cos3x)' = 6cos3x - 3sin3x \Rightarrow$

$\Rightarrow 6cos3x - 3sin3x = 0 \Rightarrow 6cos3x = 3sin3x \Rightarrow$

$\Rightarrow tg3x = 2 \Rightarrow 3x = argtg2;$

2) Bu kritik nuqta funksiyaga qo‘yiladi:

$y = 2sinargtg2 + cosargtg2 =$

$= 2 \cdot \frac{2}{\sqrt{1+2^2}} + \frac{1}{\sqrt{1+2^2}} = \frac{4}{\sqrt{5}} + \frac{1}{\sqrt{5}} = \frac{5}{\sqrt{5}} = \sqrt{5}.$ Javobi: C.

(1996-3-20) $f(x) = -x^2 + 2x - 1$ funksiyaning o‘sish oralig‘ini toping.

A) $(1;\infty)$ B) $(0;\infty)$ C) $(-\infty;-1)$

D) $(-1;\infty)$ E) $(-\infty;-1)$

Yechilishi: $f(x)=-x^2+2x-1;$

Funksiya hosilasi noldan katta yoki teng deb yechiliadi:

$-2x+2\geq 0\Rightarrow 2x\leq 2\Rightarrow x\leq 1\Rightarrow(-\infty;-1]$. Javobi: E.

(1996-6-44) a ning qanday qiymatlarida $f(x)=ax+sinx$ funksiya o‘zining aniqlanish sohasida o‘sadi?

A) $|a|>1$ B) $0<a<1$ C) $a\geq 1$

D) $a=0$ E) $a>2$

Yechilishi: $f(x)=ax+sinx\Rightarrow a+cosx\geq 0\Rightarrow$

$-a\leq cosx;\quad -1\leq cosx\leq 1;\ \ a\geq 1\Rightarrow[1;\infty)$.

Javobi: C.

(1996-7-29) $f(x)=3x-x^2$ funksiyaning maksimumini toping.

A) -1 B) 2 C) -2 D) 4 E) maksimumi yo‘q

Yechilishi: $f(x)=3x-x^3\Rightarrow f'(x)=3-3x^2\Rightarrow$

$\Rightarrow 3x^2=3\Rightarrow x\pm 1;$

$f(-1)=3(-1)-(-1)^3=-3+1=-2;$

$f(1)=3\cdot 1-1^3=2;$ Demak, maksimumi 2. Javobi: B.

(1996-7-30) $y=5^{1-sinx}-e^{\ln 2}$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) $1-e^2$ B) 2 C) -2

D) -2,29 E) aniqlab bo‘lmaydi

Yechilishi: $y=5^{1-sinx}-e^{\ln 2}=\frac{5}{5^{sinx}}-2;$

$-1\leq sinx\leq 1;\quad y(1)=1-2=-1.$ Javobi: C.

(1997-2-44) m ning qanday qiymatlarida $y=cosx+mx$ funksiya aiqlanish sohasida kamayadi?

A) $m \in (-\infty; -1]$ B) $m \in (-1; \infty)$ C) $m \in [-1; \infty)$
D) $m \in (-\infty; -1)$ E) $m \in [-1; -1]$

Yechilishi: $y = cosx + mx \Rightarrow -sinx + m \leq 0 \Rightarrow$
$m \leq sinx;\ \ -1 \leq sinx \leq 1.\ m \in (-\infty; -1]$. Javobi: A.

(1997-9-99) k ning qanday qiymatlarida $y = 6 + k^3 cos4x$ funksiyaning eng katta qiymati 70 bo‘ladi?

A) 4 B) 6 C) -4 D) ± 4 E) ± 6

Yechilishi: $y = 6 + k^3 cos4x$;

$$y' = -4k^3 sin4x \Rightarrow -4k^3 sin4x = 0 \Rightarrow \begin{cases} -4k^3 \neq 0 \\ sin4x = 0 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow 4x = \pi n \Rightarrow x = \frac{\pi}{4} \cdot n \Rightarrow \begin{cases} n = 0 \\ n = 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 0 \\ x = \frac{\pi}{4} \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} 70 = 6 + k^3 cos4 \cdot 0 \\ 70 = 6 + k^3 cos4 \cdot \frac{\pi}{4} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} k^3 = 64 \\ k^3 = -64 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} k = 4 \\ k = -4 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow k = 4.$

Javobi: A.

(1997-4-39) k ning qanday qiymatlarida $y = 1 + k^2 sin^2 x$ funnksiyaning eng katta qiymati 10 bo‘ladi?

A) 9 B) -9 C) 3 D) -5; 3 E) 3; -3

Yechilishi: $y = 1 + k^2 sin^2 x \Rightarrow y' = 0 + k^2 \cdot 2sinxcosx \Rightarrow$

$$\Rightarrow y' = k^2 sin2x \Rightarrow sin2x = 0 \Rightarrow 2x = \pi n \Rightarrow x = \frac{\pi}{2} n \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} n = 0 \Rightarrow x = 0°; \\ n = 1 \Rightarrow x = 90°; \end{cases}$$

$$\begin{cases} 10 = 1 + k^2 \cdot (sin0)^2 \\ 10 = 1 + k^2 \cdot (sin90°)^2 \end{cases} \Rightarrow$$



$\Rightarrow \begin{cases} 9 \neq 0 \\ 9 = k^2 \Rightarrow k = \pm 3. \end{cases}$ Javobi: E.

(1997-6-21) $y = 2sinx - 1$ funksiyaning $[0; \frac{\pi}{6}]$ kesmadagi eng katta qiymatini toping.

A) 0 B) 1 C) 0,5 D) $\sqrt{2} - 1$ E) $\sqrt{3} - 1$

Yechilishi: $y = 2sinx - 1 \Rightarrow y' = 2cosx \Rightarrow cosx = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x = \frac{\pi}{2} + \pi k \Rightarrow x \notin \left[0; \frac{\pi}{6}\right] \Rightarrow y = 2sin0 - 1 = -1;$

$y = 2sin\frac{\pi}{6} - 1 = 2 \cdot \frac{1}{2} - 1 = 0.$ Javobi: A.

Integral

(1996-1-32) $f(x) = 1 - \frac{1}{cos^2 3x}$ funksiya boshlang‘ich funksiyasining umumiy ko‘rinishini toping.

A) $x + \frac{1}{3}ctgx + C$ B) $x - \frac{1}{3}tgx + C$

C) $x - \frac{1}{3}tg3x + C$ D) $tg3x + C$ E) $x - \frac{1}{3}ctg3x + C$

Yechilishi: $f(x) = 1 - \frac{1}{cos^2 3x}$;

1) $F(x)$ boshlang‘ich funksiyani topish talab etilsa, f(x) funksiyani integrallash kerak: $F(x) = \int f(x) \cdot dx;$

$F(x) = \int \left(1 - \frac{1}{cos^2 x}\right) dx =$

2) yig‘indi (ayirma) ning integrali formulasidan foydalaniladi:

$= \int dx - \int \frac{dx}{cos^2 3x} =$

3) funksiya argumentining koeffitsiyinti, integral oldiga teskari bo‘lib chiqadi:

$= x - \frac{1}{3}tg3x + C \Rightarrow F(x) = x - \frac{1}{3}tg3x + C.$ Javobi: C.

(1996-1-31) $\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} sinxdx$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C)$\frac{1}{2}$ D) $-\sqrt{2}$ E)$-\frac{1}{2}$

Yechilishi: $\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} sinxdx = -cosx \Big|_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} =$

1) Integraldan chiqqan boshlang‘ich funksiya oldida ″−„ ishora yoki birdan boshqa son bo‘lsa, undan keyin o‘rta qavs ochilishi, yo‘i qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini oladi;

2) Integraldan chiqqan boshlang‘ich funksiyadagi x ning o‘rniga oldin $\frac{\pi}{2}$ yuqori chegara , keyin $\frac{\pi}{3}$ quyi chegara qo‘yilib ayriladi:

$= -\left[cos\frac{\pi}{2} - cos\frac{\pi}{3}\right] = -\left(0 - \frac{1}{2}\right) = \frac{1}{2}.$ Javobi: C.

(1996-6-47) Quyidagi funksiyalarning qaysi biri uchun $F(x) = 2cosx + sinx + c$ funksiya boshlang‘ich funksiyasi bo‘ladi?

A) $f(x) = -2sinx - cosx$ B) $f(x) = 2sinx + cosx$

C) $f(x) = -2sinx + cosx$ D) $f(x) = 2sinx - cosx$

E) $f(x) = -2sinx - cosx$

Yechilishi: $F(x) = 2cosx + sinx + c;\quad f(x) =?$

1) Katta $F(x)$ berilsa, kichik $f(x)$ ni topish uchun, katta $F(x)$ dan hosila olish kerak. $[F(x)]' = f(x);$

$f(x) = [F(x)]' = (2cosx + sinx + c)' =$

$= 2 \cdot (-sinx) + cosx + 0 \Rightarrow f(x) = -2sinx + cosx.$

Javobi: C.

(1996-3-84) $f(x)=x^3$ funksiyaning $(2;1)$ nuqtadan o‘tuvchi boshlang‘ich funksiyasini toping.

A)$\frac{x^2}{2}-1$ B)$\frac{x^2}{2}+1$ C)$\frac{x^4}{4}-3$ D)$\frac{x^4}{2}+3$

E) $(2;1)$ nuqtadan o‘tuvchi boshlang;ich funksiya yo‘q

Yechilishi: $f(x)=x^3;\ \ (2;1);$

$F(x)=\int f(x)dx=\int x^3dx=\frac{x^{3+1}}{3+1}+C=\frac{x^4}{4}+C;$

$F(x)=\frac{1}{4}\cdot x^4+c;$

1) $(2;1)$ nuqta berilsa, $F(x)$ o‘rniga berilgan nuqtaning ordinatasi $1,x$ o‘rniga esa bssissasi 2 qo‘yilib C o‘zgarmas son tpiladi:

$1=\frac{1}{4}\cdot 2^4+C\Rightarrow 1=\frac{1}{4}\cdot 16+C\Rightarrow 1=4+c\Rightarrow$

$\Rightarrow c=-3.$

2) C ning topilgan qiymat $-3,\ F(x)$ umumiy boshlang‘ich funksiyaga qo‘yilib, $(2;1)$ nuqtadan o‘tuvch kuyidagi xususis boshlang‘ich funksiya topiladi:

$F(x)=\frac{x^4}{4}-3.$ Javobi: C.

(1996-6-48) Agar $y=f(x)$funksiyaning boshlang‘ich funksiyasi $F(x)$ bo‘lsa, $y=2f(2x)$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasini toping.

A) $2F(2x)$ B)$\frac{1}{2}F(2x)$ C) $F(2x)$ D) $2F(x)$ E)$\frac{1}{2}F(x)$

Yechilishi: $F(x)=\int 2f(2x)dx=2\int f(2x)dx=$

$=2\cdot\frac{1}{2}\cdot F(2x)=F(2x).$ Javobi: C.

(1997-9-91) Agar $f'(x)=\frac{1}{x\cdot\ln 10}+10x+5$ va $f(1)=6$ bo‘lsa, $f(x)$ ni toping.

A) $f(x) = lnx + 5x^2 + 5x - 4$

B) $f(x) = \frac{1}{10} lnx + 5x^2 + 5x + 4$

C) $f(x) = -lgx + 5x^2 + 5x + 10$

D) $f(x) = lgx + 5x^2 + 5x - 4$

E) $f(x) = \frac{1}{10} lgx + 5x^2 + 5x + 6$

Yechilishi: $f'(x) = \frac{1}{x \ln 10} + 10 \cdot x + 5;$

$f(1) = 6,\ f(x) = ?;$

masala sharti oydinlashtriladi

$f(x) = \frac{1}{x \ln 10} + 10x + 5. \quad F(1) = 6; \quad F(x) = ?$

$F(x) = \int \left[\frac{1}{x \cdot \ln 10} + 10x + 5\right] dx =$

$= \int \frac{dx}{x \cdot \ln 10} + 10 \int x dx + 5 \int dx =$

$= \lg x + 10 \cdot \frac{x^2}{2} + 5x + C;$

$F(x) = \lg x + 5x^2 + 5x + C;$

2) $x = 1, F(1) = 6$ ekanligi e'tiborga olinib, C topiladi:

$F(1) = \lg 1 + 5 \cdot 1^2 + 5 \cdot 1 + C;$

$6 = 0 + 5 + 5 + C \Rightarrow C = -4;$

U holda $F(x) = \lg x + 5x^2 + 5x - 4.$ Javobi: D.

(199-1-49) $\int_0^{e^2-1} \frac{dx}{x+1}$ ni hisoblang.

A) 3 B) 2 C) -2 D) -3 E) e^2

Yechilishi: $\int_0^{e^2-1} \frac{dx}{x+1}$ =maxraji $x + 1$, dx differensialning tagiga kiritiladi.

2) funksiyaning differensialini topish uchun funksiyadan hosila olinib, dx ga ko'paytiriladi:

$d(x + 1) = (x + 1)' \cdot dx = (1 + 0)dx = dx.$

Bundan $= \int_0^{e^2-1} \frac{d(x+1)}{x+1} = \ln|x+1| \Big|_0^{e^2-1} = \ln|e^2 - 1 + 1| - \ln|0+1| = \ln|e^2| - \ln 1 = = \ln e^2 - 0 = 2\ln e = 2 \cdot 1 = 2.$ Javobi: B.

(1996-7-31) $\int_0^2 (1-2x)^2 dx$ ni hisoblang.

A) $4\frac{1}{2}$ B) $-3\frac{1}{3}$ C) 9 D) $4\frac{2}{3}$ E) $-4\frac{1}{2}$

$\int_0^2 (1-2x)^2 dx = \int_0^2 (1-4x-4x^2)dx =$

$= \int_0^2 dx - \int_0^2 4x dx + \int_0^2 4x^2 dx =$

$= x\Big|_0^2 - 4\int_0^2 x dx + 4\int_0^2 x^2 dx =$

$= 2 - 0 - 4 \cdot \frac{x^2}{2}\Big|_0^2 + 4 \cdot \frac{x^3}{3}\Big|_0^2 = 2 - 2x^2\Big|_0^2 + \frac{4x^3}{3}\Big|_0^2 =$

$= 2 - 2[2^2 - 0^2] + \frac{4}{3}[2^3 - 0^3] = 2 - 8 + \frac{32}{3} = -6 +$

$+ \frac{32}{3} = \frac{14}{3} = 4\frac{2}{3}.$ Javobi: D.

(1996-7-32) $f(x) = 2 \cdot cos^2 x$ funksiya boshlang‘ich funksiyasining umumiy ko‘rinishini toping.

A) $2 \cdot sin^2 x$ B) $x + \frac{1}{2} sin2x + C$ C) $\frac{2}{3} cos^3 x + C$

D) $2x - \frac{1}{2} sin2x + C$ E) $-\frac{2}{3} sin^3 x + C$

Yechilishi: $f(x) = 2 \cdot cos^2 x;$

1) triganometrik funksiyalarni integrallash uchun, dastlab uning darajasini pasaytirish kerak

$f(x) = 2 \cdot \frac{1}{2}(1 + cos2x) = 1 + cos2x;$

$F(x) = \int f(x)dx = \int (1 + cos2x)dx =$

$= \int dx + \int cos2x dx = x + \frac{1}{2} sin2x + c.$ Javobi: B.

(199-1-35) $f(x) = ctg^2x$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasini toping.

A) $x - ctgx + C$ B)$-x - ctgx + C$ C)$-x + tgx + C$

D)$-x - tgx + C$ E)$-\frac{2ctgx}{sin^2x} + C$

Yechilishi: $f(x) = ctg^2x$;

1) Daraja pasaytiriladi:

$f(x) = \frac{1}{sin^2x} - 1;$

$F(x) = \int \left(\frac{1}{sin^2x} - 1\right) dx = \int \frac{dx}{sin^2x} - \int dx =$

$= -ctgx - x + C \Rightarrow F(x) = -x - ctgx + C.$

Javobi: B.

(1997-11-23) Agar $F'(x) = x - 4$ va $F(2) = 0$ bo‘lsa, $F(x)$ funksiyani toping.

A) $F(x) = x^2 - 2x$ B) $F(x) = x^2 - 4x + 4$

C) $F(x) = 2x^2 - 4x$ D) $F(x) = \frac{1}{2}x^2 - 4x + 6$

E) $F(x) = \frac{1}{2}x^2 - 2x + 2$

Yechilishi: $F'(x) = x - 4;$ $F(2) = 0;$ $F(x) =?$

masala shartiga oydinlik kiritiladi:

$f(x) = x - 4;$ $F(2) = 0;$ $F(x) =?$

$F(x) = \int f(x)dx = \int (x - 4)\, dx = \int xdx - 4\int dx =$

$= \frac{x^2}{2} - 4x + C \Rightarrow F(x) = \frac{1}{2} \cdot x^2 - 4x + C;$

2) $x = 2;$ $F(2) = 0$ ekanligi e’tiborga olinib, C topiladi.

$F(2) = \frac{1}{2} \cdot 2^2 - 4 \cdot 2 + C;$ $0 = 2 - 8 + C \Rightarrow C = 6;$

3) U holda, $F(x) = \frac{1}{2}x^2 - 4x + 6.$

Javobi: D.

(1997-1-62) $\int_{-1}^{5}|2-x|\,dx$ ni hisoblang (chegaralari –1 dan 2 gacha bo‘lgan masala sharti, –1 dan 5 gacha kengaytirib olindi).

A) 2 B) 3 C) 3,5 D) 4 E) 9

Yechilishi: $\int_{-1}^{5}|2-x|\,dx=$

1) integral ostidagi funksiya modulsiz yozib olinib, grafigi chiziladi:

$y=2-x;$



2) funksiya grafigining absissasidan yuqorida joylashgan qismi uchun modul belgisi shuday, absissadan pastda joylashgan qismi uchun oldiga $''-''$ qo‘yib tashlanadi:

$=\int_{-1}^{2}|2-x|\,dx-\int_{2}^{5}|2-x|\,dx=\int_{-1}^{2}2\,dx-\int_{-1}^{2}xdx-$

$-\int_{2}^{5}2dx+\int_{2}^{5}xdx=2\cdot\int_{-1}^{2}dx-\int_{-1}^{2}xdx-2\int_{2}^{5}dx+$

$+\int_{2}^{5}xdx=2x\big|_{-1}^{2}-\frac{x^2}{2}\big|_{-1}^{2}-2x\big|_{2}^{5}+\frac{x^2}{2}\big|_{2}^{5}=$

$=2[2-(-1)]-\frac{1}{2}[2^2-(-1)^2]-2[5-2]+$

$+\frac{1}{2}[5^2-2^2]\;=6-\frac{1}{2}\cdot3-6+\frac{1}{2}\cdot21=-\frac{3}{2}+\frac{21}{2}=$

$\frac{-3+21}{2}=\frac{18}{2}=9.$ Javobi: E

(1997-2-49) $\int_{0}^{\frac{\pi}{4}}(1+tg^2x)\,dx$ ni hisoblang.

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ D) -1 E) $-\sqrt{3}$

Yechilishi: $\int_0^{\frac{\pi}{4}}(1+tg^2x)\,dx=\int_0^{\frac{\pi}{4}}\frac{dx}{cos^2x}=tgx\Big|_0^{\frac{\pi}{4}}=$

$=tg\frac{\pi}{4}-tg0=1-0=1.$ Javobi: B.

(1997-3-32) $f(x)=sin^2 2x$ funksiya boshlang‘ich funksiyasining umumiy ko‘rinishini ko‘rsating.

A)$\frac{1}{3}sin^3 2x+C$ B)$-\frac{1}{2}cos^2 2x+C$ C)$\frac{1}{2}x-\frac{1}{8}sin4x+C$

D) $\frac{1}{2}x+\frac{1}{3}cos4x+C$ E) $x-cos4x+C$

Yechilishi: $f(x)=sin^2 2x=\frac{1}{2}(1-cos4x)$; Javobi: C.

(1997-7-97) $f(x)=sinx\cdot cos2x$ funksiya boshlang‘ich funksiyasining umumiy ko‘rinishini ko‘rsating.

A) $\frac{1}{3}sin3x+\frac{1}{2}sinx+C$ B)$\frac{1}{2}cosx-\frac{1}{3}cos3x+C$

C) $\frac{1}{2}cosx-\frac{1}{6}cos3x+C$ D)$-cosx\cdot sin2x+C$

E)$-\frac{1}{2}sin2x\cdot cosx+C$

Yechilishi: $f(x)=sinx\cdot cos2x=$

Ko‘paytmadan yig‘indiga o‘tish formulasidan foydalanib, daraja pasaytiriladi.

$=\frac{1}{2}[\sin(x+2x)+\sin(x-2x)]=\frac{1}{2}[sin3x-sinx];$

$F(x)=\frac{1}{2}\int sin3xdx-\frac{1}{2}\int sinxdx=$

$=\frac{1}{2}\cdot\frac{1}{3}\cdot(-cos3x)-\frac{1}{2}(-cosx)+C=$

$=-\frac{1}{6}cos3x+\frac{1}{2}cosx+C;$

$F(x)=\frac{1}{2}cosx-\frac{1}{6}cos3x+C.$

Javobi: C.

(1997-12-48) $\int_e^{2e}\frac{dx}{2x-e}$ ni hisoblang.

A) $\ln 3$ B)$2\ln 3$ C) $\ln\frac{1}{3}$ D) 3 E)$\ln\sqrt{3}$

Yechilishi: $\int_e^{2e}\frac{dx}{2x-e}=\frac{1}{2}\int_e^{2e}\frac{d(2x-e)}{2x-e}=$

$[Izoh: d(2x-e)=(2x-e)'dx=(2\cdot 1-0)dx=2dx]$

$=\frac{1}{2}\ln(2x-e)\Big|_e^{2e}=\frac{1}{2}[\ln(2\cdot 2e-e)-\ln(2e-e)]=$

$=\frac{1}{2}[\ln 3e-\ln e]=\frac{1}{2}[\ln 3+\ln e-\ln e]=$

$=\frac{1}{2}\ln 3=\ln 3^{\frac{1}{2}}=\ln\sqrt{3}.$

Javobi: E.

Yuz va hajmlarni hisoblash

(1996-3-32)$y=x^2,\ y=0,\ va\ x=2$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) 2 C) 4 D) 8 E) $2\frac{1}{2}$

Yechilishi: 1) bu masalada 4 ta chiziqlar bilan chegaralagan yuzini topish so‘ralgan.



2) Integralning quyi chegarasiga OX o‘qining chap nuqtasiga yuqori chegarasiga o‘ng nuqtasi qo‘yiladi;

3) Integral ostiga grafigi yuqorida joylashgan funksiya qo‘yiladi.

$S=\int_a^b f(x)dx=\int_0^2 x^2dx.$

Javobi: E.

(1997-9-92)$y = x^2$ va $y = 2x$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.

A) $1\frac{1}{3}$ B) 1 C) $1\frac{1}{4}$ D) $1\frac{1}{2}$ E)$\frac{2}{3}$

Yechilishi: 1) bu masalada chegaralar ham, integral ostidagi funksiya ham berilmagan;

2) berilgan ikki funksiya sistema qilib yechilib, a va b integral chegaralari topiladi:



$$\begin{cases} y = x^2 \\ y = 2x \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = y \\ x^2 = 2x \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow x^2 - 2x = 0 \Rightarrow$$

$$x(x-2) = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x = 0 \\ x = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a = 0; \\ b = 2; \end{cases}$$

3) ikki funksiya grafigi chiziladi;

4) integral ostidagi funksiyani hosil qilish uchun grafigi yuqorida joylashgan funksiyadan pastda joylashgani ayriladi:

$$S = \int_a^b (f(x) - g(x))\,dx = \int_0^2 (2x - x^2)\,dx.$$

Javobi: A.

(1997-9-36) $y = \frac{3}{\sqrt{x}}$, $y = 0$, $x = 1$ va $x = 4$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.

A) 6 B) 7 C) 5 D) 4 E) 2

Yechilishi: $y = \frac{3}{\sqrt{x}}$, $y = 0$, $x = 1$ va $x = 4$ chiziqlarning grafiklari chiziladi:

$$y = \frac{3}{\sqrt{x}} = \frac{3}{x^{\frac{1}{2}}} = 3 \cdot x^{-\frac{1}{2}};$$

$$y = \frac{3}{\sqrt{\frac{1}{4}}} = \frac{3}{\frac{1}{2}} = 6;$$



x	$\frac{1}{4}$	1	4	9
$y = \frac{3}{\sqrt{x}}$	6	3	1,5	1

$$S = \int_1^4 3 \cdot x^{-\frac{1}{2}}\,dx =$$

$$= 3 \cdot \int_1^4 x^{-\frac{1}{2}}\,dx =$$

$$= 3 \cdot \frac{x^{-\frac{1}{2}+1}}{-\frac{1}{2}+1}\Big|_1^4 = \frac{3 \cdot x^{\frac{1}{2}}}{\frac{1}{2}}\Big|_1^4 =$$

$$= 6\sqrt{x}\Big|_1^4 = 6\left[\sqrt{4} - \sqrt{1}\right] = 6(2-1) = 6\ kv\ birlik.$$

Javobi: A.

(1996-3-85) Rasmda ko‘rsatilgan parabola va $y = 0, x = 4$ to‘g‘ri chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.



A) 9 B) 8 C) 7 D) $\frac{28}{3}$ E) $\frac{31}{3}$

Yechilishi: 1) bu masalada integralning chegaralari $x = 1$ va $x = 4$ shakldan ko‘rinib turibdi.

2) integral ostiga qo‘yiladigan funksiyani shakldan foydalanib topiladi:

$x_1 = 1;\ x_2 = 5 \Rightarrow y = (x - x_1)(x - x_2) =$

$= (x - 1)(x - 5) = x^2 - 5x - x + 5 = \mathrm{x}^2 - 6x + 5;$

3) parabola pastga qaraganligi uchun x^2 ning oldi ″−„ bo‘lishi kerak. U holda

$$y = -x^2 + 6x - 5; \quad S = \int_1^4 (-x^2 + 6x - 5)\,dx.$$

Javobi: A.

(1996-3-53) $y = |x + 1|, x = -3, x = 0$ va $y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan figurani absissalar o‘qi atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan jismning hajmini toping.



A) π B) 2π

C) 3π D) 4π

E) 5π

Yechilishi: $V = V_1 + V_2;$

$V_1 = \frac{1}{3}\pi {R_1}^2 H_1 = \frac{1}{3}\pi \cdot 1^2 \cdot 1 = \frac{\pi}{3};$

$V_2 = \frac{1}{3}\pi {R_2}^2 H_2 = \frac{1}{3}\pi \cdot 2^2 \cdot 2 = \frac{8\pi}{3};$

$V = V_1 + V_2 = = \frac{\pi}{3} + \frac{8\pi}{3} = 3\pi.$

Javobi: C.

(1996-3-109) Rasmda ko‘rsatilgan figurani Ox o‘qi atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan jismning hajmini toping.



A) 25π B) 48π C) 35π D) 45π E) 30π

Yechilishi: $V = V_k + \frac{V_{sh}}{2}$;



$V_k = \frac{1}{3}\pi R^2 \cdot H =$

$= \frac{1}{3} \cdot \pi \cdot 3^2 \cdot 4 = 12\pi;$

$V_{sh} = \frac{4}{3}\pi R^3 =$

$= \frac{4}{3} \cdot \pi \cdot 3^3 = 36\pi;$

$\frac{V_{sh}}{2} = \frac{36\pi}{2} = 18\pi;$ $V = 12\pi + 18\pi = 30\pi.$ Javobi: E.

(1996-13-51)

Rasmda ko‘rsatilgan figurani Ox o‘qi atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan jism sirtining yuzini toping.



A) 120π B) 135π

C) 130π D) 132π

E) 133π

Yechilishi: $S = S_k + \frac{S_{sh}}{2}$;

$S = \pi Rl = \pi \cdot 6 \cdot 10 = 60\pi;$

$S_{sh} = 4\pi R^2 = 4\pi \cdot 6^2 =$

$144\pi;$

$\frac{S_{sh}}{2} = 72\pi;$

$S = 60\pi + 72\pi = 132\pi.$

Javobi: D.



(1996-11-36) $2y' = y$ tenglamaning yechimini toping.

A) $C\frac{e^x}{2}$ B)$Ce^{\frac{x}{2}}$ C)Ce^{2x} D) $2e^x$ E) e^x

Yechilishi: 1) hosila qatnashgan tenglamaga , differensial tenglama deyiladi:

$y' = \frac{1}{2}y$;

2) $y' = \frac{dy}{dx}$ – almashtirish olinadi;

$\frac{dy}{dx} = \frac{y}{2} \Rightarrow dy = \frac{1}{2}y \cdot dx \Rightarrow$

3) o‘zgaruvchilarni ajratish uchun, tenglikning ikkala tomoni y ga bo‘linadi:

$\Rightarrow \frac{dy}{y} = \frac{1}{2}dx \Rightarrow$

4) differensial tenglama integrallash orqali yechiladi:

$\Rightarrow \int \frac{dy}{y} = \frac{1}{2}\int dx \Rightarrow$

5) integraldan natural logarifm chiqsa, C o‘rniga $\ln C$ qo‘shiladi.

$\Rightarrow \ln y = \frac{1}{2} \cdot x + \ln C \Rightarrow \ln y - \ln C = \frac{x}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow \ln\frac{y}{C} = \frac{x}{2} \Rightarrow \frac{y}{C} = e^{\frac{x}{2}} \Rightarrow y = C \cdot e^{\frac{x}{2}}$;

6) differensial tenglamaning yechimi funksiya bo‘lar ekan.

Javobi: B.

Pirnazar DAVRONOV

To‘g‘ri chiziq

(1996-7-16) k ning qanday qiymatlarida $y = kx + 6$ funksiyaning grafigi $M(0{,}5;\ 4{,}5)$ nuqtadan o‘tadi?

A) 3 B) -3 C) -2 D) 4 E) -30

Yechilishi: $y = kx + 6$;

$M(0{,}5;\ 4{,}5) \Rightarrow 4{,}5 = k \cdot 0{,}5 + 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow 0{,}5k = -1{,}5 \Rightarrow k = -3.$ Javobi: B.

(1997-12-12) Agar $k > 0$ va $l < 0$ bo‘lsa, $y = kx + l$ funksiyaning grafigi qaysi choraklardan o‘tadi?

A) $I, II\ va\ IV$ B) $III\ va\ IV$ C) $II, III\ va\ IV$

D) $I, II\ va\ III$ E) $I, III\ va\ IV$

Yechilishi: $y = kx + l$;

$k > 0;\ \ l < 0;$

$I, III\ va\ IV.$

Javobi: E.



(1996-1-26) a ning qanday qiymatlarida $ax + 2y = 3$ va $2x - y = -1$ to‘g‘ri chiziqlar kesishadi?

A) $a = 0$ B) $a \neq 2$ C) $a \epsilon R$ D) $a \neq -4$ E) $a \neq -2$

Yechilishi: $\begin{cases} ax + 2y = 3; \\ 2x - y = -1; \end{cases}$ $\frac{a}{2} \neq \frac{2}{-1} \Rightarrow a \neq -4$. Javobi: D.

(1996-3-23) Grafigi rasmda tasvirlangan funksiyaning qiymatlari x ning qanday qiymatlarida manfiy bo‘lishini tengsizlik yordamida ifodlang.



A) $x > 0$ B) $x \geq 0$ C) $x \geq -1$
D) $x > -1$ E) $x \leq -1$
Yechilishi: $x > -1$.
Javobi: D.

(1996-3-30) $M(2;2)$ nuqtadan $y = x - 1$ to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan eng qisqa masofani toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) 2,5 C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $\frac{1}{4}$ E) 6,25

Yechilishi: $M(2;2) \Rightarrow x = 2; y = 2.$
u: $y = x - 1 \Rightarrow x - y - 1 = 0 \Rightarrow A = 1;$
$B = -1;\ C = -1;$
$\rho(M;u) = \left|\frac{2-2-1}{\sqrt{1^2+(-1)^2}}\right| = \left|\frac{-1}{\sqrt{2}}\right| = \frac{1}{\sqrt{2}} = \frac{\sqrt{2}}{2}.$ Javobi: C.

(1996 −9-77) a va b ning qanday qiymatlarida $ax + by = -4$ va $2x - 2y = 4$ to‘g‘ri chiziqlar ustma-ust tushadi?

A) $a = 2;\ b = -2$ B) $a = -2;\ b = 2$ C) $a = b = 2$
D) $a = 2;\ b = -1$ E) $a = 4;\ b = 2$

Yechilishi: $\begin{cases} ax + by = -4 \\ 2x - 2y = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} ax + by + 4 = 0 \\ 2x - 2y - 4 = 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{a}{2} = \frac{b}{-2} = \frac{4}{-4} \Rightarrow \frac{a}{2} = -1 \Rightarrow a = -2;\ \frac{b}{-2} = -1 \Rightarrow b = 2.$
Javobi: B.

(1996-10-27) a ning qanday qiymatlarida $ax + 2y = 4$ va $y - x = 4$ to‘g‘ri chiziqlar paralel bo‘ladi?

A) $a = 1$ B) $a = 2$ C) $a = -2$ D) $a \epsilon R$ E) $a = -1$

Yechilishi: $\begin{cases} ax + 2y = 4 \\ y - x = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} ax + 2y = 4 \\ -x + y = 4 \end{cases} \Rightarrow \frac{a}{-1} = \frac{2}{1} \Rightarrow$

$\Rightarrow a = -2.$ Javobi: C.

(1997-4-57) $A(2;1)$ va $B(1;2)$ nuqtalar berilgan. AB to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar va B nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

A) $x - y + 2 = 0$ B) $x + y + 2 = 0$ C) $x - y - 2 = 0$
D) $x - y + 1 = 0$ E) $x + y + 1 = 0$

Yechilishi: u to‘g‘ri chiziq tenglamasini topish uchun ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasiga asosan

$\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1} \Rightarrow \frac{x-2}{1-2} = \frac{y-1}{2-1} \Rightarrow x + y - 3 = 0.$

Bu to‘g‘ri chiziqning normal Vektori $\vec{n} = \{a; b\} = \{1; 1\}$ bo‘ladi. Bu vektor o‘z navbatida $B(1;2)$ nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqning yo‘naltiruvchi vektori bo‘ladi.

$\vec{U} = \{-b; a\} = \{-1; 1\}$

U holda $B(1;2)$ nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi $ax + by + c = 0 \Rightarrow 1 \cdot 1 - 1 \cdot 2 + c = 0 \Rightarrow c = 1.$

Demak, $x - y + 1 = 0.$

Javobi: D.

(1997-8-60) Rasmda $a = 4; b = 3$ va $c = 5$ bo‘lsa, OC to‘g‘ri chiziqni burchak koeffisientini toping.



A) $\frac{4}{3}$ B) $\frac{3}{5}$ C) $\frac{4}{5}$
D) $\frac{3}{4}$ E) $\frac{5}{4}$

Yechilishi: Misr uchburchagidan $\Rightarrow tg\alpha = \frac{3}{4} \Rightarrow k = \frac{3}{4}.$

Javobi: D.

Urinma to‘gri chiziq

(1996-1-29) $f(x) = 2x^2 - 1$ funksiya grafigiga absissasi $x_0 = 0$ bo‘lgan nuqtadan o‘tkazilgan urinma tenglamasini ko‘rsating.

A) $y = -1$ B) $y = 2$ C) $y = 2x + 1$

D) $y = 1$ E) $y = x - 1$

Yechilishi: $f(x) = 2x^2 - 1;\ \ y - y_0 = f'(x_0)(x - x_0);$ $x_0 = 0;$ 1) y_0 ni topish uchun berilgan funksiyadagi x ning o‘rniga x_0 qo‘yiladi. U holda y han y_0 ga aylanadi :

$y = 2x^2 - 1 \Rightarrow y_0 = 2{x_0}^2 - 1 \Rightarrow y_0 = 2 \cdot 0^2 - 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow y_0 = -1;$

2) $f(x)$ funksiyadan hosila olinadi

$f'(x) = 4x - 0 \Rightarrow f'(x) = 4x;$

3) $f'(x)$ hosiladagi x o‘rniga x_0 qo‘yiladi:

$f'(x_0) = 4x_0 \Rightarrow f'(0) = 4 \cdot 0 \Rightarrow f'(0) = 0;$

4) Topilgan y_0 va $f'(0)$ urinma tenglamasiga qo‘yiladi:

$y - y_0 = f'(x_0)(x - x_0) \Rightarrow$

$\Rightarrow y— 1 = f'(0)(x - 0) \Rightarrow$

$\Rightarrow y + 1 = 0 \Rightarrow y = -1.$

Javobi: A.

(1996-3-82) $y = \frac{x}{1-x}$ funksiyaning grafigiga absissasi $x_0 = 3$ bo‘lgan nuqtada o‘tkazilgan urinmaning OX o‘qi bilan tashkil etgan burchagi α bo‘lsa, $cos2\alpha$ ni toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{13}{17}$ C) $\frac{15}{17}$

D) $\frac{13}{16}$ E) $\frac{15}{16}$



Yechilishi: 1) funksiyadan hosila olinadi:

$y' = \frac{x' \cdot (1-x) - x \cdot (1-x)'}{(1-x)^2} =$

$\frac{1 \cdot (1-x) - x \cdot (0-1)}{(1-x)^2} = \frac{1}{(1-x)^2};$

2) hosiladagi x o‘rniga qiymati $x_0 = 3$ qo‘yiladi, natija burchak koeffisenti bo‘ladi;

$y'(3) = \frac{1}{(1-3)^2} = \frac{1}{4};$

3) Demak, $k = \frac{1}{4} = tg\alpha = \frac{1}{4} \Rightarrow \alpha = arctg\frac{1}{4} \Rightarrow$

$\Rightarrow cos2\alpha = cos2 \cdot arctg\frac{1}{4} = cos^2 arctg\frac{1}{4} -$

$sin^2 arctg\frac{1}{4} =$

$= (cosarctg\frac{1}{4})^2 - (sinarctg\frac{1}{4})^2 =$

$= \left[\frac{1}{\sqrt{1+\left(\frac{1}{4}\right)^2}}\right]^2 - \left[\frac{\frac{1}{4}}{\sqrt{1+\left(\frac{1}{4}\right)^2}}\right]^2 = \left(\frac{4}{\sqrt{17}}\right)^2 - \left(\frac{1}{\sqrt{17}}\right)^2 = \frac{15}{17}.$

Javobi: C.

(1997-2-46) $y = \ln x + x^2$ funksiyaning grafigiga $x_0 = \frac{1}{2}$ nuqtada o‘tkazilgan urinmaning burchak koiffisentini toping.

A) 3 B) 6 C) 4 D) 6,5 E) 3,5

Yechilishi: $y = \ln x + x^2$;

$f(x) = y = \ln x + x^2 \Rightarrow f'(x) = \frac{1}{x} + 2x \Rightarrow$

$\Rightarrow f'\left(\frac{1}{2}\right) = \frac{1}{\frac{1}{2}} + 2 \cdot \frac{1}{2} = 3 \Rightarrow k = tg\alpha = 3.$ Javobi: A.

(1997-4-29) $y = 3x^2 + 2x$ funksiya grafigiga absissasi $x_0 = -3$ nuqtada o‘tkazilgan urima OX o‘qining musbat yo‘nalishi bilan qanday burchak hosil qiladi?

A) $arctg3$ B) $\pi - arctg16$ C) $\pi - arctg3$

D) $-arctg16$ E) $60°$

Yechilishi: $y = 3x^2 + 2x$;

$y' = 6x + 2 \Rightarrow y'(-3) = 6 \cdot (-3) + 2 = -16 \Rightarrow$

$\Rightarrow k = -16;$

$tg\alpha = -16 \Rightarrow \alpha = arctg(-16) = \alpha = -arctg16.$

Javobi: D

(1996-1-36) Hech qaysi uchtasi bir to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan 7 ta nuqta berilgan. Shu 7 ta nuqtalar orqali nechta turli to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazish mumkin?

A) 28 B) 21 C) 42 D) 35 E) 14

Yechilishi: $\frac{n(n-1)}{2}$ formulaga asosan: $\frac{7(7-1)}{2} = 21.$

Javobi: B.

(1996-3-42) P(3;0) nuqtani koordinata boshi atrofida $90°$ ga burganda u qaysi nuqtaga o‘tadi?

A) (-3;0) B) (0;-3)

C) (3;3) D) (0;3) E) (3;-3)



Yechilishi: Chizmadan ko‘rinadiki

(3;0) nuqta (0;3) nuqtaga o‘tadi.

Javobi: D.

(1996-3-106) Oxz tekisligiga nisbatan (1;2;3) nuqtaga simmetrik bo‘lgan nuqtani toping.

A) (-1;2;3) B) (-1;-2;3) C) (1;2;-3)
D) (1;-2;3) E) (-1;-2;-3)

Yechilishi: Oxz da y qatnashmagan. y ning ishorasi o‘zgaradi. $(1;2;3) \Rightarrow (1;-2;3)$. Javobi: D.

(1996-9-41) Koordinatalar boshiga nisbatan (1;2;3) nuqtaga simmetrik nuqtani toping.

A) (-1;2;3) B) (-1;-2;3) C) (1;2;-3)
D) (1;-2;3) E) (-1;-2;-3)

Yechilishi: Koordinatalar boshiga nisbatan bo‘lsa, barcha koordinatalar ishoralari o‘zgaradi.

(1;2;3) ⇒(-1; -2; -3).

Javobi: E.

Kesmani berilgan nisbatda bo‘lish

(1996-3-41) Uchlari A(-3;2) va B(4;1) nuqtalarda bo‘lgan AB kesma o‘rtasining koordinatalarini toping.

A) (-0,5;1,5) B) (1,5;-0,5) C) (1,5;0,5)
D) (0,5;-1,5) E) (0,5;1,5)

Yechilishi: $x = \frac{x_1+x_2}{2} = \frac{-3+4}{2} = 0{,}5;$

$y = \frac{y_1+y_2}{2} = \frac{1+2}{2} = 1{,}5; C(0{,}5;1{,}5).$

Javobi: E.



Burchak

(1996-3-36) Qo‘shni burchaklarda biri ikkinchisidan 16° katta. Shu qo‘shni burchaklarni toping.

A) 16°; 164° B) 80°; 96° C) 148°; 32°

D) 82°; 92° E) 62°; 118°

Yechilishi: 1) Qo‘shni burchaklar yig‘indisining 180° ga tengligi e’tiborga olinadi.



$x + x + 16° = 180°;$

$2x = 180° - 16°;$

$2x = 164°;\quad x = 82°;$

$x + 16° = 82° + 16° = 98°.$

Javobi: D.

(1996-3-37) Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesisishidan hosil bo‘lgan qo‘shni burchaklarning gradus o‘lchovlari 2:3 nisbatda bo‘lsa, shu burchaklarni toping.

A)72°; 108° B) 60°; 120°

C) 30°; 150°

D) 50°; 130° E) 62°; 118°

Yechilishi: 2:3 nisbat berilgan bo‘lsa, ular x ga ko‘paytirilib, so‘ngra qo‘shilib, 180° ga tenglanadi.

$2x + 3x = 180° \Rightarrow 5x = 180° \Rightarrow$

$\Rightarrow x = 36° \Rightarrow \begin{cases} 2x = 2 \cdot 36° = 72°; \\ 3x = 3 \cdot 36° = 108°. \end{cases}$



Javobi: A.



(1996-3-91) $a \,//\, b$. $\alpha -?$

A) 30° B) 60° C) 45°

D) 40° E) 50°

Yechilishi: $x + 3x = 180° \Rightarrow x = 45°$;

$\alpha + x = 90° \Rightarrow \alpha = 90° - x = 90° -$

$-45° = 45°$.

Javobi: C.

(1996-3-92) α_3, α_4 va α_5 mos ravishda uchburchak, qavariq to‘rtburchak va beshburchak tashqi burchaklarining yig‘indilari. Quyidagi munosabatlardan qaysi biri o‘rinli?

A) $\alpha_3 < \alpha_4 < \alpha_5$ B)$\alpha_3 = \alpha_4 < \alpha_5$ C)$\alpha_3 < \alpha_4 = \alpha_5$

D)$\alpha_3 = \alpha_5 < \alpha_4$ E)$\alpha_3 = \alpha_4 = \alpha_5$

Yechilishi:







$\alpha_3 = \alpha_4 = \alpha_5 = 360°$. Javobi: E.

(1996-3-93) $OA = AB$

$\angle ABC -?$



A) 120° B) 150° C) 140° D) 135° E) 145°

Yechilishi: $OA = AB = R$, OB ⊥ BC .

Javobi: B.

(1996-9-88) Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishishidan hosil bo‘lgan uchta burchak yig‘indisi $265°$. Shu burchaklardan kattasini toping.

A) $110°$ B) $95°$ C) $105°$ D) $150°$ E) $145°$

Yechilishi: Vertikal burchaklar tengligi e’tiborga olinadi: $\alpha < \beta$;



$2\alpha + 2\beta = 360°$;

$\beta = 360° - 265° = 95°, \quad \alpha = 85.$

Javobi: B.

(1996-10-39) Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishidan hosil bo‘lgan qo‘shni burchaklarning ayirmasi $40°$ ga teng. Shu burchaklardan kichigini toping.

A) $60°$ B) $40°$ C) $50°$ D) $70°$ E) $45°$

Yechilishi: $\begin{cases} x - y = 40° \\ x + y = 180° \end{cases} \Rightarrow 2x = 220° \Rightarrow x = 110° \Rightarrow$

$\Rightarrow y = 180° - x = 180° - 110° = 70°.$ Javobi: D.

Qavariq ko‘pburchaklar

(1996-3-45) Har bir ichki burchagi $150°$ bo‘lgan qavariq ko‘pburchakning nechta tomoni bor?

A) 5 B) 7 C) 10 D) 12 E) 15

Yechilishi: Qavariq ko‘pburchakka doir masalalar $180°(n-2)$ formulaga tenglab yechiladi:

$150° \cdot n = 180°(n-2) \Rightarrow 150°n = 180°n - 360° \Rightarrow$

$\Rightarrow 30°n = 360° \Rightarrow n = 12.$ Javobi: D.

(1996-7-42) $\beta -$ muntazam sakkizburchakning ichki burchagi bo‘lsa, $ctg\beta$ ning qiymatibi toping.

A) $-\frac{1}{\sqrt{2}}$ B) -1 C) $-\frac{1}{\sqrt{3}}$ D) $-\sqrt{3}$ E) 1

Yechilishi: Muntazam bo‘lish uchun figuraning hamma tomonilari va hamma burchaklari bir-biriga teng bo‘lishi kerak:

$n = 8;\ 8\beta = 180°(8-2) \Rightarrow 8\beta = 180° \cdot 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow \beta = 135° \Rightarrow$

$\Rightarrow ctg135° = ctg(90° + 45°) = -tg45° = -1.$

Javobi: B.

(1996-9-93) Qavariq ko‘pburchak burchaklaridan ikkitasi to‘g‘ri, qolganlari o‘zaro 2:3:4 nisbatda. Beshburchakning katta burchagini toping.



A) 90° B) 120° C) 150° D) 110° E) 160°

Yechilishi:

$90° + 90° + 2x + 3x + 4x = 180°(5-2);$

$180° + 9x = 180° \cdot 3;$

$9x = 360° \Rightarrow x = 40°;\quad 4x = 4 \cdot 40° = 160°.$

Javobi: E.

(1996-11-46) Har bir ichki burchagi $135°$ bo‘lgan qavariq ko‘pburchakning nechta tomoni bor?

A) 5 B) 6 C) 8 D) 10 E) 12

Yechilishi: $135° \cdot n = 180°(n-2);$

$n = \frac{180°(n-2)}{135°} = \frac{4n-8}{3} \Rightarrow n = 8.$ Javobi: C.

(1996-12-93) Muntazam sakkiz burchakning tashqi burchagi necha gradus?

A) 40 B) 60 C) 72 D) 45 E) 35

Yechilishi: 1) $8\alpha = 180°(8-2) \Rightarrow 8\alpha = 180° \cdot 6 \Rightarrow$
$\Rightarrow \alpha = 135° \Rightarrow \beta = 180° - 135° = 45°;$
2) $\beta = \frac{360°}{8} = 45°.$ Javobi: D.

(1997-9-112) Muntazam o‘nsakkiz burchak ichki burchaklarining uchlanganligining kosinusini toping.

A) $-\frac{1}{2}$ B)$\frac{\sqrt{2}}{2}$ C)$\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) 0 E) 1

Yechilishi: $18\alpha = 180°(18-2) \Rightarrow 18\alpha = 180° \cdot 16 \Rightarrow$
$\Rightarrow \alpha = 160° \Rightarrow 3\alpha = 3 \cdot 160° \Rightarrow 3\alpha = 480° \Rightarrow$
$\Rightarrow cos3\alpha = cos480° = cos\left(3\pi - \frac{\pi}{3}\right) = -cos\frac{\pi}{3} = -\frac{1}{2}.$
Javobi: A.

(1996-6-39) Ikkita o‘xshash ko‘pburchak peremetrlarining nisbati 2:3 kabi. Katta ko‘pburchakning yuzi 27 bo‘lsa, kichik ko‘pburchakning yuzini toping.

A) 12 B) 18 C) 16 D) 14 E) 10

Yechilishi: 1) $\frac{p_1}{p_2} = k\ va\ \frac{S_1}{S_2} = k^2$ nisbatdan foydalaniladi.
2) Bunda kichikning nisbati kattaga qilib olinishi qulay.





$k = \frac{p_1}{p_2} = \frac{2}{3};\quad k^2 = \frac{S_1}{S_2} \Rightarrow \left(\frac{2}{3}\right)^2 = \frac{S_1}{27} \Rightarrow S_1 = 12.$
Javobi: A.

(1996-7-42) Ikkita o‘xshash uchburchaklarning yuzlari 6 va 24, ulardan birining perimetri ikkinchisidan 6 ga ortiq. Katta uchburchakning perimetrini toping.

A) 18 B) 12 C) 20 D) 8 E) 24

Yechilishi: Kattaning kichikka nisbati olinsa qulay:



$k^2 = \frac{24}{6} = 4 \Rightarrow k = 2;\ \ k = \frac{p_2}{p_1} \Rightarrow 2 = \frac{p_1+6}{p_1} \Rightarrow S_1 = 6$

$\Rightarrow 2p_1 = p_1 + 6 \Rightarrow p_1 = 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow p_2 = p_1 + 6 = 6 + 6 = 12 \Rightarrow$

$\Rightarrow p_2 = 12.$

Javobi: B.

Uchburchaklar

(1997-7-49) Bir nuqtadan tekislikka ikkita og‘ma o‘tkazilgan. Og‘malarning uzunliklari 2:1 kabi nisbatda, ularning proeksiyalari 7 va 1 ga teng.

A) 4 B) $5\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{2}$ D) 8 E) $\sqrt{15}$

Yechilishi: Ikkita to‘g‘ri burchakli uchburchakka keltirib yechiladi:

$\frac{a}{b} = \frac{2}{1} \Rightarrow a = 2b;$



$\begin{cases} h^2 = b^2 - 1^2 \\ h^2 = 0^2 - 7^2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} h^2 = h^2 \\ b^2 - 1^2 = a^2 - 49 \Rightarrow \end{cases}$

$\Rightarrow b^2-1=(2b)^2-49 \Rightarrow 4b^2-b^2=49-1 \Rightarrow$
$\Rightarrow 3b^2=48 \Rightarrow b^2=18 \Rightarrow h^2=16-1=15 \Rightarrow h=\sqrt{15}$.

Javobi: E.

(1996-9-33) a ning qanday qiymatlarida uzunliklari mos ravishda $1+2a, 1-a$ va 2 ga teng bo‘lgan kesmalardan uchburchak yasash mumkin?

A) $\emptyset$ B)$\left(-\frac{2}{3};0\right)$ C)$\left(0;\frac{2}{3}\right)$ D)$\left(-\frac{1}{2};0\right)$ E)$\left(-\frac{1}{2};1\right)$

Yechilishi: 1$\begin{cases}1-a>0\\2>0\\1+2a>0\end{cases}\Rightarrow$



$\Rightarrow \begin{cases}a<1\\a>-\frac{1}{2}\end{cases}\Rightarrow$  $\Rightarrow \left(-\frac{1}{2};1\right)$.

2) Uchburchak ikki tomoni yig‘indisini uchunchi tomondan katta.

$\begin{cases}1-a+2>1+2a\\2+1+2a>1-a\\1+2a+1-a>2\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}3a<2\\3a>-2\\a>0\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}a<\frac{2}{3}\\a>-\frac{2}{3}\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow$ 

1) va 2) dan $\left(0;\frac{2}{3}\right)$

Javobi: C.

Pirnazar DAVRONOV

(1996-9-34) $AC = 10\ sm, \quad AD = 6\ sm.$

$AB-?$



A) 9 B) 7 C) 6,5 D) 7,5 E) 8

Yechilishi: 1) Misr uchburchagidan 8 topiladi;

2) $6^2 = 8 \cdot x \Rightarrow x = \frac{36}{8} = 4{,}5;$

$a^2 = (8 + 4{,}5)^2 - 10^2 = 56{,}25;$

$a = 7{,}5.$ Javobi: D.

(1996-9-38)

AB||CD, OA=5 sm,

OB=4sm, OD=9sm

OC=?



A) 10,8 B) 10,5 C) 11,25 D) 11,3 E) 11

Yechilishi: 1)uchburchak biror tomoniga parallel to‘g‘ri chiziq chiziqlar bilan kesilsa, o‘xshash uchburchaklar hosil bo‘ladi.

Kattaning nisbati kichikka:

$\frac{CO}{AO} = \frac{DO}{BO} \Rightarrow \frac{CO}{5} = \frac{9}{4} \Rightarrow CO = 11{,}25.$ Javobi: C.

(1996-9-89) To‘g‘ri burchakli uchburchak gipotenuzasi 50 sm. Katta katetning gipotenuzadagi proyeksiyasi 32sm. Shu uchburchakning yuzini toping.

A) 1200 B) 576 C) 300 D) 600 E) 800

Yechilishi: Misr uchburchagidan foydalanish qulay: $S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot b = \frac{1}{2} \cdot 30 \cdot 40 = 600.$ Javobi: D.

(1997-9-89) $y = x^2 + 3x + 4$ funksiya grafigiga absissasi $x_0 = -2$ nuqtada o‘tkazilgan urima OX o‘qining musbat yo‘nalishi bilan qanday burchak hosil qiladi?

A) $135°$ B) $45°$ C) $70°$ D) $-arctg2$ E) $50°$

(1997-12-45) $y = \frac{1}{2}x^2 - \ln x$ funksiyaning grafigiga $x_0 = 2$ nuqtada o‘tkazilgan urinmaning burchak koiffisentini toping.

A) -2,5 B) 2 C) 1,75 D) 1,25 E) 1,5

(1996-9-26) a||b. x=?



A) 45° B) 40° C) 35°
D) 20° E) 36°

(1996-9-88) Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishidan hosil bo‘lgan uchta burchak yig‘indisi 265°. Shu burchaklardan kattasini toping.

A) 110° B) 95° C) 105° D) 150° E) 120°

(1996-12-92) a||b. $\alpha-$?



A) 120° B) 110°
C) 140° D) 160°
E) 150°

(1996-13-32) a||b. $\alpha-$?



A) 60° B) 45° C) 30°
D) 50° E) 35°

(1996-11-37) Qo‘shni burchaklardan biri ikkinchisidan 20° katta. Shu qo‘shni burchaklarni toping.

A) 160°; 20° B) 28°; 152° C) 20°; 160°
D) 140°; 40° E) 80°; 100°

(1996-11-38) Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishidan hosil bo‘lgan qo‘shni burchaklar 5:7 nisbatda bo‘lsa, shu burchaklarni toping.

A) 36°; 144° B) 75°; 105° C) 42°; 138°
D) 38°; 142° E) 85°; 95°

(1996-12-38) Qo‘shni burchaklardan biri ikkinchisidan $18°$ katta. Shu qo‘shni burchaklarni toping.

A) $82°; 98°$ B) $81°; 99°$ C) $80°; 100°$
D) $162°; 18°$ E) $98°; 82°$

(1996-12-39) Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishidan hosil bo‘lgan qo‘shni burchaklarning gradus o‘lchovlari 3:7 nisbatda bo‘lsa, shu burchaklarni toping.

A) $60°; 120°$ B) $30°; 150°$ C) $54°; 126°$
D) $62°; 118°$ E) $40°; 140°$

(1997-1-27) Ikki qo‘shni burchakning ayirmasi $24°$ ga teng. Shu burchaklardan kichigini toping.

A) $72°$ B) $68°$ C) $82°$ D) $76°$ E) $78°$

(1997-4-43) Qo‘shni burchaklardan biri ikkinchisidan to‘rt marta kichik bo‘lsa, shu burchaklardan kattasini toping.

A) $125°$ B) $130°$ C) $140°$ D) $144°$ E) $120°$

(1997-5-41) Burchakning bissektrissasi uning tomoni bilan $15°$ li burchak tashkil etsa, burchakning o‘zini toping.

A) $45°$ B) $30°$ C) $60°$ D) $90°$ E) $7{,}5°$

(1997-8-30) $216°$ ning radian o‘lchovini toping.

A) $\frac{4\pi}{3}$ B) $\frac{5\pi}{4}$ C) $\frac{3\pi}{2}$ D) $\frac{7\pi}{6}$ E) $\frac{6\pi}{5}$

(1997-12-30) $\frac{4\pi}{3}$ radian necha gradusga teng?

A) $230°$ B) $220°$ C) $250°$ D) $240°$ E) $210°$

(1997-6-27) Ikki to‘g‘ri chiziqning kesishidan hosil bo‘lgan burchaklarning kattaliklari nisbati 7:3 ga teng. Shu burchaklardan kichigini toping.

A) $63°$ B) $51°$ C) $57°$ D) $48°$ E) $54°$

(1997-9-41) Burchakning bissektrissasi uning tomoni bilan $45°$ li burchak tashkil etsa, burchakning o‘zini toping.

A) $22{,}5°$ B) $90°$ C) $60°$ D) $15°$ E) $35°$

(1997-11-27) Qo‘shni burchaklardan biri ikkinchisidan $32°$ ga katta. Shu burchaklardan kattasini toping.

A) $106°$ B) $118°$ C) $116°$ D) $114°$ E) $108°$

(1996-9-27) Qavariq beshburchak ichki burchaklari yig‘indisi necha gradus?

A) $900°$ B) $720°$ C) $540°$ D) $600°$ E) $500°$

(1996-12-48) Har bir ichki burchagi $120°$ bo‘lgan qavariq ko‘pburchakning nechta tomoni bor?

A) 6 B) 8 C) 10 D) 12 E) 15

(1996-12-33) Muntazam beshburchakning ichki burchagi necha gradus?

A) 135 B) 105 C) 102 D) 108 E) 120

(1997-3-42) α muntazam o‘n ikki burchakning ichki burchagi bo‘lsa, $sin\alpha$ ning qiymatini toping.

A) $-\frac{1}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $\frac{1}{2}$ E) $\frac{1}{\sqrt{2}}$

(1997-4-32) Muntazam sakkizburchakning ichki burchagining sinusini toping.

A) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $-\frac{1}{2}$ C) $-\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{1}{2}$ E) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

(1997-7-42) β muntazam oltiburchakning ichki burchagi. $tg\beta$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{1}{\sqrt{3}}$ B) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $-\sqrt{3}$ D) $-\frac{\sqrt{3}}{3}$ E) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

(1997-10-42) α muntazam sakkizburchakning ichki burchagi. $cos\alpha$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $-\frac{1}{\sqrt{2}}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ E) $-\frac{1}{\sqrt{3}}$

(1996-9-91) To‘g‘ri burchakli uchburchak katetlaridan biri 12 sm, ikkinchisi esa gipotenuzadan 8 sm qisqa. Shu uchburchak gipotenuzasini toping.

A) 15 B) 16 C) 25 D) 13 E) 29

(1996-10-40) To‘g‘ri burchakli uchburchak gipotenuzasi 10 sm, kichik katetning gipotenuzadagi proyeksiyasi esa 3,6 sm. Shu uchburchakning yuzi necha sm²?

A) 48 B) 24 C) 18 D) 32 E) 20,4

(1996-10-51) Tekislikka o‘tkazilgan perpendikulyar bilan og‘ma orasidagi burchak 60°, perpendikulyarning uzunligi esa 20 ga teng. Og‘maning uzunligini toping.

A) $20\sqrt{2}$ B) $10\sqrt{3}$ C) 40 D) $20\sqrt{3}$ E) $\frac{40}{\sqrt{3}}$

(1996-11-39) Bitta nuqtadan tekislikka og‘ma va perpendikulyar o‘tkazilgan. Og‘maning uzunligi 5, perpendikulyarniki 4 sm. Og‘maning tekislikdagi proyeksiyasi necha sm?

A) 2 B) 3 C) 2,5 D) 1 E) 3,5

(1996-12-18) Uchburchakning birinchi tomoni $x(x > 5)$ sm, ikkinchi tomoni undan 2 sm qisqa, uchinchi tomoni esa birinchisidan 3 sm uzun. Shu uchburchakning perimetrini toping.

A) $(3x - 1)\ sm$ B) $(3x + 2)\ sm$ C) $(3x - 2)\ sm$
D) $(3x + 3)\ sm$ E) $(3x + 1)\ sm$

(1996-12-35) Uchburchak ikkita burchagi yig‘indisining kosinusi $\frac{1}{2}$ ga teng. Uchinchi burchagining kosinusini toping.

A)$\frac{2}{3}$ B)$\frac{1}{3}$ C)$-\frac{1}{2}$ D)$\frac{1}{2}$ E)$-\frac{1}{3}$

(1996-12-40) Bitta nuqtadan tekislikka og‘ma va perpendikulyar o‘tkazilgan. Og‘maning uzunligi 5, perpendikulyarniki 3 sm. Og‘maning tekislikdagi proeksiyasini toping.

A) 2 B) $2\frac{1}{3}$ C) 1,5 D) 4 E) 2,5

(1996-12-41) Uchburchakning tomonlari 4; 5 va 6 m li tomonning 6 m li tomondagi proyeksiyasi necha m?

A) $2\frac{1}{5}$ B) $2\frac{1}{3}$ C) $3\frac{1}{2}$ D) $3\frac{3}{4}$ E) $3\frac{1}{4}$

(1996-12-47) Uchlari $A(-1;5), B(3;1)$ va $C(-1;3)$ nuqtalarda boo‘lgan A va B burchaklarini toping.

A)$60°; 30°$ B)$90°; 45°$ C)$30°; 45°$
D)$45°; 45°$ E) $45°; 90°$

(1996-12-50) ABC uchburchakda $AB = 3\ sm,\ AC = 6\ sm$ va $\angle A = 45°$. Shu uchburchakning yuzi necha sm².

A) $\frac{5\sqrt{2}}{2}$ B)$3\sqrt{2}$ C) $\frac{9\sqrt{2}}{2}$ D) $4\sqrt{2}$ E) $5\sqrt{2}$

(1996-12-51) α tekislik va uni kesib o‘tmaydigan $AB = 11\ sm$ kesma berilgan. Agar kesmaning uchlaridan α tekislikkacha bo‘lgan masofalar $AA_1 = 4\ sm,\quad BB_1 = 7\ sm$ bo‘lsa, AB kesma yotuvchi to‘g‘ri chiziqning α tekislik bilan tashkil qilgan burchak sinusini toping.

A) $\frac{3}{11}$ B)$\frac{4}{11}$ C)$\frac{5}{11}$ D)$\frac{6}{11}$ E)$\frac{7}{11}$

(1996-12-94) $AC = 5\ sm,$
$AD = 3\ sm.$
$AB = ?$



A)$3{,}5sm$ B)$3{,}75sm$ C)$4sm$ D)$3{,}8sm$ E)$3{,}9sm$

(1996-12-99) a ning qaday qiymatlarida uzuliklari mos ravishda $1+4a, 1-a$ va $2a$ ga teng bo‘lgan kesmalardan uchburchak yasash mumkin?

A) $\left(\frac{1}{2};0\right)$ B)$(0;1)$ C) $\emptyset$ D)$\left(-\frac{1}{2};0\right)$ E)$\left(-\frac{2}{3};0\right)$

(1996-12-100) $(AB)||(CD)$

$OA=5\ sm,\ OB=6\ sm,$

$AC=2\ sm,\ BD-?$



A) 2,4sm B) 2,5sm

C) 2,6sm D) 2,3sm E) 2,25sm

(1996-12-99) a ning qaday qiymatlarida uzuliklari mos ravishda $1+a, 1-a$ va 1,5 ga teng bo‘lgan kesmalardan uchburchak yasash mumkin?

A) $(-0{,}75;0{,}75)$ B)$(-0{,}5;0{,}5)$ C) $\emptyset$

D)$(-0{,}7;0{,}7)$ E)$(-0{,}4;0{,}4)$

(1996-12-100) $(AB)||(CD)$

$OB=6\ sm,\ BD=2{,}4\ sm,$

$AC=2\ sm,\ OA=?$



A) 5,5sm B) 5,2sm

C) 4,8sm D) 5sm E) 4,5sm

(1997-1-32) To‘g'ri urchakli uchburchak katetlari 15 va 20 ga teng.Katta katetning gipotenuzadagi proyeksiyasini toping.

A) 12 B) 14,5 C) 16 D) 16,5 E) 18

(1997-2-15) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to‘g'ri?

A) teng tomonli uchburchakning balandliklari kesisish nuqtasida 4:3 nisbatda bo‘ladi

B) ikkita to‘g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzalari va bittadan o‘tkir burchaklari bir-biriga teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar tengdir.

C) ikkita paralel to‘g'ri chiziqni uchinchi to‘g'ri chiziq bilan kesganda hosil bo‘lgan ichki bir tomonli burchaklar yig'indisi $180°$ dan kichik

D) ikkitadan tomoni bittadan burchagi o‘zaro teng bo‘lgan burchaklar o‘zaro tengdir

E) teng yonli uchburchakning balandliklari hamda medianalari bir nuqtada kesishadi

(1997-3-49) Bir nuqtadan tengsizlikka uzunliklari 23 va 33 bo‘lganikkita og'ma tushirilgan. Agar og'malar proyeksiyalarining nisbati 2:3 kabi bo‘lsa, berilgan nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofani toping.

A) 12 B) $6\sqrt{5}$ C) 11 D) 9 E) $6\sqrt{2}$

(1997-2-26) Rasmda $\angle C = 90°, CD \perp AB, CA = 6$ va $AB = 10$. AD ning uzunligini toping.



A) 4 B) 3,6 C) 4,2 D) 3,4 E) 3,8

(1997-2-39) ΔABC ning tomonlari $MN||AC$ to‘g'ri chiziq bilan kesildi. ABC va MBN uchburchaklarning peremetrlari 3:1 nisbatda. ABC uchburchakning yuzi 144 ga teng. MBN uchburchakning yuzini toping.

A) 16 B) 48 C) 32 D) 64 E) 56

(1997-3-46) Peremetrlari 24 va 36 bo‘lgan ikki o‘xshash uchburchakdan birining yuzi ikkinchisidan 10 ga ortiq. Kicik uchburchakning yuzini toping.

A) 20 B) 16 C) 8 D) 12 E) 18

(1996-1-47) Uchburchakning a va b tomonlari orasidagi burchak α ga teng. Uchburchak yuzasi quyidagilarning qaysi biriga teng.

A) $absin\alpha$ B)$\frac{ab}{2sin\alpha}$ C)$\frac{absin\alpha}{2}$

D) $2abcos\alpha$ E) $\frac{1}{2}abcos\alpha$

(1996-1-49) Tekislikka o‘tkazilgan perpendikulyar bilan og‘ma orasidagi burchak $30°$ perpendikulyarning uzunligi esa 10 ga teng. Og‘maning uzunligini toping.

A) 20 B)$10\sqrt{3}$ C) $20\sqrt{3}$ D) $\frac{20}{\sqrt{3}}$ E) $20\sqrt{2}$

(1996-3-17) Uchburchakning birinchi tomoni $x(x > 5)sm$, ikkinchi tomoni undan 3 sm qisqa, uchinchi tomoni esa birinchisidan 2 sm uzun. Shu uchburchakning perimetrini toping.

A) $(3x + 1)\ sm$ B)$(3x + 5)\ sm$ C)$(3x - 1)\ sm$

D)$(3x + 2)\ sm$ E)$(3x - 3)\ sm$

(1996-3-38) Bitta nuqtadan tekislikka og‘ma va perpendikulyar o‘tkazilgan. Og‘maning uzunligi 10, perpendikulyarniki 6 sm. Og‘maning tekislikdagi proeksiyasi necha sm?

A) 4 B) 2 C) 8 D) 5 E) 3

(1996-3-39) Uchburchakning tomonlari 4; 5 va 6 sm. 4 sm li tomonning 6 sm li tomondagi proeksiyasi necha sm?

A) $1\frac{1}{4}$ B) $1\frac{1}{2}$ C) $2\frac{1}{4}$ D) $2\frac{1}{2}$ E) $3\frac{1}{2}$

(1996-3-47) ABC uchburchakda $AB = 5\ sm,\ AC = 10\ sm$ va $\angle A = 45°$. Shu uchburchakning yuzi necha sm^2.

A) $\frac{5\sqrt{2}}{2}$ B) $10\sqrt{2}$ C) $50\sqrt{2}$ D) $25\sqrt{2}$ E) $25\frac{\sqrt{2}}{2}$

(1996-3-49)) α tekislik va uni kesib o‘tmaydigan $AB = 13\ sm$ kesma berilgan. Agar kesmaning uchlaridan α tekislikkacha bo‘lgan masofalar $AA_1 = 5\ sm, BB_1 = 8sm$ bo‘lsa, AB kesma yotuvchi to‘g‘ri chiziqning α tekislik bilan tashkil qilgan burchak sinusini toping.

A) $\frac{5}{13}$ B)$\frac{8}{13}$ C)$\frac{2}{13}$ D)$\frac{3}{13}$ E)$\frac{4}{13}$

(1996-3-55) Uchburchak ikkita burchagi yig‘indisining kosinusi $\frac{1}{3}$ ga teng. Uchinchi burchagining kosinusini toping.

A) $\frac{2}{3}$ B)$\frac{\pi}{3}$ C)$\frac{1}{3}$ D)$-\frac{2}{3}$ E) $\frac{4}{3}$

(1996-3-94) $h-?$



A) 2 B) 3

C)$\frac{7}{5}$ D)$\frac{12}{5}$

E) 2,5

(1996-3-95) $sin\alpha-?$

A) $\frac{\sqrt{135}}{16}$ B)$-\frac{\sqrt{135}}{16}$



C)$\frac{\sqrt{53}}{8}$ D)$-\frac{\sqrt{53}}{8}$ E)$\frac{\sqrt{47}}{8}$

(1996-3-97) a $\left(-1 < a < \frac{1}{2}\right)$ ning qanday qiymatlarida uzunliklari mos ravishda $1 + a,\ 1 - 2a$ va 2 ga teng bo‘lgan kesmalardan uchburchak yasash mumkin.

A) $(-1; 0)$ B)$\left(0; \frac{1}{2}\right)$ C)$\left(-\frac{1}{3}; 0\right)$

D)$\left(-\frac{1}{3}; \frac{1}{3}\right)$ E)$\left(-\frac{2}{3}; 0\right)$

(1996-3-98) $(AB)||(CD)$

$OA = 3\ sm,\ OB = 4\ sm,$

$AC = 1{,}5\ sm,\ \ BD - ?$



A) 3 sm B) 2 sm C) 2,5 sm

D) 2,1 sm E) 2,6 sm

(1996-6-40) Uchburchakning tomonlari a, b va c ga teng. Bu uchburchakning tomonlari orasida $a^2 = b^2 + c^2 + bc$ munosabat o‘rinli bo‘lsa, uzunligi a ga teng tomon qarshisidagi burchakni toping.

A) 60° B) 150° C) 120° D) 90° E) 135°

(1996-7-36) Uchburchakning ikkita burchagi qiymatlarining nisbati 1:2 kabi. Uchinchi burchagi shu burchaklarning kichigidan 40° ga katta. Uchburchakning katta burchagini toping.

A) 102° B) 93° C) 75° D) 80° E) 105°

(1996-1-40) To‘g‘ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 25 sm, katetlari esa o‘zaro 3:4 nisbatda. Shu uchburchakning kichik katetini toping.

A) 10 B) 12 C) 9 D) 15 E) 20

(1996-6-15) Quyidagi mulohazalarning qaysi biri to‘g‘ri?

A) ixtiyoriy uchburchakning bissektrissalari kesisish nuqtasida 1:2 nisbatda bo‘linadi.

B) ikkitadan tomoni va bittadan burchagi o‘zaro teng bo‘lgan uchburchaklar tengdir.

C) o‘tmas burchakli uchburchakning o‘tkir burchagi uchidan tushirilgan perpindikulyar uchburchakning ichida yotadi.

D) asosi va uchidagi burchagi o‘zaro teng bo‘lgan teng yonli uchburchaklar tengdir.

E) Qo‘shni burchaklarning yig‘indisi $120°$ dan katta.

(1996-6-30) Tomonlari 10; 8 va 6 bo‘lgan uchburchakning katta tomoniga o‘tkazilgan medianasini toping.

A) 7 B) 6 C) 12 D) 14 E) 8

(1996-7-38) To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri 12, gipotenuzasi esa ikkinchi katetdan 6 ga ortiq. Uchburchakning yuzini toping.

A) 36 B) 40 C) 42 D) 54 E) 60

(1997-3-36) Uchburchak ikkita burchagining qiymatlari nisbati 3:4 kabi, uchinchisi esa shu burchaklarning kattasidan $4°$ ga katta. Uchburchakning katta burchagini toping.

A) $84°$ B) $68°$ C) $96°$ D) $64°$ E) $72°$

(1997-3-38) Katetlarining nisbati 2:3 kabi bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 12 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

A) $5\sqrt{13}$ B) 24 C) 39 D) 36 E)$6\sqrt{13}$

(1997-3-39) Teng yonli uchburchakning yon tomoni 3 ga, uchidagi burchagi $120°$ ga teng. Shu uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.

A) 1,5 B) $2\sqrt{3}$ C) 3 D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ E) 1

(1997-4-48) Rasmdagi muntazam ABC uchburchakning perimetri 3 ga teng. Agar $AB_1 = 2AB$ va $AC_1 = 2AC$ bo‘lsa, AB_1C_1uchburchakning perimetrini toping.



A) 5 B) 6 C) 7 D) 8 E) 9

(1997-4-45) To‘g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasining shu gipotenuzaga tushirilgan medianaga nisbatini toping.

A) 3 B) 4 C) 2,5 D) 2 E) 1,5

(1997-4-46) Uchburchak ikki burchagi yig'indisining sinusi $\frac{1}{3}$ bo‘lsa, uchinchi burchagining sinusini toping.

A) $\frac{2}{3}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{1}{4}$ D) $\frac{3}{4}$ E) $\frac{1}{2}$

(1997-4-54) Rasmdagi ABC uchburchakda $AB = 8$ va $AD = 2$ bo‘lsa, ABC va DBE uchburchaklar yuzlarining nisbatini toping.



A) 2 B) $2\frac{1}{5}$ C) $1\frac{5}{7}$ D) $1\frac{7}{9}$ E) $1\frac{8}{9}$

(1997-5-43) Agar uchburchakning A, B va C burchaklari 1;2 va 3 sonlariga proporsional bo‘lsa, B burchakni toping.

A) 30° B) 60° C) 90° D) 45° E) 120°

(1997-5-45) Teng yonli uchburchakning balandligi 4 ga , asosi 6 ga teng. Uning yon tomonini toping.

A) 5,5 B) 7 C) 5 D) 9 E) 4,5

(1997-5-49) To‘g'ri burchakli uchburchakning kateti 2 ga, bu katet qarshisidagi burchak $60°$ ga teng. Shu uchburchakning gipotenuzasini toping.

A) 4 B) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$ C) $2\sqrt{3}$ D) $\sqrt{3}$ E) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

(1997-5-52) Nuqtadan tekislikka ikkita og'ma o‘tkazilgan. Agar og'malar 1:2 ga teng nisbatda bo‘lib, ularning proeksiyalari 1 va 7 ga teng bo‘lsa, og'malarning uzunligini toping.

A) 2; 4 B) 3;6 C) 4; 8 D) 5; 10 E) 1; 2

(1997-8-38) Ikkita o‘xshash ko‘pburchak yuzlarining nisbati 9:4 ga teng. Kichik ko‘pburchakning perimetri 4 sm. Katta ko‘pburchakning perimetrini toping.

A) 9 B) 8 C) 6 D) 4 E) 10

(1997-8-39) Uchburchak tomonlarining uzunliklari a, b va c tomonlari orasida $a^2 = b^2 + c^2 + \sqrt{3}bc$ tenglikni qanoatlantiradi. Uzunligi a ga teng tomon qarshisidagi burchakni toping.

A) $135°$ B) $140°$ C) $125°$ D) $150°$ E) $120°$

(1997-11-29) Teng yonli uchburchakning yon tomoni 25 ga teng. Asosiga tushirilgan balandligi asosidan 25 ga kam. Shu uchburchakning asosini toping.

A) 44 B) 30 C) 35 D) 40 E) 48

(1997-10-36) Uchburchakning ikkita burchagining kattaliklari nisbati 3:2 ga teng. Uchinchi burchagi shu burchaklarning kattasidan $60°$ ga kichik. Uchburchakning kichik burchagini toping.

A) $50°$ B) $45°$ C) $40°$ D) $30°$ E) $15°$

(1997-10-38) Uchburchakning katetlaridan biri 6 ga teng, ikkinchisi gipotenuzadan 2 ga kam. Uchburchakning yuzini toping.

A) 24 B) 18 C) 15 D) 12 E) 30

(1997-10-29) Bir nuqtadan tekislikka uzunliklari 4 va 8 bo‘lgan ikkita og'ma tushirilgan. Og'malar proeksiyalarining nisbati 1:7 ga teng. Berilgan nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofani toping.

A) 3 B) $2\sqrt{3}$ B) $\sqrt{15}$ D) 2,5 E) 1,8

(1997-10-45) Katelarining nisbati 2:3 bo‘lgan tog'ri burchakli uchburchak balandligi gipotenuzasini uzunliklaridan biri 2 ga kam bo‘lgan bo‘laklarga ajratadi. Gipotenuzaning bo‘laklarini toping.

A) 2 va 4 B) 5 va 3 C) 0,9 va 3,9 D) 1,6 va 3,6 E) 2,8 va 4,8

(1997-12-39) Uchburchakning a, b va c tomonlari orasida $a^2 = b^2 + c^2 - \sqrt{3}bc$ bog'lanish mavjud. Uzunligi a ga teng tomon qarshisidagi burchakni toping.

A) $60°$ B) $45°$ C) $150°$ D) $135°$ E) $30°$

(1997-12-14) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto‘g'ri?

A) Agar ikkita uchburchakning balandliklari teng bo‘lsa, bu uchburchaklar tengdir.

B) Agar ikki to‘g'ri chiziqni uchinchi to‘g'ri chiziq kesib o‘tganda bir tomondagi tashqi burchaklar yigindisi $180°$ ga teng bo‘lsa, bu ikki to‘g'ri chiziq paraleldir.

C) To‘g'ri chiziqdan tashqarida yotgan nuqtadan bu to‘g'ri chiziqqa faqat bitta perpendikulyar to‘g'ri chiziq o‘tqazish mumkin.

D) Uchburchakning barcha tashqi burchaklari yig'indisi $180°$ ga teng.

E) Agar ikki uchburchakning uch tomoni ikkinchi uchburchkning uch tomoniga mos ravishda teng bolsa, bu uchburchaklar tengdir.

(1997-8-18) Teng yonli uchburchakning uchidagi burchagi $80°$ ga teng. Yon tomonga o‘tkazilgan balandlik va asosi orasidagi burchakni toping.

A) $35°$ B) $45°$ C) $30°$ D) $40°$ E) $50°$

(1997-8-29) Muntazam uchburchakning bissektrissasi 21 ga teng. Bu uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusini toping.

A) 10 B) 12 C) 7 D) 8 E) 14

(1997-8-15) Quyidagi munosabatlardan qaysi biri noto‘g'ri?

A) Teng tomonli uchburchakning balandliklari kesisish nuqtasida 2:1 nisbatda bo‘ladi

B) Agar ikkita teng yonli uchburchakning asoslari va asoslaridagi burchaklari teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar tengdir

C) Qavariq beshburchakning ichki burchaklarining yig'indisi $540°$ ga teng

D) Ikki qo‘shni burchakning yig'indisi $180°$ ga teng

E) Agar bir uchburchakning bir tomoni va shu tomon qarshisidagi burchagi ikkinchi uchburchakning bir tomoni va shu tomon qarshisidagi burchagiga mos ravishda teng bo‘lsa, bu uchburchaklar tengdir

(1997-7-36) Uchburchak ikkita burchagining qiymatlari nisbati 5:9 kabi, uchinchi burchagi shu burchaklarning kichigidan $10°$ ga kichik. Uchburchakning eng kichik burchagini toping.

A) $30°$ B) $40°$ C) $45°$ D) $50°$ E) $20°$

(1997-7-45) Gipotenuzasi 50 ga teng bo‘lgan to‘g'ri burchakli uchburchakning katetlari nisbati 4:3 ga teng. Gipotenuzaga tushirilgan balandlik uni qanday kesmalarga ajratadi?

A) 20 va 30 B) 15 va 35 C) 18 va 32

D) 12 va 38 E) 14 va 36

(1997-7-46) Ikkita o‘xshash uchburchakning perimetrlari 18 va36 ga, yuzlarining yig'indisi 30 ga teng. Katta uchburchakning yuzini toping.

A) 20 B) 24 C) 21 D) 18 E) 25

(1997-7-49) Bir nuqtadan tekislikka ikkita og'ma tushirilgan. Agar og'malar uzunliklarining nisbati 5:6 ga, og'malarga mos proeksiyalarining uzunliklari 4 va $3\sqrt{3}$ ga teng bo‘lsa, berilgan nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofani toping.

A) 2,5 B) 3 C) $2\sqrt{3}$ D) 1,8 E) $3\sqrt{2}$

(1997-6-73) Uchburchakning burchaklari qiymatlari 1:2:3 nisbatda, katta tomoni $4\sqrt{3}$ ga teng. Uchburchakning perimetrini toping.

A) $8+3\sqrt{3}$ B) $3(2+\sqrt{3})$ C) $11\sqrt{3}$

D) $9+4\sqrt{3}$ E) $6+6\sqrt{3}$

(1997-6-75) Uchburchakning bir tomoni 17 ga unga yopishgan burchaklari $103°$ va $47°$ ga teng. Uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

A) 8,5 B) $8{,}5\sqrt{3}$ C) $17\sqrt{2}$ D) 17 E) $17\sqrt{3}$

(1997-6-66) ABC muntazam uchburchakning AC tomoni orqali α tekislik o‘tkazilgan. Uchburchakning BD balandligi tekislik bilan $30°$ li burchak tashkil etadi. AB to‘g'ri chiziq bilan tekislik orasidagi burchak topilsin.

A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{4}$ C) $\frac{1}{2}$ D) $\frac{1}{4}$ E) tog'ri javob yo‘q

(1997-6-67) ABC uchburchakning tog'ri burchakli uchi C dan uchburchakka perpendikulyar $''a„$ to‘g'ri chiziq o‘tkazilgan. AC=15, BC=20. a va A to‘g'ri chiziqlar orasidagi masofa topilsin.

A) 10 B) 12 C) 16 D) 20 E) 12,5

(1997-6-29) Balndligi 6 ga teng bo‘lgan teng yonli uchburchakning asosi yon tomonidan 6 ga ortiq. Uchburchakning asosini toping.

A) 16 B) 15 C) 18 D) 24 E) 20

(1997-9-54) To‘g'ri burchakli uchburchak to‘g'ri burchagining bissektrissasi gipotenuzani 1:5 nisbatda bo‘ladi?

A) 25:1 B) 1:25 C) 1:5 D) 5:1 E) 1:6

(1997-9-55) Tomoni 84 bo‘lgan teng tomonli uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.

A) $25\sqrt{3}$ B) $28\sqrt{3}$ C) $26\sqrt{3}$ D) $42\sqrt{3}$ E) $24\sqrt{3}$

(1997-6-33) Uchburchak burchaklarning kattaliklari nisbati 2:3:1 kabi, kichik tomoning uzunligi es 5 ga teng. Uchburchakning katta tomoni uzunligini toping.

A) 13 B) 25 C) 10 D) $5\sqrt{2}$ E) $12\sqrt{3}$

(1997-6-34) Teng yonli uchburchakning burchagi β ga, asosiga tushirilgan balandligi m ga teng.Uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandligini toping.

A) $2msin\frac{\beta}{2}$ B) $mcos\frac{\beta}{2}$ C) $2mcos\beta$

D) $mtg\beta$ E) $msin\frac{\beta}{2}$

(1997-9-57) Uchburchakning ikkita tomoni 0,5 va 7,9 ga teng. Uchinchi tomonining uzunligi butun son ekanligini bilgan holda shu tomonni toping.

A) 8 B) 7 C) 6 D) 5 E) 4

(1997-9-51) AB kesmaning A oxiridan tekislik o‘tkazilgan. Shu kesmaning B oxiridan va C nuqtasidan tekislikni B_1 va C_1 nuqtalarda kesuvchi paralel to‘g'ri chiziqlar o‘tkazilgan.

Agar AB=8 $CC_1 : AC = 3:4$ bo‘lsa, BB_1 kesmaning uzunligini toping.

A) 3 B) 5 C) 4 D) 6 E) 8

(1997-9-52) Nuqtadan tekislikka ikkita og'ma o‘tkazilgan. Og'malar 3:5 ga teng nisbatda bo‘lib, ularning proeksiyalari $\sqrt{33}$ va 17 ga teng. Og'malarning uzunligini toping.

A) 2;10 B) 3;5 C) 3;15 D) 5;25 E) 12;20

(1997-9-43) Agar uchburchakning burchaklari 5, 6 va 7 sonlariga proporsional bo‘lsa, uchburchakning katta burchagini toping.

A) $75°$ B) $80°$ C) $50°$ D) $40°$ E) $70°$

(1997-9-45) Teng yonli uchburchakning asosi 48 ga, unga tushirilgan balandligi 7 ga teng. Uchburchakning yon tomonini toping.

A) 25 B) 27 C) 18 D) 19 E) 15

(1997-9-49) To‘g'ri burchakli uchburchakning bitta kateti 2 ga, bu katet qarshisidagi burchak $60°$ ga teng. Ikkinchi katetni toping.

A) $\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{2}$ C) $\frac{2\sqrt{3}}{3}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ E) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

(1997-9-108) Rasmdagi ABCD kvadratning A uchidan AE va EF to‘g'ri chiziqlar, Cuchidan esa BD dioganalga paralel bo‘lgan CF to‘g'ri chiziq o‘tkazilgan. Agar kvadrating yuzi 3 ga teng bo‘lsa, AFE uchburchak yuzini toping.



A) 5 B) 6 C) 7 D) 9 E) 8

(1997-9-106) Uchburchak ikki burchagi yig'indisining kotangensi $\frac{1}{6}$ bo‘lsa, uchinchi burchagining kotangensini toping.

A) $\frac{1}{6}$ B)$\frac{1}{4}$ C)$\frac{1}{5}$ D)$-\frac{1}{6}$ E)$-\frac{1}{4}$

(1997-11-34) Teng yonli uchburchakning asosi a ga, uchidagi burchagi α ga teng. Uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandligini toping.

A) $\frac{a}{2sin\frac{\alpha}{2}}$ B) $\frac{acos\frac{\alpha}{2}}{2}$ C) $asin\frac{\alpha}{2}$ D) $\frac{atg\frac{\alpha}{2}}{2}$ E) $acos\frac{\alpha}{2}$

(1997-11-32) To‘g'ri burchakli uchburchakning katetlari 24 va 7 ga teng. Kichik katetning gipotenuzadagi proeksiyasini toping.

A) $3\frac{2}{7}$ B) 5 C) $2\frac{4}{25}$ D) $1\frac{24}{25}$ E)3

(1996-9-100) Parallelogrammning tomonlari a va b ga, o‘tmas burchagi α ga teng. Parallelogrammning yuzini hisoblash uchun quyidagi ifodalardan qaysi biri to‘g'ri?

A) $abcos\alpha$ B)$\frac{1}{2}abcos\alpha$ C) $absin\alpha$

D)$\frac{ab}{2sin\alpha}$ E)$\frac{1}{2}absin\alpha$

(1996-12-106) $ABCD$ parallelogrammda $AD||BC,\ S_{ABCD}=12sm^2$.
$DB=4sm,\ \ AB=?$



A) 6cm B) 7 sm C) 5,5sm D) 5sm E) 6,5sm

(1996-12-106) $ABCD$ parallelogrammda $AD||BC,\ S_{ABCD}=12sm^2$.
$DB=4sm,\ \ AB=?$



A) 6cm B) 7 sm C) 5,5sm D) 5sm E) 6,5sm

(1997-7-48) Ikkita burchagi yig'indisi 100° ga teng bo‘lgan parallelogrammning katta burchagini toping.

A) 100° B) 110° C) 120° D) 130° E) 150°

(1997-3-44) Parallelogrammning burchklaridan biri 150° ga teng. Uning 6 ga teng bo‘lgan diagonali tomoniga perpendikulyar. Parallelogrammning perimetrini toping.

A) 36 B) 48 C)$12(2+\sqrt{3})$ D) 36 E) $36\sqrt{3}$

(1997-11-30) Perimetri 60 ga teng bo‘lgan parallelogrammning tomonlar nisbati 2:3 ga, o‘tkir burchagi esa 30° ga teng. Parallelogrammning yuzini toping.

A) 108 B) 54 C) 96 D) $48\sqrt{3}$ E) $54\sqrt{3}$

(1997-10-44) Burchaklaridan biri 45° bo‘lgan parallelogrammning 4 ga teng diagonali tomoniga perpendikulyar. Parallelogrammning perimetrini toping.

A)32 B)$8(1+\sqrt{2})$ C)$16\sqrt{2}$ D)$4+8\sqrt{2}$ E)24

(1997-5-50) Kvadratni tomoni necha marta kamaytirilsa yuzi 4 marta kichrayadi?

A) 1,5 B) 2 C) 2,5 D) 3 E) 3,5

(1997-9-1) To‘g'ri to‘rtburchakning eni 5 ga teng, bo‘yi undan 7 ga ortiq. To‘g'ri to‘rtburchakning perimetrini toping.

A) 32 B) 34 C) 24 D) 26 E) 30

(1996-10-43) To‘rtburchakning burchaklaridan biri to‘g'ri burchak, qolganlari esa o‘zaro 4: 2: 3 nisbatda. To‘rtburchakning kichik burchagini toping.

A) 30° B) 45° C) 50° D) 60° E) 80°

(1997-9-1) To‘g'ri to‘rtburchakning eni 7 ga teng, bo‘yi undan 3 ga ortiq. To‘g'ri to‘rtburchakning perimetrini toping.

A) 22 B) 20 C) 34 D) 30 E) 32

(1997-7-63) 18 ta gugurt cho‘pidan ularni sindirmay eng katta yuzali to‘g'ri to‘rtburchak yasalgan. Shu to‘g'ri to‘rtburchakning yuzini toping.

A) 16 B) 20 C) 24 D) 28 E) 30

(1996-7-48) Rombning diagonali tomoni bilan $25°$ li burchak tashkil qiladi. Rombning katta burchagini toping.

A) $165°$ B) $150°$ C) $130°$ D) $120°$ E) $115°$

(1996-9-40) Tomoni 4 sm bo‘lgan rombga ichki chizilgan aylananing radiusi 1 sm. Rombning o‘tkir burchagi kosinusini toping.

A) $\frac{1}{4}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{4}$ E) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

(1997-10-48) Romb diagonallarining tomonlari bilan hosil qilgan burchaklari kattaliklarining nisbati 2:7 ga teng. Rombning kichik burchagini toping.

A) $20°$ B) $30°$ C) $40°$ D) $60°$ E) $70°$

(1997-3-47) Rombning yuzi 24 ga, diagonallaridan biri 6 ga teng.Uning tomonini toping.

A) 10 B) 5 C) 8 D) 4,8 E) 6

(1996-9-95) Trapetsiyaig kichik asosi 4 sm. O‘rta chizig'i katta asosidan 4 sm qisqa. Trapetsiyaining o‘rta chizig'ini toping.

A) 6 B) 10 C) 8 D) 9 E) 12

(1996-10-46) Teng yonli trapetsiyaning asoslari 6 va 18 ga, diagoallarining kesishish nuqtasida diagonal qanday uzunlikdagi kesmalarga ajraladi?

A) 4 va 8 B) 3va 9 C) 2 va 10

D) 5va7 E) 3,5 va8,5

(1996-11-49) Rasmda berilgan trapetsiyaning yuzini toping (AD//BC) .



A) $4\sqrt{2}$ B) $6\sqrt{2}$ C) $5\sqrt{2}$ D) $\frac{5\sqrt{2}}{2}$ E) $2\sqrt{2}$

(19997-3-43) Teng yonli trapetsiyaning asoslari10 va 20 ga, asosidagi burchagi $60°$ ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.

A) $500\sqrt{3}$ B) $75\sqrt{3}$ C) $25\sqrt{3}$ D) $\frac{250\sqrt{3}}{3}$ E) 150

(1997-7-43) Teng yonli trapetsiyaning asoslari 16 va 8 ga, o‘tmas burchagi $150°$ ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.

A) $32\sqrt{3}$ B) $\frac{68}{\sqrt{3}}$ C) $16\sqrt{3}$ D) $\frac{34\sqrt{3}}{3}$ E) 34

(1997-6-38) Teng yonli trapetsiyaning asoslari 4,2 va 5,4 ga, kichik asosining burchagi esa $135°$ ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.

A) 24,8 B) 9,6 C) 16,8 D) 4,8 E) 2,88

(1997-9-47) Trapetsiyada MN o‘rta chiziq, $AB = 13, CD = 7$ va $\overrightarrow{DC} = \gamma\overrightarrow{MN}$ bo‘lsa, γ nimaga teng?



A) 0,6 B) -0,6 C) 0,7 D) -0,7 E) 0,8

(1997-9-11) Rasmdagi BCD teng yonli uchburchakning BCD burchagi $135°$, ABDE teng yonli trapetsiyaning ABD burchagi



112,5° bo‘lsa, $\frac{AB}{BC}$ nisbaatni hisoblang.

A) 2 B) 3 C) 1,5 D) hisoblab bo‘lmaydi E) 0,5

(1997-10-43) Asoslari 12 va 16 ga, o‘tmas urchagi 120° ga teng bo‘lgan teng yonli trapetsiyaning yuzini toping.

A) $56\sqrt{3}$ B) $\frac{56}{\sqrt{3}}$ C) $28\sqrt{3}$ D) 14 E) 42

(1996-11-12) Rasmda tasvirlangan shaklning shtrixlangan qismini P perimetri va S yuzasini aniqlang. Bunda ABCD kvadratning tomoni 6 sm ga teng. ($\pi = 3$ ga teng deb olinsin.)



A) $P = 33sm,\ S = 22sm^2$ B) $P = 27sm,\ S = 22{,}5sm^2$

C) $P = 27sm, S = 27sm^2$ D) $P = 22{,}5sm, S = 22{,}5sm^2$

E) $P = 22{,}5sm,\ S = 33sm^2$

(1996-9-32) $x^2 + y^2 + 4x - 6y - 3 = 0$ tenglama bilan berilgan aylananing markazini toping.

A) (-2;3) B) (2;-3) C) (4;-3) D) (-4;6) E) (4;-6)

(1996-11-47) Aylananing markaziy burchagi 90°, u tiralgan yoy uzunligi 15 sm bo‘lsa, aylananing radiusi necha sm?

A) $\frac{15}{\pi}$ B) $\frac{18}{\pi}$ C) $\frac{24}{\pi}$ D) $\frac{30}{\pi}$ E) $\frac{36}{\pi}$

(1996-12-36) $x^2 + y^2 - 4x + 6y - 3 = 0$ tenglama bilan berilgan aylananing markazini toping.

A) (-4;-3) B) (4;-4) C) (-4;6) D) (2;-3) E) (-2;3)

(1996-12-102) R radiusli aylanaga tashqi chizilgan muntazam oltiburchakning tomonini toping.

A) $\frac{2\sqrt{2-\sqrt{3}}}{\sqrt{2+\sqrt{3}}}R$ B) $\frac{2\sqrt{3}}{3}R$ C) $1{,}5R$

D) $1{,}2R$ E) $\frac{2\sqrt{2-\sqrt{2}}}{\sqrt{2+\sqrt{2}}}R$

(1996-13-37) $x^2+y^2-4x-6y-3=0$ tenglama bilan berilgan aylananing radiusini toping.

A) 3 B) 5 C) 6 D) 3,5 E) 4

(1996-13-42) R radiusli aylnaga ichki chizilgan muntazam sakkizburchakning tomonini toping.

A) $R\sqrt{2-\sqrt{2}}$ B) $R\sqrt{2-\sqrt{3}}$ C) $R\sqrt{2-\sqrt{2}}$

D) $\frac{R\sqrt{2}}{2}$ E) $R\sqrt{\frac{5-\sqrt{5}}{2}}$

(1996-13-45) AB=3 sm, DB=1,8 sm ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.



A) 2 B) 3 C) 2,2 D) 2,5 E) 2,7

(1997-5-3) Soatning minut mili 9 minutda necha gradusga buriladi?

A) 15° B) 30° C) 25° D) 54° E) 60°

(1997-5-46) A(10;6) aylanadagi nuqta C(1;-6) nuqta aylananing markazi bo‘lsa, aylananing radiusini toping.

A) 14 B) 13 C) 16 D) 15 E) 17

(1997-5-42) Markaziy burchakka mos aylananing $\frac{1}{6}$ qismiga teng. Shu markaziy burchakni toping.

A) 45° B) 60° C) 90° D) 30° E) 120°

(1997-5-48) Radiusi 1 ga teng aylana uchta yoyga bo‘lingan. Ularga mos markaziy burchaklar 1;2 va 6 sonlarga proporsional. Yoylardan eng kattasii uzuligini toping.

A) $\frac{4\pi}{3}$ B) $\frac{3\pi}{4}$ C) $\frac{2\pi}{9}$ D) $\frac{5\pi}{9}$ E) $\frac{4\pi}{9}$

(1997-8-19) Aylananing MN vatari $140°$ li yoyni tortib turadi. MN vatar o‘zi tortib turgan yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko‘rinadi?

A) $270°$ B) $70°$ C) $100°$ D) $110°$ E) $120°$

(1997-8-28) Aylananing uzunligi $18\pi\sqrt{2}$ ga teng. Aylanadagi AB vatar $90°$ li yoyni tortib turadi. Vatarning uzunligini toping.

A) 8 B) 18 C) 16 D) 15 E) 8,5

(1996-6-60) Kubning qirrasi 6 ga teng. Kubga ichki chizilgan sharning hajmini toping.

A) 12π B) 36π C) 27π D) 12π E) 26π

(1996-3-108) Kub uchun necha simmetriya tekisligi mavjud?

A) 8 B) 9 C) 7 D) 10 E) 6

(1996-13-50) Ixtiyoriy to‘g‘ri burchakli paralellepiped uchun kamida nechta simmetriya tekisligi mavjud?

A) 4 B) 2 C) 3 D) 5 E) 1

(1997-2-8) Kuning barcha qirralari yig‘nidisi 48 ga teng. Kub sirtining yuzini toping.

A) 96 B) 24 C) 36 D) 48 E) 56

(1997-9-58) Qirrasi 6 ga teng kub A,B va C nuqtalardan o‘tuvchi tekislik bilan ikki bo‘lakka bo‘ligan. Kichik bo‘lakning hajmi nimaga teng?



A) 25 B) 36 C) 49 D) 64

(1997-12-8) Kub to‘la sirtining yuzi 96 ga teng. Kubnining hajmini toping.

A) 60 B) 62 C) 64 D) 66 E) 68

(1997-3-51) Uchburchakli to‘g‘ri prizmaning asosi tomonlari 29, 25 va 6 ga, yon qirrasi esa asosining katta balandligiga teng. Prizmaning hajmini toping.

A) 1425 B) 878 C) 400 D) 1200 E) 600

Eslatma: Katta balandlik kichik tomonga, kichik balandlik katta tomonga tushadi.

(1997-8-58) Balandliklari $h_1 < h_2 < h_3 < h_4$ shartni qanoatlantiradigan tengdosh prizmalar asoslarining yuzlari S_1, S_2, S_3 va S_4 uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri o‘rinli?

A) $S_1 < S_2 < S_3 < S_4$ B) $S_1 > S_3 > S_2 > S_4$

C) $S_1 > S_2 > S_3 > S_4$ D) $S_1 < S_3 < S_2 < S_4$

E) $S_1 > S_2 > S_4 > S_3$

(1997-7-51) Uchburchakli to‘g‘ri prizma asosining tomonlari 15; 20 va 25 ga , yon qirrasi asosining kichik balandligiga teng. Prizmaning hajmini toping.

A) 600 B) 750 C) 1800 D) 1200 E) 1440

(1997-6-42) Muntazam to‘rtburchakli prizma asosining tomoni $\sqrt{2}$ ga, diagonali bilan yon yog‘ining orasidagi burchak esa $30°$ ga teng. Prizmaning hajmini toping.

A) $8\sqrt{2}$ B) 4 C) 16 D) $4\sqrt{2}$ E) 6

(1997-10-51) Asosining tomonlari 10; 17 va 51 bo‘lgan uchburchakli to‘g‘ri prizmaning yon qirrasi asosining kichik balandligiga teng. Prizmaning hajmini toping.

A) 224 B) 672 C) 840 D) 368 E) 1680

(1996-9-43) Chiziqli o‘lchovlari 3; 4 va $2\sqrt{14}$ sm bo‘lgan to‘g‘ri burchakli paralellepipedning diagonali necha sm?

A) 8 B) 7 C) 10 D) 9 E) 6

(1996-10-53) To‘g‘ri burchakli parallelepiped asosining tomonlari7 va 24 sm, balandligi esa 8 sm. Diagonal kesim yuzini toping.

A) 168 B) 1344 C) 100 D) 200 E) 672

(1996-12-104) Asosi kvadrat bo‘lgan to‘g‘ri burchakli parallelepiped uchun nechta simmetriya tekisligi mavjud?

A) 9 B) 7 C) 3 D) 5 E) 4

(1997-6-39) To‘g‘ri parallelepiped asosining tomonlari 3 va 5 ga teng bo‘lib, $60°$li burchak tashkil etadi.

Parallelepipedning yon qirrasi $7\sqrt{2}$ ga teng bo‘lsa, katta diagonali bilan asos tekisligi orasidagi burchakni toping.

A) $45°$ B) $arctg\sqrt{2}$ C) $30°$ D) $60°$ E) $arctg2$

(1997-11-39) To‘g‘ri parallelepiped asosining tomonlari 6 va $\sqrt{3}$ ga teng bo‘lib, $30°$ li burchak tashkil qiladi.

Parallelepipedning kichik diagonali $\sqrt{42}$ ga teng. Shu diagonalning asos tekisligi bilan hosil qilgan burchagini toping.

A) $arctg\sqrt{2}$ B) $45°$ C) $60°$ D) $30°$ E) $arccos\frac{1}{4}$

(1996-6-58) Piramidaning yon qirralari o‘zaro teng. Quyidagi figuralardan qaysi biri piramidaing asosi bo‘laolmaydi?

A) kvadrat B) to‘g‘ri to‘rtburchak C) uchburchak D) romb E) muntazam ko‘pburchak

(1996-9-44) Muntazam to‘rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 3 va 7 sm, diagonali 10 sm. Kesik piramidaning balandligi necha sm?

A) 5 B) $5\sqrt{2}$ C) $4\sqrt{2}$ D) 4 E) $6\sqrt{2}$

(1996-11-53) To‘rtburchakli muntazam piramida asosining tomoni 4 marta kattalashtirildi, balandligi esa 4 marta kichiklashtirildi. Hosil bo‘lgan piramida hajmining dastlabki piramida hajmiga nisbatini toping.

A) 1:16 B) 16:1 C) 1:1 D) 1:4 E) 4:1

(1996-12-55) To‘rtburchakli muntazam piramida asosining tomoni 3 marta kattalashtirildi, balandligi esa 3 marta kichiklashtirildi. Hosil bo‘lgan piramida hajmining dastlabki piramida hajmiga nisbatini toping.

A) 3:1 B) 1:3 C) 9:1 D) 1:9 E) 1:1

(1996-12-83) Muntazam to‘rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 4 va 8 sm, diagonali 12 sm. Kesik piramida balandligini toping.

A) 3 B) $6\sqrt{2}$ C) 5 D) 4,5 E) 3,5

(1997-1-43) Quyida keltirilgan parallelogrammning qaysilari barcha yon yoqlari asos tekisligi bilan bir xil burchak tashkil qiladigan piramidaning asosi bo‘lishi mumkin?

A) ixtiyoriy parallelogramm B) faqat kvadrat
C) romb yoki kvadrat D) faqat to‘g‘ri to‘rtburchak
E) kvadrat yoki to‘g‘ri to‘rtburchak

(1997-2-58) Piramidaning yon yoqlari asos bilan bir xil burchak tashkil qiladi. Quyidagi ko‘pburchaklardan qaysi biri piramidaning asosi bo‘lolmaydi?

A) romb B) uchburchak C) kvadrat
D) to‘g‘ri to‘rtburchak E) muntazam oltiburchak

(1997-8-55) Muntazam piramida yon sirtining yuzi 96 ga, asosining perimetri 24 ga teng. Piramida apofemasini toping.

A) 16 B) 10 C) 6 D) 8 E) 12

(1997-8-59) Piramidaning yon qirralari asos tekisligi bilan bir xil burchak tashkil etadi. Quyidagi ko‘pburchaklardan qaysi biri piramidaning asosi bo‘lolmaydi?

A) uchburchak B) muntazam oltiburchak
C) to‘g‘ri to‘rtburchak D) kvadrat E) romb

(1997-7-53) Hajmi 48 bo‘lgan to‘rtburchakli muntazam piramida asosining tomoni 6 ga teng. Piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 144 B) 60 C) 72 D) 120 E) 96

(1996-13-52) Muntazam to‘rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 3 va 5 sm, diagonali 9 sm. Kesik piramida balandligi echa sm?

A) 6 B) 7 C) 5 D) 8 E) 6,5

(1997-10-53) Hajmi 1296 bo‘lgan to‘rtburchakli muntazam piramida asosining tomoi 18 ga teng. Piramidaning yon sirti yuzini toping.

A) 540 B) 1080 C) 360 D) 900 E) 450

(1997-12-61) Muntazam uchurchakli piramidaning balandligi 4 ga, asosining balandligi esa 4,5 ga teng. Piramidaning yon qirrasini toping.

A) 6 B) 6,5 C) 5 D) 5,5 E) 5,3

(1997-12-56) Piramidaning uchidan yon tomonlariga tushirilgan balandliklari o‘zaro teng. Quyidagi figuralardan qaysi biri piramidaning asosida yota olmaydi?

A) Romb B) muntazam oltiburchak C) uchburchak
D) to‘g‘ri to‘rtburchak E) kvadrat

(1996-12-56) Konus asosining radiusi $\frac{\sqrt{3}}{2}$ ga teng. Konusning yasovchisi bilan uning asos tekisligi orasidagi burchak qanday bo‘lganda konus yon sirtining yuzi $\frac{\pi}{\sqrt{3}}$ ga teng bo‘ladi?

A) $arccos\frac{1}{\sqrt{3}}$ B) $arccos\frac{1}{3}$ C) $45°$ D) $30°$ E) $60°$

(1997-10-52) Yasovchisi 10 ga, asosining radiusi 6 ga teng bo‘lgan konusga ichki chizilgan sharning radiusini toping.

A) 3 B) 4 C) $3\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{2}$ E) $3\frac{1}{3}$

(1997-12-59) Sharga tashqi chizilgan kesik konusning yasovchilari o‘rtalaridan o‘tuvchi tekislik ilan shu kesik konus hosil qilgan kesimning yuzi 4π ga teng. Kesik konusning yasovchisini toping.

A) 2 B) 4 C) 3 D) 5 E) 6

(1997-12-60) Yasovchisi 5 ga, balandligi 4 ga teng bo‘lgan konus asosidan 2 ga teng masofada shu asosga paralel tekislik bilan kesildi. Hosil bo‘lgan kesimning yuzini hisoblang.

A) $2{,}25\pi$ B) $3{,}16\pi$ C) $2{,}64\pi$ D) $1{,}81\pi$ E) $3{,}26\pi$

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907 sojnli Qarori. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga oid farmon va qarorlari” to‘plami. –Samarqand, 2018.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931 sonli Qarori. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga oid farmon va qarorlari” to‘plami. –Samarqand, 2018.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli Farmoni. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga oid farmon va qarorlari” to‘plami. –Samarqand, 2018.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektr majlisi Bayoni. – 2019-yil 27-avgust, № 19750-hh.

5.2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –“Xalq so‘zi” gazetasi. 2020-yil, 25-yanvar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarnirivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli Qarori.

7.O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 4-tom. –Toshkent, 1973.

8.Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Iste’dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. –Toshkent: “Zamin nashr” MChJ , 2019. – 160 bet.

9.Muxitdinov M.M., Ahmedov Sh.B., Xusanov N.O. Matematika: Algebraik tenglamalar va tengsizliklarga oid test savollari va ularning yechimlari. 1-kitob. -Toshkent: “Zamin nashr”, 2019, -512 bet.

10.Muxitdinov M.M., Ahmedov Sh.B., Xusanov N.O. Matematika: Trigonometrik tenglamalar va tengsizliklar, xosila va integrallarga oid test savollari va ularning yechimlari. 2-kitob. -Toshkent: “Zamin nashr”, 2019, -368 bet.

11.Muxitdinov M.M., Ahmedov Sh.B., Xusanov N.O. Matematika: Planimitriya va stereometriyaga oid test savollari va ularning yechimlari. 3-kitob. -Toshkent: “Zamin nashr”, 2019, -312 bet.

12.Смышляев В.К. Развитие интереса к математике у учащихся старших классов (На материале внеклассной работы в школе-интернате). –Дис. … канд. пед.наук. – М.:1963.

13. Антонов Н.П., Вигодский М.Я., Никитин В.В., Санкин А.И. Элементар математика масалалари тўплами. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти. 1975. – 456 бет.

14. Ахборотнома. Ўқув юртларига кириш учун тест саволлари. –Тошкент, 2003.

15. Выгодский М.Я. Справочник по элементарной математике. – Москва: Наука, 1978. – 336 с.

16. Davronov P.Z., Raximov X.A., Moshonov M. Elementar matematikaning asosiy tushunchalari. – Samarqand, 2015. – 112 bet.

17. Jo‘raev A. Matematikadan yon daftarcha. – Yakkabog‘, 2018. – 116 bet.

18. Куценко Э.Н., Мельникова Н.Н. Математикадан масалалар ечиш. 2 қисм. Геометрия масалалари. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1987. – 136 бет.

19. Математика терминлари изоҳли луғати. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1974. – 552 бет.

20. Мирзаахмедов М.А., Сотиболдиев Д. Ўқувчиларни математик олимпиадаларга тайёрлаш. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1993. – 424 бет.

M U N D A R I J A

Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN

MISOL VA MASALALAR YECHISH

1-kitob

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI

Muharrir: Muhammad Sobir
Musahhih: Osima Sobirjon qizi

Texnik muharrir: Sherzod Xujakulov
Nashrga tayyorlovchi: Jo‘rabek O‘sarov
Sahifalovchi dizayner: Ulug‘bek Umarov

ISBN 978-9943-7049-3-0

“Qamar media” nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani
Qo‘yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +998 94-672-71-11

Terishga berildi: 21.01.2022-yil. Bosishga ruxsat etildi: 05.02.2022-yil.
Bichimi 60x84 1/16, “Times New Roman” garniturasi.
Bosma tabog‘i 23,8. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2022/06
Bahosi kelishilgan narxda
Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi

ISBN 978-9943-7049-3-0